JOURNALS & BOOKS

ACADEMIC SCIENCE PUBLISHING

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

“O‘ZBEKISTONDA ILM-FAN VA TA’LIMNING DOLZARB MASALALARI: MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR”



19-SENTABR 2026-YIL

academscience.com

TOSHKENT

Google Scholar | Zenodo | OpenAIRE

Academic Sciense Puplishing,

Academic Research Publisher hamda

UniScience Journali hamkorligida

****

«O‘ZBEKISTONDA ILM-FAN VA TA’LIMNING DOLZARB MASALALARI: MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR»

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami.

Toshkent

19-sentabr, 2026-yil

****

O‘zbekistonda ilm-fan va ta’limning dolzarb masalalari: muammolar, yechimlar va istiqbollar // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent. 19-sentabr, 2026.

Konferensiya tahririyat a’zolari

Temnova L.V. - DSc, Professor (Moscow, Russia); **Sagatbayev Y.N. -** PhD, professor (Astana, Kazakhstan); **Duyshenaliev CH.D. -** DSc, Professor (Bishkek, Kyrgyzstan); **Pashkov S.V. -** PhD, professor (Petropavlovsk, Kazakhstan); **Khakimov K.A. -** PhD, docent (Tashkent, Uzbekistan); **Melekoglu M. -** DSc, professor (Eskisehir, Turkey); **Jurayev J**. - PhD, docent (Samarkand, Uzbekistan); **Azimov S.** -PhD, docent (Tashkent, Uzbekistan); **Shonazarov J**. -PhD, docent (Qarshi, Uzbekistan); **Gapparov B**. - Docent, (Jizzakh, Uzbekistan); **Qo‘shayev T**. - Teacher, (Termiz, Uzbekistan); **Arifxodjayeva L**. - Teacher, (Tashkent, Uzbekstan)

„O‘zbekistonda ilm-fan va ta’limning dolzarb masalalari: muammolar, yechimlar va istiqbollar“ mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyaning asosiy maqsadi — O‘zbekistonda ilm-fan va ta’lim sohalarida olib borilayotgan zamonaviy tadqiqotlarni bir ilmiy makonda birlashtirish, dolzarb muammolarni aniqlash va ularning ilmiy-amaliy yechimlarini muhokama qilish, fanlararo integratsiyani kuchaytirish hamda istiqbolli tadqiqot yo‘nalishlarini qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

**Maqolalarning mazmuni, undagi ma’lumotlar, faktlar va raqamlar uchun mualliflar javobgardir.*

The proceedings of the International Scientific-Practical Conference have been discussed by the Scientific-Technical Council of the international publisher **„Academic Research Publisher“** (London, United Kingdom) and recommended for publication (18.09.2026, Protocol No. 35).

MUNDARIJA

1. TABIIY VA FUNDAMENTAL FANLARNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI 11

INFLYATSIYA JARAYONLARINI DIFFERENSIAL TENGLAMALAR YORDAMIDA MODELLASHTIRISH 12

HAYVON TERISINI QAYTA ISHLASH NATIJASIDA AJRALADIGAN CHIQINDILAR VA ULARNING KIMYOVIY TARKIBINI O‘RGANISH 23

DOLOMITNING SULFAT KISLOTALI PARCHALANISH KINETIKASI VA KALSIY SULFATLI QOLDIQNING HOSIL BO‘LISH MEXANIZMI..... 27

MDEANING FIZIK KIMYOVIY XOSSALARI VA ISHCHI ERITMA HOLATI.. 33

SYNTHESIS, IR-SPECTRAL AND THERMAL ANALYSIS OF A THERMOSTABLE SUBSTANCE BASED ON LIQUID GLASS AND SILICA SOL 41

2. MUHANDISLIK, TEXNIKA, ENERGETIKA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDA INNOVATSION YECHIMLAR 46

DAVLAT AXBOROT TIZIMLARIDA MUHIM INFRATUZILMA OBYEKTLARINI ANIQLASHNING DOLZARB MASALALARI 47

AGMK MOF-3 SHARLI TEGIRMON GIDROTRANSPORT TIZIMIDA PO‘LAT SHAR PARCHALARINING ABRAZIV YEMIRISH TA’SIRINI STATSIONAR MAGNITLI USHLAGICH BILAN KAMAYTIRISH 49

AGMK MOF-3: 12 TA SHARLI TEGIRMONTNING STATSIONAR MAGNITLI USHLAGICH ORQALI PO‘LAT PARCHA VA MINERAL YO‘QOTISHNI TIZIMLI NAZORAT QILISH..... 64

TEMPORAL AND MULTIMODAL BEHAVIORAL ANALYSIS FOR IMPROVING REAL-TIME VIDEO DETECTION 69

GAZLARNI QURITISH USULLARI VA GLIKOLLI ABSORBSIYANING TEXNOLOGIK O‘RNI..... 74

KOMPOZITSION GLIKOLNI QO‘LLASH TEXNOLOGIYASI VA TEXNIK IQTISODIY SAMARADORLIK 80

TABIIY GAZNI QURITISHDA GLIKOLLI ABSORBENTLAR UCHUN FUNKSIONAL QO'NDIRMALAR VA KOMPOZITSIYA YARATISH YONDASHUVLARI 90

M 3 VA M 3 PIP TMC BDSA MEMBRANALARI SAMARADORLIGINING QIYOSIY BAHOSI..... 97

MDEA ERITMASINI TBTDAN TOZALASH TEXNOLOGIYASINI OPTIMALLASHTIRISH VA SANOATGA TATBIQ ETISH 102

К ВОПРОСУ ОПТИМИЗАЦИИ ПРЕДВАРИТЕЛЬНО НАПРЯЖЁННЫХ ЖЕЛЕЗОБЕТОННЫХ СТРОПИЛЬНЫХ БАЛОК ПРИ СНИЖЕНИИ НАГРУЗОК ОТ ЛЁГКИХ ПОКРЫТИЙ 107

ТИПЫ МАГНИТНЫХ СЕПАРАТОРОВ И МАГНИТНЫХ МАТЕРИАЛОВ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ, ОБОСНОВАНИЕ ВЫБОРА И ОЦЕНКА ОПТИМАЛЬНОЙ СИЛЫ ДЛЯ СТАЦИОНАРНОГО МАГНИТНОГО УЛОВИТЕЛЯ МОФ-3 112

СРАВНИТЕЛЬНАЯ ОЦЕНКА СЕЙСМОИЗОЛЯЦИОННОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ГИБРИДНОЙ СИСТЕМЫ ФРИКЦИОННО-МАЯТНИКОВЫХ И СВИНЦОВО-РЕЗИНОВЫХ ОПОР 117

DETERMINATION OF THE OXYGEN INDEX OF FIRE-RETARDANT ENAMEL COATINGS MODIFIED WITH A THERMOSTABLE MODIFIER BASED ON ACRYLIC ACID AND SILICA SOL 122

MAXSAR MOYI VA GRILL YOG‘INING FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARINI TADQIQ ETISH HAMDA ULARNI PLASTIK SURKOV MATERIALLARI UCHUN BAZAVIY MOY SIFATIDA BAHOLASH 126

MAXSAR MOYI VA GRILL YOG‘I ASOSIDAGI BAZAVIY MOY KOMPOZITSIYASINING OPTIMAL TARKIBINI TANLASH VA QOVUSHQOQLIK XOSSALARINI TADQIQ ETISH 131

3. GEOGRAFIYA, GEOLOGIYA, EKOLOGIYA VA TABIIY RESURSLARDAN OQILONA FOYDALANISH MASALALARI 135

QURILISH CHANGINI MONITORING QILISH METODLARINI O’ZBEKISTON IQLIM SHAROITLARIGA MOSLASHTIRISH BO‘YICHA AMALIY TAVSIYALAR 136

SIRDARYO VILOYATI HUDUDINING RESURS IMKONIYATLARINI TADQIQ ETISHDA MASOFADAN ZONDLASH MA’LUMOTLARINING O‘RNI VA AHAMIYATI (NDVI, NDMI, NDSI, MNDWI INDEKSLARI ASOSIDA) 144

BORT VA POG‘ONALAR TURG‘UNLIGINI TEKTONIK KUCHLANISHNI HISOBGA OLGAN HOLDA KOMPLEKS BAHOLASH VA MONITORING METODIKASI (QALMOQQIR KONI MISOLIDA) 152

ARNASOY SUV OMBORINING EKOLOGIK HOLATI VA ATROF-MUHITGA TA’SIRINI BAHOLASH BO‘YICHA ILMIY TADQIQOTLAR TAHLILI 169

AGMK MOF-3: GIDROTRANSPORT MAGISTRAL QUVURLARI VA LOTOKLARIDA YORIQ HOSIL BO’LISHI, REAGENTLI SUV OQISHI VA BUNING pH NAZORATIGA TA’SIRI 175

IQLIM O‘ZGARISHI SHAROITIDA OHANGARON DARYOSI HAVZASINING EKOLOGIK HOLATINI GIDROKIMYOVIY KO‘RSATKICHLAR ASOSIDA BAHOLASH 180

ZARAFSHON DARYOSI SUVINING AZOT BIRIKMALARI BILAN IFLOSLANISHI (2022 YIL KUZ MAVSUMI MISOLIDA) 186

ZARAFSHON DARYOSINING KUZGI DAVRDAGI GIDROKIMYOVIY HOLATI VA AZOTLI BIRIKMALAR BILAN IFLOSLANISHI TAHLIL QILISH 191

SANOAT KORXONALARIDA SUV TA’MINOTI TIZIMLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA SUV SIFATINI YAXSHILASH USULLARI 198

SANOAT OQOVA SUVLARINI TOZALASHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI 202

4. QISHLOQ XO‘JALIGI, VETERINARIYA, OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI VA BARQAROR QISHLOQ RIVOJLANISHI 206

MOYLI ZIG‘IR (*LINUM USITATISSIMUM L.*) NAV VA TIZMALARINING FENOLOGIK RIVOJLANISH BOSQICHLARI HAMDA AGROBIOLOGIK XUSUSIYATLARINI BAHOLASH 207

AGROECOLOGICAL FACTORS INFLUENCING THE DEVELOPMENT AND SPREAD OF FUNGAL DISEASES IN APPLE ORCHARDS OF UZBEKISTAN 212

QIZILMIYA (*GLYCYRRHIZA GLABRA* L.) ILDIZIDAN AJRATILGAN ENDOFIT BAKTERIYALARNING BUG‘DOY (*TRITICUM AESTIVUM* L.) URUG‘LARINING UNISH KO‘RSATKICHLARIGA TA’SIRI 219

BIOGUMUSNING TUPROQ UNUMDORLIGIGA TA’SIRI 222

МОШ ЎСИМЛИГИНИНГ ДУККАКЛАРИ ШАКИЛЛАНИШИГА СИДЕРАТ ЭКИНЛАРНИНГ ТАЪСИРИ 225

ШАФТОЛИ НАВЛАРИ МЕВАЛАРИНИНГ КИМЁВИЙ ТАРКИБИ ВА ТАЪМ МУВОЗАНАТИНИ ҚИЁСИЙ БАҲОЛАШ 229

G‘O‘ZANI SUG‘ORISHDA OCHIQ SUV YUZASIDAN BO‘LADIGAN BUG‘LANISHNI HISOBGA OLGAN HOLDA SUG‘ORISH ME’YORINI BELGILASH 236

5. TIBBIYOT, FARMATSEVTIKA, BIOTEXNOLOGIYA VA JAMOAT SALOMATLIGINING DOLZARB MASALALARI 251

YALLIG‘LANISH BILAN BOG‘LIQ PATOGEN OMILLARNING OSTEOARTROZ KASALLIGIDA GLIKOLIZ–MITOXONDRIAL METABOLIZM BUZILISHLARI RIVOJLANISHIDAGI ROLI 252

*PSEUDOMONAS AERUGINOSA*NING YOSH VA JINSGA BOG‘LIQ EPIDEMIOLOGIK XUSUSIYATLARI 256

ADAPTIV JISMONIY TARBIYADA TAYANCH HARAKAT APPARATI SHIKASTLANGAN SPORTCHILARNING QISQA MASOFAGA YUGURISH TEXNIKASINI EGALLASH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI 258

ABU-L-QOSIM AZ-ZAHRAVIY HAYOTI VA ILMIY FAOLIYATINING ASOSIY YO‘NALISHLARI 263

СПИРОМЕТРИЯ ПРИ ОБОСТРЕНИИ ХРОНИЧЕСКОЙ ОБСТРУКТИВНОЙ БОЛЕЗНИ ЛЁГКИХ: АНАЛИЗ ТЕХНИЧЕСКИХ ОШИБОК И КЛИНИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ 270

ТАШҚИ МУҲИТ ОМИЛЛАРИНИНГ ОШҚОЗОН МОРФОЛОГИЯСИГА ТАЪСИРИ 277

6. IQTISODIYOT, MOLIYA, BOSHQARUV, HUQUQ VA IJTIMOIY TARAQQIYOTNING ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI 280

TIJORAT BANKLARI XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING XORIJIY TAJRIBASI VA UNI O‘ZBEKISTON AMALIYOTIDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI 281

O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI KANALLAR ORQALI BANK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘NALISHLARI 288

O‘ZBEKISTONDA ISLOMIY MOLIYAGA OID HUQUQIY ISLOHOTLARNING IQTISODIYOT TARMOQLARI VA SOLIQ TIZIMIGA TA’SIRI 297

SUSTAINABLE WORKPLACE: THE ROLE OF OFFICE DESIGN AND PSYCHOLOGICAL EMPOWERMENT IN ORGANIZATIONAL CITIZENSHIP BEHAVIOR 304

QASHQADARYO VILOYATI IQTISODIY TARAQQIYOTIDA MEVA-SABZAVOTLAR EKSPORTINING O‘RNI 312

ДАВЛАТ ИШТИРОКИДАГИ КОРХОНАЛАРДА ИЧКИ НАЗОРАТ ТИЗИМИ САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШНИНГ ИЛМИЙ-МЕТОДИК АСОСЛАРИ 318

АНАЛИЗ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН ПО РЕГУЛИРОВАНИЮ ГОСУДАРСТВЕННЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ 327

ВЛИЯНИЕ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ И ЦЕН НА ПРОДУКТЫ ПИТАНИЯ НА ДОСТУПНОСТЬ ЗДОРОВОГО ПИТАНИЯ НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА И СТРАН ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ 349

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH ORQALI KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH 353

FUQAROLAR MUROJAATLARI DAVLAT BOSHQARUVIDAGI MUAMMOLARNI ANIQLASH VOSITASI SIFATIDA 359

7. TA’LIM, PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI 363

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA BADIIY ASARLARNI O‘RGATISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK ASOSLARI 364

PROFESSIONAL TA’LIM O‘QUVCHILARIDA VIZUAL-KONSTRUKTIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI 370

TASVIRIY SAN’AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI INTEGRATSIYASI ASOSIDA PROFESSIONAL TA’LIM O‘QUVCHILARIDA VIZUAL-KONSTRUKTIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI 376

OCCUPATIONAL WELL-BEING OF COUNSELORS IN PRIVATE HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS: CURRENT REALITY AND ENHANCEMENT PATHWAYS — AN EMPIRICAL STUDY BASED ON UNIVERSITY D..... 381

BIDIRECTIONAL-PREDICTIVE EVIDENCE-BASED STUDY ON DAILY PHYSICAL ACTIVITY AND EMOTIONAL STATES OF PHYSICAL-EDUCATION MAJOR UNDERGRADUATES 390

ONA TILI TA’LIMIDA TINGLAB TUSHUNISH TOPSHIRIQLARINI MOSLASHUVCHAN LOYIHALASH MEXANIZMI 401

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA KOMPYUTER SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH USULLARI 407

TIME PERSPECTIVE AS A PSYCHOLOGICAL DETERMINANT OF ACADEMIC PROCRASTINATION AMONG UNIVERSITY STUDENTS 414

MAKTABGACHA TA’LIM JARAYONIDA INNOVATSION VA NOAN’ANAVIY YONDASHUVLARNING INTEGRATSIYASI 421

BIOLOGIYA TA’LIMIDA O‘QUVCHILARNING EKOLOGIK KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH 426

O‘ZBEKISTONDA VAZIFAGA ASOSLANGAN TIL O‘QITISH (TBLT) UCHUN SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA YARATILGAN AKADEMIK MATNLARNI MOSLASHTIRISHDA O‘QITUVCHILARNING QAROR QABUL QILISH JARAYONI 430

OLIY TA’LIMDA TALABALARNING KOGNITIV FAOLLIGINI OSHIRISHDA NEYROPEDAGOGIK YONDASHUVLARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY-AMALIY ASOSLARI 437

RAQAMLASHUV SHAROITIDA TALABA SHAXSIDA AKADEMIK IMPOSTOR SINDROMI SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI VA UNING DINAMIKASI 441

NUTQIDA NUQSONI BO‘LGAN MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR BOG‘LANGAN NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA KORREKSION MASHQLARNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI 445

THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN MODERN EDUCATION 449

КАСБИЙ ЛЕКСИКАНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИНТЕГРАТИВ ЁНДАШУВ АСОСИДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ 454

8. FILOLOGIYA, TARIX, FALSAFA, MADANIYAT VA JAMIYATNING MA’NAVIY TARAQQIYOTI 458

UBAYDIY G‘AZALIYOTIDA TASAVVUFIY TIMSOL VA RAMZLAR TAHLILI 459

BOJXONA TERMINOLOGIYASINING TASNIFI VA UNING KASBIY MULOQOTDA QO‘LLANILISHI FRANSUZ TILI MISOLIDA 464

ZAMONAVIY FESTIVALLARNING IJTIMOIY-MADANIY FUNKSIYALARI: NAMANGAN XALQARO GULLAR FESTIVALI MISOLIDA 473

BADIIY MATNNI LINGVOPOETIK TAHLIL QILISHNING: NAZARIY ASOSLARI 478

AQSH ILMIY VA DAVRIY NASHRLARIDA O‘ZBEKISTON TARIXINING DASTLABKI O‘RGANILISHI VA YORITILISHI 484

MANUSCRIPT PRODUCTION IN HERAT DURING THE REIGN OF ABU’L-QASIM BABUR: HISTORIOGRAPHICAL INTERPRETATIONS AND MANUSCRIPT EVIDENCE 488

O‘ZBEKISTONDA TARIXIY YODGORLIKLARNI TA’MIRLASH VA MUHOFAZA QILISH MUAMMOLARI 493

BUXORO VILOYATIDA MADANIY MEROS OBYEKTLARINI MUHOFAZA QILISH TIZIMINING SHAKLLANISH TARIXIDAN 501

O‘ZBEK VA INGLIZ KOLLOKATSIYALARIDA SEMANTIK PROSODIYANING QIYOSIY IFODALANISHI 505

INGLIZ–O‘ZBEK BADIIY TARJIMASIDA PRAGMATIK TA’SIRNI QAYTA YARATISHNING KOGNITIV STRATEGIYALARI 520

KOREYA URUSHI VA UNGA XALQARO KUCHLARNING ARALASHUVI.. 525

SUG‘D VA SUG‘DIYLAR TARIXINI O‘RGANISHDA MANBASHUNOSLIK YONDASHUVLARI 530

TURKISTONDA MAHALLIY BOSHQARUV INSTITUTLARI FAOLIYATIDA MUSULMON JAMOALARINING O‘RNI (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLAR 537

1. TABIIY VA FUNDAMENTAL FANLARNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

INFLYATSIYA JARAYONLARINI DIFFERENSIAL TENGLAMALAR YORDAMIDA MODELLASHTIRISH

Aripbayeva Gauxar Namazbek qizi
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti

Annotatsiya. *O‘zbekiston iqtisodiyotida narxlar dinamikasi 2024-yilda pul-kredit uzatish kanali va iste’mol narxlari bosimi sabab yanada sezgir tus oldi, shu bois inflyatsion siljishlarni uzluksiz vaqt doirasida ifodalash zarurati kuchaydi. Tadqiqotning maqsadi differensial tenglamalar asosida qurilgan ekonometrik model yordamida inflyatsiya, pul massasi va YaIM o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholash hamda narxlar dinamikasining qisqa muddatli trayektoriyasini tushuntirishdan iborat. Tahlilda oylik kuzatuvlarga tayangan tavsifiy statistika, korrelyatsiya matritsasi, uzilgan vaqt qatori mantiqi va robast xatolar bilan baholangan parametrlar qo‘llandi; modelning moslashuvi kompozit spetsifikatsiya orqali tekshirildi. Deskriptiv blokda inflyatsiya o‘zgaruvchanligi 7,8 Foiz, pul massasi tebranishi 1,48 Foiz atrofida jamlangani kuzatildi, yakuniy model esa $R^2 = 0,41$ darajasida tushuntirish kuchini berdi va umumiy parametrlar $p<0,001$ bilan ahamiyatli chiqdi. Natijalar inflyatsiya zarbasi darhol so‘nmasligini, balki monetar ko‘rsatkichlar bilan birga bosqichma-bosqich yumshashini ko‘rsatdi. Ushbu ishning ilmiy hissasi shundan iboratki, differensial tenglamalar yordamida narxlar bosimi vaqt bo‘ylab uzluksiz jarayon sifatida talqin qilindi va robast xatolar asosida baholash inflyatsion prognozlarning ishonchliligini oshirdi. Kelgusida kutishlar kanalini ham qo‘shgan holda modelni yanada aniqlashtirish maqsadga muvofiq.*

Kalit so‘zlar: *ekonometrik tahlil, iste’mol narxlari, monetar siyosat, narxlar dinamikasi, O‘zbekiston, vaqt qatori*

Аннотация. *В экономике Узбекистана динамика цен в 2024 году стала более чувствительной из-за канала денежно-кредитной трансмиссии и давления потребительских цен, поэтому возникла необходимость описывать инфляционные сдвиги в непрерывном временном контуре. Цель исследования состояла в том, чтобы с помощью эконометрической модели, построенной на дифференциальных уравнениях, оценить связь между инфляцией, денежной массой и ВВП, а также объяснить краткосрочную траекторию динамики цен. В анализе использовались описательная статистика по месячным наблюдениям,*

корреляционная матрица, логика прерванного временного ряда и параметры, оцененные с робастными ошибками; согласованность модели проверялась через композитную спецификацию. В описательном блоке было зафиксировано, что изменчивость инфляции составила 7,8 %, а колебания денежной массы — около 1,48 %; итоговая модель показала объясняющую способность на уровне R^2 = 0,41, а общая значимость параметров подтвердилась при $p<0,001$. Результаты показали, что инфляционный шок не затухает мгновенно, а смягчается поэтапно вместе с монетарными индикаторами. Научный вклад работы заключается в том, что давление цен интерпретировано как непрерывный процесс во времени средствами дифференциальных уравнений, а оценивание с робастными ошибками повысило надежность инфляционного прогнозирования. В дальнейшем модель целесообразно уточнить за счет включения канала ожиданий.

Ключевые слова: *эконометрический анализ, потребительские цены, денежно-кредитная политика, динамика цен, Узбекистан, временной ряд*

Abstract. *In Uzbekistan’s economy, price dynamics became more sensitive in 2024 because of the monetary transmission channel and pressure from consumer prices, which made it necessary to describe inflation shifts in a continuous time framework. The purpose of the study was to use an econometric model built on differential equations to assess the relationship between inflation, money supply, and GDP, and to explain the short-run trajectory of price dynamics. The analysis relied on descriptive statistics for monthly observations, a correlation matrix, interrupted time-series logic, and parameters estimated with robust errors; model consistency was checked through a composite specification. In the descriptive block, inflation variability reached 7.8 %, while money-supply fluctuations were about 1.48 %; the final model produced explanatory power of R^2 = 0.41, and the overall significance of the parameters was confirmed at $p<0.001$. The results showed that the inflation shock does not fade instantly but softens step by step together with monetary indicators. The scientific contribution of the paper is that price pressure was interpreted as a continuous process over time by means of differential equations, and estimation with robust errors improved the reliability of inflation forecasting. Further refinement of the model would be advisable by incorporating the expectations channel.*

Keywords: *econometric analysis, consumer prices, monetary policy, price dynamics, Uzbekistan, time series*

KIRISH

O‘zbekiston iqtisodiyotida narxlar dinamikasi 2024-yilda pul-kredit uzatish kanali va iste’mol narxlari bosimi orqali keskin sezildi [1]. Inflyatsiya jarayonlari differensial tenglamalar yordamida modellashtirilganda, vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchi tezlanish va sekinlashuvlar aniqroq ifodalanadi [2]. Shu bois mazkur ishda inflyatsiya jarayonlari va modellashtirishning narxlar barqarorligiga ta’siri o‘rganildi; diqqat markazida O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun kuzatilayotgan narxlar dinamikasi turadi [3]. Tadqiqotning maqsadi differensial tenglamalar asosidagi econometrik modelni sinash bo‘ldi, vazifalar esa to‘rtta yo‘nalishda belgilandi: nazariy asoslarni ajratish, modelni spetsifikatsiya qilish, ITS va Box-Tiao yondashuvini qo‘llash, ODE asosidagi natijalarni talqin qilish [4].

Suharev differensial tenglamalar inflyatsiya trayektoriyasini uzluksiz vaqt o‘lchovida tasvirlashini qayd etgan [5]. Biroq mavjud tadqiqotlarda O‘zbekiston sharoitida monetar siyosat, TXI, iqtisodiy tsikl va narxlar dinamikasi birlashtirilgan modellashtirish yetarli yoritilmagan [6]. Asosiy gipoteza shundan iboratki, differensial tenglamalarga tayangan dinamik econometrik model statik yondashuvlardan kuchliroq izoh kuchini beradi [4]. Nazariy yangilik sifatida inflyatsiya jarayonlari uchun ODE, ITS va uzatish funksiyasi birlashtirilgan yagona sxema taklif etildi [2]. Nazariy ahamiyat narxlar moslashuvini uzluksiz jarayon sifatida talqin qilishda namoyon bo‘ladi [7]. Amaliy natijalar monetar siyosat choralarini kalibrlashda va prognoz ufqini tanlashda qo‘llanishi mumkin [8].

ADABIYOTLAR TAHLILI

1-jadvaldagi qiyosiy tasnif differensial tenglamalar inflyatsiya jarayonlarini vaqt bo‘yicha uzluksiz ifodalashini ko‘rsatadi [2]. Sultonov va Ismailov nazariy asoslarda narxlar tezlanishini birinchi tartibli tenglama bilan bog‘lab, diskret yondashuvdagi sakrashlarni yumshatgan [3]. Mirzaev esa tizimli prognozda ikkinchi tartibli tuzilma qo‘shilganda, kutilmalar va monetar zarbalar alohida ajralishini empirik tarzda asoslagan [4]. Shu bois, adabiyotlar differensial tenglamalarni faqat tavsifiy vosita emas, balki narxlar dinamikasi uchun sababiy mexanizm sifatida ko‘radi.

Phillips egri chizig‘i bo‘yicha izlanishlar inflyatsiya va ishsizlik o‘rtasidagi almashinuvni turlicha baholaydi [9]. Clarida, Galí va Gertler monetar siyosat qoidalari qat’iylashganda, kutilma kanali kuchayishini nazariy asosladi [9]. Taylor qoidasi esa foiz stavkasi javobi yetarli bo‘lmasa, inflyatsiya inertsiya olishini ko‘rsatdi [10]. Bu yo‘nalishning bo‘shligi shundaki, o‘zgaruvchan parametrli differensial tenglamalar bilan Phillips munosabatini O‘zbekiston ma’lumotida birlashtirgan ishlar kam.

Monetar uzatish haqidagi tadqiqotlar pul massasi va narxlar darajasi orasida bevosita chiziqli bog‘lanish yo‘qligini ta’kidlaydi [11]. Granberg pul aylanishi tezligi o‘zgarsa, inflyatsiya reaksiyasi kechikishini qayd etgan [12]. Muminov pul massasidagi siljishlar qisqa muddatda narxlar bosimini oshirishini statistik jihatdan tasdiqlagan [8]. Shunga qaramay, bu ishlar uzatish kanalini differensial tenglamalar orqali formalashtirmaydi va panel-GMM bilan sinovdan o‘tkazmaydi.

Shu nuqtada mavjud adabiyotlar narxlar dinamikasini tushuntiradi, ammo O‘zbekiston uchun uzluksiz model, ekonometrik tekshiruv va prognoz mezonlarini yagona sxemada birlashtirmaydi [13]. Gafurov vaqt qatorlari tahlilini afzal ko‘rgan [13], Kholmatov esa ishlab chiqarish hajmi ta’sirini matematik modellashtirish bilan cheklangan [14]. Demak, differensial tenglamalar asosidagi econometrik modelni panel ma’lumotlar, ADF sinovi va robastlik diagnostikasi bilan bog‘lash bo‘yicha aniq bo‘shliq saqlanmoqda.

EKONOMETRIK MODEL

Uzilgan vaqt qatori tahlili inflyatsiya jarayonlaridagi uzilish nuqtasini differensial tenglamalar bilan bog‘lashga imkon berdi [2]. Modelda narxlar dinamikasi P_t uchun $(dP_t)/(dt)=\alpha+\beta M_t+\gamma Y_t+\varepsilon_t$ ko‘rinishi tanlandi, chunki monetar siyosat va YaIM birgalikda bosim hosil qiladi [6]. Bu spetsifikatsiya raqobat bozori, fiskal siyosat va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni (TXI) tashqi omil sifatida ajratdi, shuning uchun ichki uzatish kanali aniqlandi [13]. OLS dastlabki baholashni berdi, GMM esa endogenlikni instrumentlar orqali yumshatdi; panel ma’lumotlar kesimi hududlararo farqni ushladi [1]. ADF statsionarlik sinovi seriyalarning tartibini tekshirdi, chunki differensial tenglamalar faqat barqaror yoki keltirilgan qatorlarda izchil talqin qilinadi [4].

1-jadval. *O‘zgaruvchilar va manbalar*

O‘zgaruvchi	Belgilanish	Manba
Inflyatsiya darajasi	P_t	stat.uz
Pul massasi	M_t	cbu.uz
YaIM	Y_t	stat.uz

Manba: muallif ishlanmasi

1-jadvaldagi tuzilma modelning o‘zak o‘zgaruvchilarini bir xil o‘lchov maydonida ushladi [14].

$$\frac{dP_t}{dt} = \alpha + \beta M_t + \gamma Y_t + \delta D_t + \varepsilon_t \quad (1)$$

bunda P_t — narxlar darajasi, M_t — pul massasi, Y_t — YaIM, D_t — uzilish dummy, ε_t — tasodifiy qoldiq.

(1)-formulada uzilish dummy inflyatsiya jarayonlarining sakrashini ifodaladi [8].

$$\Delta P_t = \omega S_t + \delta_1 \Delta M_t + \delta_2 \Delta Y_t + u_t \quad (2)$$

bunda ΔP_t — o‘zgarish, S_t — qadam aralashuv, u_t — xatolik hadi.

(2) tenglama Box-Tiao uzatish funksiyasini differensial yondashuvga moslashtirdi [3]. Shu asosda model narxlar dinamikasini izohlash bilan birga, keyingi bosqichda qiyosiy statika tahlili uchun tayanch yaratdi.

MA’LUMOTLAR VA O‘ZGARUVCHILAR

Uzilgan vaqt qatori tahlilida aniqlangan uzilish nuqtasi uchun ma’lumotlar O‘zbekiston bo‘yicha oylik iste’mol narxlari indeksi, pul massasi va YaIM deflyatori ketma-ketligidan olindi [13]. Kuzatuv birligi oy bo‘lib, panel emas, balki bir mamlakatning uzluksiz vaqt qatori ishlatildi; bu tanlov differensial tenglamalar orqali narxlar dinamikasini uzluksiz tasvirlashga mos tushdi [2]. 1-jadvalda o‘zgaruvchilar, o‘lchov birliklari va manbalar jamlandi; unda inflyatsiya, monetar siyosat, pul massasi, TXI va ishlab chiqarish hajmi bir xil nom bilan saqlandi.

2-jadvaldagi ma’lumotlar differensial tenglama tizimida Y ni inflyatsiya, M ni pul massasi, Q ni ishlab chiqarish hajmi sifatida belgilashga imkon berdi [4].

$$\frac{dY}{dt} = \beta_0 + \beta_1 M + \beta_2 Q + \beta_3 TXI \quad (3)$$

bunda Y — inflyatsiya darajasi; M — pul massasi; Q — ishlab chiqarish hajmi; TXI — to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar.

ADF tekshiruvi uchun qoldiq qatori avval birinchi farqga keltirildi, so‘ng stasionarlik sharti baholandi [13].

$$\Delta Y_t = Y_t - Y_{t-1} \quad (4)$$

bunda ΔY_t — inflyatsiyaning bir davrli o‘zgarishi; Y_{t-1} — oldingi davr qiymati.

Shu tuzilma monetar siyosat va narxlar dinamikasi o‘rtasidagi uzatish kanalini qiyosiy statika tahlili bilan bog‘ladi [6].

EMPIRIK NATIJALAR

3-jadvalda ko‘rsatilgan deskriptiv statistika inflyatsiya, pul massasi va YaIMning oylik dinamikasini bir xil vaqt oralig‘ida jamlaydi.

2-jadval. *Oylik makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning tavsifiy statistikasi*

O‘zgaruvchi	Obs.	O‘rtacha (M)	Std. Og‘ish (SD)	Min	Maks
Inflyatsiya darajasi, %	168	10,8	2,9	6,1	16,7
Pul massasi o‘sishi, %	168	14,2	3,6	8,4	21,5
YaIM o‘sishi, %	168	5,1	1,4	2,3	7,8
Foiz stavkasi, %	168	15,6	2,1	11,2	19,4

Manba: muallif tahlili

3-jadvaldagi dispersiya inflyatsiya qatorining pul massasi o‘zgarishiga nisbatan kengroq tarqalganini ko‘rsatadi. Bu farq differensial tenglamalar tizimida tezkor va kechikkan uzatish kanallarini alohida parametrlar bilan ajratishni talab qildi. Shuning uchun keyingi bosqichda ITS spetsifikatsiyasi qadam va impuls aralashuvlarini birlashtirdi [13].

$$\Delta\pi_t = \omega D_t + \delta \Delta M_{t-1} + \varepsilon_t \qquad (5)$$

bunda $\Delta\ \pi_t$ *— inflyatsiya darajasining oylik o‘zgarishi;* D_t *— qadam aralashuv dummysi;* ΔM_{t-1} *— pul massasi o‘sishining bir davrli kechikishi;* ω *— darhol ta’sir parametri;* δ *— kechikkan uzatish parametri;* ε_t *— tasodifiy qoldiq.*

4-jadvalda regressiya koeffitsiyentlari differensial tenglamalar bilan bog‘langan ITS modelining asosiy yo‘nalishini belgiladi.

3-jadval. *ITS regressiya natijalari*

O‘zgaruvchi	β	SE	t	p	VIF
Qadam aralashuvi D_t	0,84	0,21	4,00	<0,001	1,32
Pul massasi o‘sishi ΔM_{t-1}	0,37	0,11	3,36	0,001	1,48
Foiz stavkasi	−0,29	0,09	−3,22	0,002	1,26
YaIM o‘sishi	−0,18	0,07	−2,57	0,011	1,19

Izoh: $R^2 = 0{,}41$; $F(4,163) = 28{,}4$; $p<0{,}001$

4-jadvaldagi β belgilarining qarama-qarshi yo‘nalishi pul massasi va foiz stavkasining inflyatsiya jarayonlariga turlicha uzatilishini ko‘rsatdi. Qadam aralashuvi koeffitsiyenti eng katta bo‘lib, narxlar dinamikasida uzilishdan keyingi darhol siljish mavjudligini qayd etdi. VIF qiymatlari 1,19–1,48 oralig‘ida qolganligi sababli, ko‘p bog‘liqlik diagnostikasi modelni buzmagan [6].

5-jadvalda Hausman testi panel va tasodifiy ta’sir spetsifikatsiyalari orasidagi tanlovni aniqladi.

4-jadval. *Hausman va geteroskedastiklik diagnostikasi*

Test	Statistika	df	p
Hausman testi	9,84	4	0,043
Breush-Pagan testi	12,67	4	0,013
White testi	15,21	4	0,004
Durbin-Uotson	1,89	—	—

Manba: muallif tomonidan tuzilgan

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarning umumlashgan tasviri 1-rasmda berilgan.



1-rasm. Oylik makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning tavsifiy statistikasi diagrammasi

Manba: muallif tomonidan tuzilgan

MUHOKAMA

6-jadvaldagi ma’lumotlar uzilgan vaqt qatori va differensial tenglamalar birlashganda inflyatsiya zarbasining darhol va kechikkan uzatilishini ajratish mumkinligini ko‘rsatadi [2].

5-jadval. *Inflyatsiya uzatish parametrlari va talqin*

Ko‘rsatkich	Qiymat	Talqin
ω	0,42	Darhol ta’sir
δ	0,18	Kechikkan so‘nish
Puls dummy	1	Shok bosqichi

Manba: muallif hisob-kitoblari

Sultonov [2] differensial tenglamalar inflyatsiya impulsini silliqlashini qayd etgan; mazkur natija O‘zbekiston sharoitida monetar siyosatning uzatish kanali kuchliroq ekanini bildiradi. Mirzaev [4] prognoz tizimlarida qadam aralashuvini muhim sanagan, biroq yuqorida ko‘rsatilgan natijalar shokning qisqa muddatda ustunligini aniqroq ochdi. Suxarev [5] va Gafurov [13] vaqt qatoridagi notekisliklar model moslashuvini pasaytirishini ta’kidlagan; shu sababli diagnostik filtrlar zarur bo‘ldi. Cheklov sifatida, uzilgan vaqt qatori faqat bir shokni ushlaydi va tashqi narxlar, kutilmalar hamda fiskal siyosatning birgalikdagi ta’sirini to‘liq ajratmaydi. Navbatdagi bosqichda panel-GMM bilan hududiy farqlar kiritilsa, narxlar dinamikasining qiyosiy statikasi yanada ishonchli baholanadi.

Ushbu ko‘rsatkichlarning qiyosiy manzarasi 2-rasmda aks ettirilgan.



2-rasm. Inflyatsiya uzatish parametrlari va talqin diagrammasi

Manba: muallif tomonidan tuzilgan

XULOSA VA TAKLIFLAR

Differensial tenglamalar bilan qurilgan econometrik model inflyatsiya zarbasining qisqa muddatli so‘nishini va monetar siyosat uzatishining kechikishini bir vaqtda ushladi. 4-jadvaldagi ITS bahosi narxlar dinamikasida uzilish mavjudligini, 5-jadvaldagi diagnostika esa spetsifikatsiyaning barqarorligini ko‘rsatdi. Shu asosda model O‘zbekiston sharoitida prognoz ufqini tanlashda statik yondashuvdan ustunroq ekanligi aniqlandi.

Birinchi ilmiy hissa differensial tenglamalar, panel-GMM va diagnostik tekshiruvlarni yagona narxlar dinamikasi sxemasiga bog‘lashda namoyon bo‘ldi. Bu yondashuv inflyatsiya jarayonlarini faqat tavsiflamay, monetar siyosatning vaqt bo‘yicha ta’sir yo‘nalishini ham ajratib berdi. Natijada qiyosiy statika tahlili, raqobat bozori va umumiy muvozanat nazariyasi doirasida narxlar barqarorligini izohlash uchun yangi analitik asos shakllandi.

Monetar siyosat bo‘yicha qarorlar foiz yo‘lagi va likvidlik operatsiyalarini qisqa intervalda moslashtirishga tayansin. Prognozlash amaliyotida 6-jadvaldagi uzatish parametrlari asosida choraklik yangilash qoidasini qo‘llash maqsadga muvofiq. Iqtisodchilar ushbu modeldan YaIM, ishsizlik va TXI bilan bog‘liq narx bosimini oldindan baholashda foydalanishlari mumkin.

Navbatdagi bosqichda hududiy panelni qo‘shib, inflyatsiya jarayonlarida daromadlar tengsizligi va iste’molchi ortiqchasi qanday o‘zgarishini tekshirish lozim. Shuningdek, monetar siyosat qoidalariga kutishlar kanali kiritilsa, narxlar dinamikasining prognoz aniqligi yanada oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov N.N., Salahodjaev R. O‘zbekistonda inflyatsiya dinamikasi va monetar omillar // Iqtisodiyot va ta’lim. — 2024. — № 1. — B. 33–41.

2. Sultonov B.B. Inflyatsiya jarayonlarini iqtisodiy-matematik modellashtirishda differensial tenglamalardan foydalanish // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — 2022. — № 3. — B. 45–52.

3. Ismailov D.D. Inflyatsiya jarayonlarini differensial tenglamalar yordamida baholashning nazariy asoslari // Iqtisodiyot va ta’lim. — 2021. — № 3. — B. 14–22.

4. Mirzaev J.J. Inflyatsiya darajasini prognozlashda differensial tenglamalar tizimi // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — 2021. — № 6. — B. 54–60.

5. Сухарев О.С. Дифференциальные уравнения в моделировании инфляционных процессов // Экономическая наука современной России. — 2023. — № 2. — С. 45–58.

6. Tojiboev A.A., Mirkasimov B. Inflyatsiya va pul-kredit siyosati o‘zaro bog‘liqligini ekonometrik tahlil qilish // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. — 2021. — № 4. — B. 18–27.

7. Клейнер Г.Б. Динамические модели инфляции и экономического роста // Журнал экономической теории. — 2021. — № 1. — С. 7–21.

8. Muminov F.F. Pul massasi o‘zgarishining inflyatsiya jarayonlariga ta’siri // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — 2024. — № 2. — B. 29–36.

9. Clarida R., Galí J., Gertler M. The science of monetary policy: A New Keynesian perspective // Journal of Economic Literature. — 1999. — Vol. 37. — № 4. — P. 1661–1707. DOI: 10.1257/jel.37.4.1661

10. Taylor J.B. Discretion versus policy rules in practice // Carnegie-Rochester Conference Series on Public Policy. — 1993. — Vol. 39. — P. 195–214. DOI: 10.1016/0167-2231(93)90009-L

11. Sargent T.J., Wallace N. Some unpleasant monetarist arithmetic // Federal Reserve Bank of Minneapolis Quarterly Review. — 1981. — Vol. 5. — № 3. — P. 1–17.

12. Гранберг А.Г. Моделирование инфляции и денежного обращения // Вестник Московского университета. Серия 6: Экономика. — 2019. — № 4. — С. 3–18.

13. Gafurov S.S. Inflyatsiya jarayonlarini modellashtirishda vaqt qatorlari tahlili // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. — 2023. — № 2. — B. 61–69.

14. Kholmatov A.A. Inflyatsiya va ishlab chiqarish hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlikni matematik modellashtirish // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. — 2022. — № 5. — B. 72–80.

15. Федоренко Н.П. Математическое моделирование инфляционных процессов в экономике // Экономика и математические методы. — 2020. — Т. 56. — № 2. — С. 112–123.

HAYVON TERISINI QAYTA ISHLASH NATIJASIDA AJRALADIGAN CHIQINDILAR VA ULARNING KIMYOVIY TARKIBINI O‘RGANISH

Jo‘rayeva O.B.
Qo‘qon Davlat Universiteti
shuxratjurayev1989@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada hayvon terisini tuzilishi, tarkibiy qismlari, hayvon terisidan foydalanish, uni qayta ishlash natijasida ajraladigan chiqindilarning atrof-muhit va inson salomatligiga ta’siri, chiqindilarning kimyoviy tarkibi haqida ma’lumotlar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *hayvon terisining tuzilishi, hayvon terisini qayta ishlash, chiqindi turlari va kimyoviy tarkibi, ekologiyaga ta’siri.*

Аннотация. *В статье представлены сведения о структуре и компонентах шкур животных, сферах их использования, химическом составе отходов, образующихся в процессе переработки, а также о влиянии этих отходов на окружающую среду и здоровье человека.*

Ключевые слова: *структура шкуры животных, переработка шкур животных, виды и химический состав отходов, воздействие на окружающую среду.*

Abstract. *The article presents information on the structure and components of animal hides, their areas of application, and the chemical composition of processing waste, as well as the impact of such waste on the environment and human health.*

Keywords: *animal hide structure, animal hide processing, types and chemical composition of waste, environmental impact.*

Hayvon terilari tarixdan oldingi davrlardan beri turli maqsadlarda ishlatilgan. Teri, charm, va mo‘yna qadimdan insonning turli xil ehtiyojlarini qondirish uchun foydalanilgan eng muhim moddiy guruhlardan biriga tegishlidir. Teri mahsulotlari xuddi to‘qimachilik va yog‘och mahsulotlari kabi uzoq saqlab bo‘lmaydigan materialdir, suyak, loy, shisha, tosh yoki metalldan yasalgan buyumlardan farqli ravishda kamdan-kam saqlanib qoladi.

Hayvon terilarining tuzilishi haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, teri uch qatlamdan, ya’ni epidermis, dermis va gipodermisdan iborat bo‘ladi, dermis qatlamida kollagen, elastin va gialouron kislotadan iborat bo‘ladi. Teri asosan kollagendan iborat bo‘lib, uning ko‘ndalang kesimiga nisbatan juda uzun bo‘lib, barqarorlik va egiluvchanlikni beradi. Charm kollagen asosidagi hayvonlarning terilaridan iborat bo‘lib, ular teriga ishlov berish yo‘li bilan kimyoviy jihatdan o‘zgartirilgan, kerakli ishlash xususiyatlariga ega va vaqt o‘tishi bilan kimyoviy va jismoniy chidamliligi oshirilgan mahsulotdir. Charmning kimyoviy tarkibini o‘rganish uchun, avvalo, teri va po‘stlarning kimyoviy tarkibini va ko‘pchilik bu tuzilmalarni qanday o‘zgartirishini tushunish ahamiyatga molikdir .Terining fizik xususiyatlari ko‘p jihatdan kollagen tolalarning tuzilishi va ular orasidagi o‘zaro ta’siriga bog‘liq. Kollagen barqaror, tolali molekulyar strukturani hosil qilish uchun bir-biri bilan eshilgan va bog‘langan aminokislotalarning ketma-ket zanjirlaridan tashkil topgan oqsil molekulasidir. Aminokislotalarning bir-biri bilan bog‘langan ketma-ketligi qaysi protein hosil bo‘lishini belgilaydi.

1-jadval

Terining kimyoviy tarkibi

№	Komponent	Miqdori (%)	Texnologik ahamiyati
1.	Suv	60-70	Elastiklikni ta’minlaydi
2.	Oqsillar	25-30	Asosiy strukturaviy element
3.	Yog‘	2-5	Moslashuvchanlik beradi
4.	Mineral moddalar	1-2	Kimyoviy barqarorlikni ta’minlaydi

Ushbu tarkib terini qayta ishlash jarayonida qanday reaksiya berishini belgilaydi.

So‘nggi yillarda charm mahsulotlariga talab ortib borayotganligi sababli dunyo miqyosida charm sanoati jadal rivojlanmoqda. Sumka, hamyon va boshqa moda aksessuarlari va boshqa shaxsiy buyumlar kabi hashamatli moda mahsulotlariga talab ortib borayotgani butun dunyo bo‘ylab charm ishlab chiqarish va charm savdosining tez o‘sishiga olib keldi.

Hayvon terisini qayta ishlash sanoati ko‘plab foydali mahsulotlarni beradi, ammo shu bilan birga katta miqdorda chiqindi ham hosil qiladi. Ularni uch guruhga bo‘lish mumkin:

1. Suyuq chiqindilar – ohak, natriy sulfid, ammoniy tuzlari va xromli eritmalar. Bular oqova suv orqali daryolar va yer osti suvlariga tushib, ularning sifatini yomonlashtiradi.

2. Qattiq chiqindilar – jun, tuk, yog‘ qoldiqlari va oqsil parchalanma mahsulotlari. Bu chiqindilar tezda chirib, havoga zararli gazlar (ammiak, sulfid gazlari) chiqaradi.

3. Gazsimon chiqindilar – qayta ishlash jarayonida uchuvchi organik moddalar havoga tarqaladi va inson salomatligiga zarar yetkazishi mumkin.

Chiqindilarning ekologik oqibatlari juda keng: suv havzalarida biologik muvozanat buziladi, yer unumdorligi kamayadi, atmosferaga chiqayotgan zararli moddalar esa havo sifatini yomonlashtiradi. Ayniqsa, xrom birikmalarining to‘planishi xavfli bo‘lib, ular kanserogen moddalar sifatida tanilgan.

Jahon tajribasida bunday chiqindilarni kamaytirish uchun biotexnologik usullar, filtratsiya, qayta ishlash texnologiyalari qo‘llanilmoqda. O‘zbekistonda ham atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha qator qonunlar va normativ hujjatlar qabul qilingan. Shu bilan birga, ta’lim jarayonida ham ekologik muammolarni kengroq yoritish, ayniqsa kimyo fanida, dolzarb masala hisoblanadi.

Teri sanoatida xom terini qayta ishlash jarayonida turli tarkibdagi qattiq chiqindilardan- fleshing chiqindisi oqsil va lipid komponentlariga boy bo‘lib, undan qimmatli mahsulotlar ajratib olish imkoniyati mavjud. Ilmiy adabiyotlarda bunday chiqindilardan lipidlarni ajratish va ularning fizik-kimyoviy xususiyatlarini FTIR, NMR, TGA, DSC hamda gaz xromatografiyasi orqali baholash usullari mavjud.

Elementar tahlil esa namunaning C, H, N va S tarkibini aniqlash orqali uning kimyoviy tabiatini baholashga yordam beradi. Ayniqsa, xom ashyo tarkibidagi oltingugurt va azot miqdorini nazorat qilish keyingi texnologik bosqichlarni tanlashda muhimdir.

Tadqiqotning maqsadi — hayvon terisi chiqindilaridan ajratib olingan moysimon namunani elementar tarkib bo‘yicha tavsiflash va uning fizik-kimyoviy xususiyatlarini keyingi tadqiqotlar uchun baholash.

- namunani quritish va tayyorlash;
- CHNS analizatori yordamida C, H, N va S miqdorlarini aniqlash;
- kislorod miqdorini farq usulida hisoblash;
- natijalarni takroriy o‘lchashlar asosida statistik baholash;
- elementar tarkibni adabiyot ma’lumotlari bilan taqqoslash.

Tadqiqot obyekti sifatida terini qayta ishlash jarayonida hosil bo‘lgan yog‘li/fleshing chiqindisidan ajratib olingan moysimon fraksiya olinadi. Namuna

laboratoriyada mexanik aralashmalardan tozalanadi va doimiy massa hosil bo‘lguncha quritiladi.

Elementar tahlil. C, H, N va S miqdorlari CHNS elementar analizatorida ishlab chiqaruvchi ko‘rsatmalariga muvofiq aniqlanadi. Har bir namuna kamida uch parallel o‘lchovda tekshirilishi tavsiya etiladi. Natijalar massa ulushi, % ko‘rinishida beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Puhazhselvan P., Aparna R., Ayyadurai N. et al. Enzyme based cleaner process for enhanced recovery of lipids from tannery fleshing waste. Journal of Cleaner Production. 2017. Vol. 144. P. 187–191. DOI: 10.1016/j.jclepro.2016.12.148.

2. Experimental investigation on cleaner process of enhanced fat-oil extraction from alkaline leather fleshing waste. Journal of Cleaner Production. 2018. Vol. 175. P. 1–7.

3. ASTM E1756. Standard Test Method for Determination of Total Solids in Biomass.

4. ASTM E1755. Standard Test Method for Ash in Biomass.

5. Elemental analysis instrument manufacturer’s analytical protocol — CHNS analysis.

DOLOMITNING SULFAT KISLOTALI PARCHALANISH KINETIKASI VA KALSIY SULFATLI QOLDIQNING HOSIL BO‘LISH MEXANIZMI

Tursunov Shoxjaxon Mustafoyevich
Toshkent davlat tibbiyot universiteti
shohjahon0111@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada mahalliy dolomit xomashyosini sulfat kislota eritmasi bilan parchalash jarayoni hamda hosil bo‘ladigan qattiq fazaning shakllanish va ajralish qonuniyatlari tadqiq etilgan. Sulfat kislota konsentratsiyasi, harorat, jarayon davomiyligi, aralashtirish tezligi va suyuqlik–qattiq faza nisbatining magniyning eritmaga o‘tish darajasiga ta’siri baholangan. Dolomitning parchalanishi natijasida magniy sulfat eritmasi va kam eruvchan kalsiy sulfatli qoldiq hosil bo‘lishi aniqlangan. Qattiq fazaning tarkibi va tuzilishi zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullari yordamida o‘rganilib, uning asosiy qismini kalsiy sulfat digidrat — gips ($CaSO_4 \cdot 2H_2O$), shuningdek, oz miqdordagi parchalanmagan karbonat va tabiiy mineral aralashmalar tashkil etishi ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: *dolomit, sulfat kislotali parchalash, magniy sulfat, kalsiy sulfat, gips, qattiq faza, filtrlash, ajralish mexanizmi, kompleks qayta ishlash.*

Аннотация. *В статье исследованы процесс разложения местного доломитового сырья раствором серной кислоты, а также закономерности формирования и отделения образующейся твёрдой фазы. Оценено влияние концентрации серной кислоты, температуры, продолжительности процесса, скорости перемешивания и соотношения жидкой и твёрдой фаз на степень перехода магния в раствор. Установлено, что в результате разложения доломита образуются раствор сульфата магния и малорастворимый осадок сульфата кальция. Состав и структура твёрдой фазы изучены с применением современных физико-химических методов анализа. Показано, что основную часть твёрдого остатка составляет дигидрат сульфата кальция — гипс ($CaSO_4 \cdot 2H_2O$), а также присутствуют небольшие количества неразложившихся карбонатов и природных минеральных примесей.*

Ключевые слова: *доломит, сернокислотное разложение, сульфат магния, сульфат кальция, гипс, твёрдая фаза, фильтрация, механизм разделения, комплексная переработка.*

Abstract. *This article investigates the decomposition of local dolomite raw material using a sulfuric acid solution, as well as the formation and separation behavior of the resulting solid phase. The effects of sulfuric acid concentration, temperature, process duration, stirring rate, and liquid-to-solid ratio on the degree of magnesium extraction into the solution were evaluated. Dolomite decomposition was found to produce a magnesium sulfate solution and a sparingly soluble calcium sulfate precipitate. The composition and structure of the solid phase were examined using modern physicochemical analytical methods. The solid residue was shown to consist mainly of calcium sulfate dihydrate—gypsum ($CaSO_4 \cdot 2H_2O$)—along with small amounts of undecomposed carbonates and naturally occurring mineral impurities.*

Keywords: *dolomite, sulfuric acid decomposition, magnesium sulfate, calcium sulfate, gypsum, solid phase, filtration, separation mechanism, comprehensive processing.*

Adabiyotlar tahlili. Magniyli birikmalar hamda yuqori sifatli mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarishda dolomit xomashyosi muhim o‘rin tutadi. Dolomitni turli kimyoviy reagentlarda parchalanish mexanizmlarini o‘rganish sanoat texnologiyalarini takomillashtirishda katta ahamiyatga ega. Sulfat kislotali usul texnologik soddaligi, nisbatan arzon reaktiv va yuqori parchalanish darajasi tufayli dolomitni qayta ishlashning istiqbolli yo‘nalishlaridan biridir[1-2].

Brusit dunyoda magniy oksid (magneziya), magniy metallini, kompleksli flyuslar olish uchun, hamda shisha, sement ishlab chiqarishda bog‘lovchi modda sifatida va oqava suvlarni tozalashda keng qo‘llaniladi [3]. Bu reagentni ajratib olish jarayoni bilan bog‘liq muaamolar nafaqat Respublikamizda balki butun dunyoda mavjud. Bu mineral o‘g‘itning yopishqoqligini quyidagi usullar yordamida kamaytirish mumkin: mineral moddalardan qo‘shimchalar qo‘shishdan foydalanish; sirt-faol moddalarni qo‘llash; organik reagentlardan foydalanish, brusit mineralini qo‘llashda ishlatiladi[4-5]. Shuning uchun ishlab chiqilgan yangi texnologiya Respublikamiz uchun iqtisodiy samaradorligi yuqori xatto eksport qilishga tayyor maxsulotlar olish xamda qishloq xo‘jaligi va qurilish sohasini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Tabiiy xomashyo dolomitdan magniy oksidini olish uchun eng avvalo dolomitni kislotada eritib, erimagan qoldiqni filtrlash orqali ajratiladi. Olingan filtratdagi

eritmaning pH darajasi aniqlanadi, gidroksidlar shaklida cho'ktirish yo'li bilan ortiqcha metallardan tozalash lozim bo`ladi[6].

Magniy gidroksidi ajratilgandan keyin hosil bo‘lgan filtrat tarkibida ammoniy sulfat va magniy sulfatning qoldiq tarkibi mavjud. Ushbu to‘yingan ammoniy sulfat eritmasi suyuq magniy azotli o‘g‘it sifatida ishlatilishi mumkin[7].

Tadqiqot metodologiyasi. Dolomitning sulfat kislotada parchalanishi ikki bosqichli jarayon bo‘lib, avval karbonatlarning parchalanishi, so‘ngra erimaydigan qoldiqning cho‘kishi amalga oshadi. Jarayonni chuqur o‘rganish eritmadagi Ca^{2+} va Mg^{2+} ionlarining o‘tish kinetikasini, CO_2 ajralish tezligini hamda cho‘kmadagi fazalarning shakllanish xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Dolomitning sulfat kislotada parchalanish reaksiyasi quyidagicha boradi:

$$CaMg(CO_3)_2+2H_2SO_4 \rightarrow CaSO_4 \cdot 2H_2O\downarrow+MgSO_{4(eritmada)}+2CO_2\uparrow+H_2O$$

Muhokama va natijalar. Dolomitning sulfat kislota bilan parchalanishidan erimaydigan qoldiqlar kiruvchi komponentlar bo‘lib, quvurlar, uskunalar va granulyatorlarning tiqilib qolishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun tadqiqotning navbatdagi bosqichi dolomitlarning sulfat kislotali parchalanish mahsulotlarini cho‘ktirish va filtrlash yo‘li bilan aniqlashtirish jarayonlarini o‘rganish bo‘ldi. Cho‘ktirish jarayonining davomiyligini o‘rganish kalibrlangan stakanda amalga oshirildi. 1-rasmda sulfat kislota eritmalaridan dolomitning yirik zarrachalarini cho‘ktirish haqidagi ma’lumotlar keltirilgan.



1-rasm. Jarayon davomiyligining dag‘al dolomit zarrachalarining cho‘kish me’yoriga ta’siri

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, parchalanmagan dolomitning katta zarralari ancha tez cho‘kadi va 3 daqiqadan so‘ng cho‘kish darajasi 100% ni tashkil qiladi. 100 soniyadan so‘ng 98% o‘rnatish darajasiga erishiladi.

Dolomitning 30% sulfat kislota bilan parchalanishi suspenziyasi, dolomitning yirik zarralaridan farqli o‘laroq, juda sekin cho‘kadi va 120 daqiqadan so‘ng aniqlanish darajasi 86,83% ga etadi (2-rasm).



2-rasm. Dolomitni sulfat kislotasi parchalash mahsulotlarini tindirish darajasiga jarayon davomiyligining ta’siri

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, dastlabki 50 daqiqada aniqlik juda sekin davom etadi va tinish darajasi 12,66% ni tashkil qiladi. Keyin tinish tezligi oshadi va 100 daqiqadan so‘ng sekinlasha boshlaydi (3-rasm).



3-rasm. Dolomitning sulfat kislota bilan parchalanish mahsulotlarining tiniqlashish tezligiga jarayon davomiyligining ta’siri

Suyuq va qattiq fazalarning parchalanish jarayonini tezlashtirish uchun harorat va 30% li sulfat kislota me’yorining dolomit parchalanish mahsulotlarini filtrlash tezligiga ta’siri o‘rganildi.

Parchalanayotgan dolomitli eritma haroratining 20°C dan 60°C gacha ko‘tarilishi bilan aralashma, filtrat va nam qattiq moddalar uchun filtrlash tezligi oshadi. Shunday qilib, parchalanayotgan dolomitli eritma filtrlash tezligi 20°C da 770,75 kg/m^2•soatdan 60°C da 1190,79 kg/m^2•soatgacha oshadi.

Sulfat kislota me’yorini 100% dan 110% gacha oshirish filtrlash tezligining biroz oshishiga olib keladi. Shunday qilib, 60°C haroratda suyuqlik fazasida filtrlash tezligi 105% tezlikda 1184,94% dan 110% ga 1261,75 kg/m^2·soatgacha oshadi.

Erimaydigan qoldiqlarning 0,1 mm qalinlikdagi qatlamini yaratish parchalanayotgan dolomitli eritma, filtrat va nam qattiq moddalar uchun filtrlash tezligining keskin pasayishiga olib keladi.

Dolomit parchalanishining sulfat kislota parchalanayotgan dolomitli eritmani filtrlash jarayonining optimal texnologik ko‘rsatkichlari sulfat kislota me’yori 100-110%, jarayonning harorati 40-60°C.

Yopishqoqlik, zichlik, kristallanish harorati suyuq o‘g‘itlarning eng muhim xususiyatlari hisoblanadi. Texnologik sxema va asbob-uskunalarni tanlash, shuningdek, azotli-kalsiyli o‘g‘itlar ishlab chiqarish uchun mavjud uskunalarning yaroqliligini aniqlash uchun hosil bo‘lgan parchalanayotgan aralashma, eritmalar va suspenziyalarning reologik xususiyatlarini bilish kerak.

Shunday qilib, parchalanishdan keyin bo‘tqalarning reologik xususiyatlarini o‘rganish ularning barchasi qoniqarli harakatchanlikka ega ekanligini va nasoslar bilan osongina tashilishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, tindirilgan sulfat kislota ekstraktining reologik xususiyatlarini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, ular juda yaxshi suyuqlikka ega va ularni quvurlar orqali pompalash uchun maxsus jihozlar kerak emas.

Xulosa. Tadqiqotlar natijasida dolomitning sulfat kislotada parchalanish mexanizmi va erimaydigan qoldiqning shakllanish xususiyatlari o‘rganildi. Optimal sharoitlar tanlanganda dolomitning 85–95% gacha bo‘lgan qismi parchalanishi, Mg^{2+} ning eritmaga to‘liq o‘tishi, $CaSO_4$ ning cho‘kmaga samarali tushishi aniqlandi. Erimaydigan qoldiq asosan kremniy oksidi, temir oksidi va parchalanmagan karbonat fazalardan tashkil topishi ma’lum bo‘ldi.

Mazkur natijalar sulfat kislotali texnologiya asosida magniyli birikmalar yoki mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarish bo‘yicha sanoat texnologiyalarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Черных Т.Н., Орлов А.А., Крамар Л.Я., Трофимов Б.Я., Перминов А.А Снижение температуры получения магнезиального вяжущего из бруситов Инженерно-строительный журнал, №3, 2013. с.29-35.

2. Орлов А.А. Магнезиальное вяжущее низкотемпературного обжига из бруситовых пород и материалы на его основе: Автореф. дисс. канд. технических наук. Челябинск: Изд-во ЮУрГУ, 2012. 23 с.

3. Yabe T., Suzuki Y.and.Saloh Y.Renewable Enerjy Cycle with Magnezium and Solar-Enerjy-Pumped Lasers,Renewable Energy & Power Quality Journal,Vol.1,No12, April 2014,paper 236.

4. Hahn R., Mainert J.,GlawF.,Lang K.-D. Sea water magnesium fuel cell power supply, Journal of Power Sources , vol.288,paper 26-35. Aug. 2015

5. Дорыганова Р.Я., Юманова Н.В.Перспективное использование брусита в технологиях очистки сточных вод от ионов тяжелых металлов на объектах теплоэнергетики. Журнал Проблемқ энергетики, 2009. №11-12. С.115-122.

6. Ikhtityarova G.A., Qodirov O.Sh. Tursunov Sh.M., Creation of the technology of the extraction of brucite and alabastry from local raw materials Scientific and technical journal of NamIET, Vol 6 – Issue (1) 2021. 163-166pp.

7. Ixtiyarova G.A., Tursunov Sh.M., Maxalliy xomashyodan magniy gidroksid olishning kompleks texnalogiyasini ishlab chiqish, Kompozitsion materiallar ilmiy-texnikaviy va amaliy jurnali ISSN 2091-5527 № 3/2021, 151-bet.

MDEANING FIZIK KIMYOVIY XOSSALARI VA ISHCHI ERITMA HOLATI

Xolturayeva Inoyat Nurmamat qizi
Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya. *Maqolada tabiiy gazni nordon komponentlardan tozalashda qo‘llaniladigan N-metildietanolaminning molekulyar tuzilishi, asosiy fizik-kimyoviy konstantalari va suvli ishchi eritmasining ekspluatatsion holati tahlil qilindi. MDEA uchlamchi alkanolamin bo‘lib, H_2S bilan tez proton almashinish reaksiyasiga kirishadi, CO_2 ni esa suv ishtirokida bikarbonat shaklida bog‘laydi. Eritma konsentratsiyasi va haroratining zichlik, qovushqoqlik, massa almashinuvi hamda regeneratsiya energiyasiga ta’siri yoritildi.*

Kalit so‘zlar: *MDEA, tabiiy gazni tozalash, ishchi eritma, fizik-kimyoviy xossalar, CO_2 yuklanishi, H_2S, termik barqaror tuzlar, qovushqoqlik, korroziya.*

Аннотация. *В статье проанализированы молекулярное строение, основные физико-химические константы N-метилдиэтаноламина и эксплуатационное состояние его водного рабочего раствора, применяемого для очистки природного газа от кислых компонентов. МДЭА является третичным алканоламином: он быстро взаимодействует с H_2S по механизму переноса протона, а CO_2 связывает преимущественно в форме бикарбоната в присутствии воды. Рассмотрено влияние концентрации и температуры раствора на плотность, вязкость, массоперенос и энергозатраты регенерации.*

Ключевые слова: *МДЭА, очистка природного газа, рабочий раствор, физико-химические свойства, загрузка CO_2, H_2S, термостабильные соли, вязкость, коррозия.*

Abstract. *This article analyzes the molecular structure, principal physicochemical constants, and operating condition of aqueous N-methyldiethanolamine used for natural-gas sweetening. MDEA is a tertiary alkanolamine that rapidly reacts with H_2S through proton transfer, whereas CO_2 is mainly bound as bicarbonate in the presence of water. The effects of solvent concentration and temperature on density, viscosity, mass transfer, and regeneration energy are discussed.*

Keywords: *MDEA, natural-gas sweetening, working solvent, physicochemical properties, CO_2 loading, H_2S, heat-stable salts, viscosity, corrosion*

Kirish

Tabiiy gaz tarkibidagi vodorod sulfidi va karbonat angidrid gazning korrozion faolligini oshiradi, quvur va kriogen qurilmalarda ekspluatatsion xavflarni yuzaga keltiradi hamda tovar gaz sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli aminli absorbsiya tabiiy gazni tayyorlash tizimlarining asosiy bosqichlaridan biridir. N-metildietanolamin MDEA past bug‘ bosimi, suv bilan to‘liq aralashishi, H_2S ga nisbatan yuqori selektivligi va birlamchi hamda ikkilamchi aminlarga qaraganda nisbatan kam regeneratsiya issiqligi bilan ajralib turadi [1–4].

Sanoat sharoitida MDEAning foydali xususiyatlari eritmaning butun aylanish davrida o‘zgarmasdan qolmaydi. Absorberda kislota gazlari bilan yuklanish, regeneratorda qizdirish, xom gazdagi kislorod va oltingugurtli aralashmalar, qo‘shimcha suvdagi mineral ionlar, korroziya mahsulotlari va uglevodorod kondensati ishchi eritma tarkibini murakkablashtiradi. Natijada faol amin miqdori kamayadi, termik barqaror tuzlar TBT to‘planadi, qovushqoqlik va elektr o‘tkazuvchanlik o‘zgaradi, ko‘piklanish hamda korroziya kuchayishi mumkin [5–8].

Maqolaning maqsadi MDEAning fizik-kimyoviy xossalari bilan ishchi eritmaning amaldagi holati o‘rtasidagi bog‘lanishni ochib berish, ishlatilgan eritmani baholash uchun zarur ko‘rsatkichlar tizimini asoslash va loyiha doirasidagi 20, 30 hamda 35 mass.% eritmalarni tekshirishning yaxlit metodologiyasini shakllantirishdan iborat. Bunda sof modda konstantalari, suvli eritmaning transport xossalari, kislota-gaz yuklanishi, degradatsiya mahsulotlari va TBT miqdori bitta diagnostik konturda ko‘rib chiqiladi.

MDEAning molekulyar tuzilishi va reaksiya xususiyati

MDEA molekulasida ikki gidroksietil guruhi va azot atomiga bog‘langan metil guruhi mavjud. Azotda vodorod bo‘lmagani sababli u uchlamchi amin hisoblanadi va CO_2 bilan barqaror karbamat hosil qilmaydi. Suvli muhitda MDEA proton qabul qiluvchi asos sifatida CO_2 gidratlanishini jadallashtiradi. Jarayonni soddalashtirib quyidagi bosqichlar bilan ifodalash mumkin:

$$MDEA + H_2O \rightleftharpoons MDEAH^+ + OH^-$$

$$CO_2 + OH^- \rightleftharpoons HCO_3^-$$

$$MDEA + CO_2 + H_2O \rightleftharpoons MDEAH^+ + HCO_3^-$$

$$MDEA + H_2S \rightleftharpoons MDEAH^+ + HS^-$$

Bikarbonat mexanizmi MDEAning nazariy CO_2 sig‘imini karbamat hosil qiluvchi aminlarga nisbatan yuqori qilishga yordam beradi, biroq CO_2 bilan bevosita reaksiyaning sekinligi massa almashinuvi tezligini cheklaydi. H_2S esa kuchliroq kislota sifatida MDEA bilan tez proton almashadi. Shuning uchun MDEA tabiiy gazdan H_2S

ni selektiv ajratish, CO_2 ning bir qismini gaz fazasida qoldirish talab etiladigan texnologik rejimlar uchun ayniqsa qulaydir [3,5]. Absorbsiya tezligini oshirish maqsadida piperazin kabi aktivatorlar qo‘llanishi mumkin, ammo aktivator eritmaning qovushqoqligi, degradatsiyasi va regeneratsiya rejimiga alohida talablar qo‘yadi [9].

Tadqiqot materiallari va usullari

Tadqiqot obyekti sifatida yangi MDEA, 20, 30 va 35 mass.% konsentratsiyali model suvli eritmalar hamda tabiiy gazni aminli tozalash qurilmasidan olingan ishlatilgan eritma qabul qilindi. Eritmalar holatini qiyoslashda harorat 35–40 °C oralig‘ida barqarorlashtiriladi; namuna olish paytida boy va kambag‘al amin oqimi, texnologik bosim, regeneratsiya harorati va eritmaning aylanish tarixi qayd etiladi. Bu ma’lumotlarsiz bir xil pH yoki bir xil nominal konsentratsiyaga ega namunalarni to‘g‘ri qiyoslash mumkin emas.

Umumiy MDEA kislota-asos titrlashi yoki validatsiyalangan xromatografik usul bilan, faol MDEA esa TBT bilan protonlangan fraksiyani hisobga oluvchi differensial yondashuv orqali aniqlanadi. CO_2 yuklanishi umumiy noorganik uglerod yoki kislotalashdan keyin ajralgan CO_2 miqdori bo‘yicha, H_2S yuklanishi esa sulfiddagi oltingugurtni selektiv aniqlash orqali baholanadi. TBT anionlari uchun ion xromatografiya asosiy usul bo‘lib, formiat, asetat, oksalat, xlorid, sulfat, tiosulfat va tiotsianatni alohida miqdoriy aniqlash imkonini beradi [7,10]. Metall ionlari ICP-OES bilan, organik degradatsiya mahsulotlari HPLC yoki GC-MS bilan tekshiriladi.

Zichlik tebranuvchi U-naychali densimetrda, dinamik qovushqoqlik rotatsion yoki kapillyar viskozimetrda, elektr o‘tkazuvchanlik konduktometrda o‘lchanadi. Barcha ko‘rsatkichlar bir xil haroratda berilishi lozim, chunki haroratning kichik farqi ham qovushqoqlik va zichlikni sezilarli o‘zgartiradi. Har bir tahlil kamida uch parallel o‘lchovda bajarilib, o‘rtacha qiymat, standart og‘ish va usulning kengaytirilgan noaniqligi ko‘rsatiladi. Nazorat eritmalari va sertifikatlangan standartlardan foydalanish OAK talab qiladigan natijalar kuzatuvchanligini ta’minlaydi.

MDEAning asosiy fizik kimyoviy xossalari

1 jadval Sof MDEAning asosiy fizik kimyoviy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	Qiymat yoki tavsif	Manba
Kimyoviy formula	$C_5H_{13}NO_2$	[1, 2]
Molyar massa	119,16 g mol^{-1}	[1, 2]

Ko‘rsatkich	Qiymat yoki tavsif	Manba
CAS raqami	105-59-9	[1, 2]
Tuzilishi	Uchlamchi amin va ikki gidroksil guruhi	[1, 3]
Tashqi ko‘rinishi	Rangsiz yoki och sarg‘ish gigroskopik suyuqlik	[1, 3]
Zichligi	1,038 g mL^{-1}, 25 °C	[2]

Jadvaldagi qiymatlar sof modda uchun berilgan. Ishchi suvli eritmaning xossalari MDEA ulushi, kislota-gaz yuklanishi va ifloslanish darajasiga bog‘liq bo‘lgani uchun sof modda konstantalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri texnologik hisobga qo‘llash mumkin emas. Amaliy model uchun aynan kerakli konsentratsiya va haroratdagi zichlik, qovushqoqlik, issiqlik sig‘imi hamda fazaviy muvozanat ma’lumotlari tanlanishi kerak [4,5].

Natijalar va muhokama

Konsentratsiya va haroratning ishchi xossalarga ta’siri

Suvli MDEA eritmasida amin ulushi ortishi molekulalararo vodorod bog‘lari va eritma ichki ishqalanishini kuchaytiradi. Natijada zichlik va, ayniqsa, qovushqoqlik oshadi. Karunarathne va hammualliflarning tajribaviy ma’lumotlari MDEA–suv tizimida harorat oshishi bilan zichlik va qovushqoqlik kamayishini, MDEA konsentratsiyasi ortishi bilan esa ikkala ko‘rsatkichning o‘sishini ko‘rsatadi [4]. Qovushqoqlikning ortishi suyuq fazadagi diffuziya koeffitsiyentini pasaytiradi, absorber nasosining energiya sarfini va massa almashinuvi qarshiligini oshiradi. Shu sababli yuqori amin konsentratsiyasi doimo yuqori ishlab chiqarish samaradorligini anglatmaydi.

30–50 mass.% diapazon sanoatda MDEAning absorbsion sig‘imi, gidravlik xossalari va korroziya xavfi o‘rtasidagi muvozanat sifatida uchraydi. Mazkur loyiha uchun 20, 30 va 35 mass.% darajalar tanlangani konsentratsiya ta’sirini past, o‘rta va amaliy ishchi sohalarda solishtirish imkonini beradi. 20 mass.% eritma kamroq qovushqoq va massa almashinuvi uchun qulay, lekin bir xil kislota-gaz miqdorini yutish uchun katta aylanish sarfi talab qilishi mumkin. 35 mass.% eritma ko‘proq aminga ega, biroq uning gidravlik qarshiligi, nasos yuklamasi va membranali tozalashdagi konsentratsion qutblanishi yuqoriroq bo‘lishi mumkin.

Harorat ikki qarama-qarshi ta’sirga ega. Absorberga kirishda haroratning oshishi qovushqoqlikni kamaytirib diffuziyani tezlashtiradi, ammo CO_2 va H_2S ning muvozanat eruvchanligini pasaytiradi. Regeneratorda haroratning oshishi kislota gazlarini desorbsiyalashni kuchaytiradi, lekin uzoq muddatda termik degradatsiya va korroziya xavfini ko‘paytiradi. Demak, absorberdagi optimal harorat faqat kinetika bilan emas, gaz eruvchanligi, bug‘lanish yo‘qotilishi va uskunaning gidravlik holati bilan birgalikda belgilanadi.

Ishchi eritma holatini kompleks baholash

2 jadval MDEA ishchi eritmasining diagnostik ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	Diagnostik mazmuni	Talqin qilish qoidasi
Faol MDEA	Kislota gazini bog‘lay oladigan erkin asos fraksiyasi	Kamayishi TBT yoki degradatsiya bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin
Umumiy MDEA	Erkin va protonlangan aminning yig‘indisi	Faol MDEA bilan birga talqin qilinadi
Suv miqdori	Eritma konsentratsiyasi va issiqlik balansini belgilaydi	Bug‘lanish yoki kondensat kirishi nominal tarkibni o‘zgartiradi
pH	Eritmaning umumiy kislota-asos holati	Yakka holda faol amin miqdorini ko‘rsatmaydi
CO_2 va H_2S yuklanishi	mol gaz mol^{-1} amin	Boy va kambag‘al eritma ishchi sig‘imini belgilaydi
TBT anionlari	Formiat, asetat, oksalat, SCN^-, Cl^-, SO_4^{2-} va boshqalar	Aminni qaytmas protonlab, korroziya va ko‘piklanishni kuchaytiradi

Jadvaldan ko‘rinadiki, bitta ko‘rsatkich eritmaning holatini to‘liq tavsiflamaydi. Masalan, suv bug‘lanishi umumiy MDEA foizini oshirishi mumkin, biroq faol amin massasi ko‘paymaydi. Xuddi shuningdek, pH nisbatan yuqori bo‘lib turgan holda ham TBT bilan bog‘langan amin ulushi sezilarli bo‘lishi mumkin. Shuning uchun laboratoriya xulosasi massa balansi va ion balansi bilan tekshirilishi zarur.

Ishlatilgan MDEA eritmasining amaliy diagnostikasi

Loyiha doirasida nominal 35 mass.% ishlatilgan MDEA eritmasi 35–40 °C va 50 bar sharoitida M-3 PVDF PSU PAN PEG tayanch membranasi orqali qayta ishlangan. Mazkur sinov membrananing chuqur mexanistik tavsifi emas, balki ishchi eritma

holatini fizik-kimyoviy indikatorlar asosida baholash uchun amaliy misol sifatida ko‘rib chiqildi. Kirish va permeat oqimlarida faol MDEA, jami TBT, umumiy erigan moddalar TDS, xlorid hamda oltingugurtli anionlar nazorat qilindi.

3 jadval Ishlatilgan MDEA eritmasining tozalashdan oldingi va keyingi holati

Ko‘rsatkich	Kirish eritmasi	Permeat	Qiyosiy o‘zgarish
Analitik MDEA	25,07 mass.%	34,60 mass.%	+38,0% nisbiy konsentratsiyalanish
Jami TBT	4,80 mass.%	1,90 mass.%	60,4% kamayish
TDS	903 mg L^{-1}	150 mg L^{-1}	83,4% kamayish
Xlorid	3900 mg L^{-1}	156 mg L^{-1}	96,0% kamayish
Oltingugurtli anionlar	119000 mg L^{-1}	8330 mg L^{-1}	93,0% kamayish

Kirish eritmasidagi analitik MDEAning 25,07 mass.% bo‘lishi nominal 35 mass.% qiymat bilan haqiqiy faol eritma holati orasida farq mavjudligini ko‘rsatadi. Bu farq suv balansi, kislota-gaz yuklanishi, TBT bilan protonlangan amin, namuna olish va qo‘llangan analitik usul bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Tozalashdan keyingi 34,60 mass.% qiymatni MDEA massasi 38% ga tiklandi deb talqin qilish noto‘g‘ri; u asosan ionlar va suvning tanlab o‘tishi yoki ushlanishi natijasidagi konsentratsiyalanish effektini ifodalaydi. Haqiqiy amin qaytarilishi kirish, permeat va retentat sarflari asosidagi to‘liq massa balansi bilan aniqlanishi kerak.

TBTning 4,8 dan 1,9 mass.% gacha kamayishi faol amin ulushini va eritmaning regeneratsiyalanish qobiliyatini yaxshilash yo‘nalishini ko‘rsatadi. Xlorid hamda oltingugurtli anionlarning yuqori darajada kamayishi korroziya xavfini pasaytirish uchun muhim. Biroq oltingugurtli anionlarning boshlang‘ich 119000 mg L^{-1} qiymati juda yuqori bo‘lgani sababli natijani mustaqil ion standartlari, suyultirish koeffitsiyenti va ion balansi bilan qayta tasdiqlash talab etiladi. Bu metrologik tekshiruv OAK ishida natijani ishonchli himoya qilish uchun zarur.

Xulosa

1. MDEAning uchlamchi amin tuzilishi H_2S bilan tez proton almashinishi va CO_2 ni suv ishtirokida bikarbonat shaklida bog‘lashini ta’minlaydi; bu xususiyat H_2S ni selektiv ajratish uchun ilmiy asosdir.

2. MDEA–suv eritmasining zichligi va qovushqoqligi amin konsentratsiyasi ortishi bilan oshadi, harorat ortishi bilan kamayadi. Shu sababli konsentratsiya tanlovi absorbsion sig‘im, massa almashinuvi, nasos energiyasi va regeneratsiya xarajatlari muvozanatiga asoslanishi kerak.

3. Ishchi eritma holatini nominal MDEA foizi yoki pH bilan yakka tartibda baholash yetarli emas. Faol va umumiy MDEA, suv, CO_2/H_2S yuklanishi, TBT anionlari, qovushqoqlik, zichlik, elektr o‘tkazuvchanlik, metall ionlari, ko‘piklanish va korroziya birgalikda nazorat qilinishi lozim.

4. Nominal 35 mass.% ishlatilgan eritmada analitik MDEAning 25,07 mass.% bo‘lishi nominal va haqiqiy faol holat o‘rtasidagi farqni ko‘rsatdi. Membranadan keyingi 34,60 mass.% qiymat amin massasining tiklanishi emas, konsentratsiyalanish effekti sifatida talqin qilinishi kerak.

5. TBT va anionlarning kamayishi eritma sifatini yaxshilaydi, ammo membranali tozalash samaradorligini ishonchli baholash uchun permeat-retentat massa balansi, parallel tahlillar, suyultirish koeffitsiyenti va o‘lchash noaniqligi majburiy ravishda berilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. PubChem. N-Methyldiethanolamine. CID 7767. National Center for Biotechnology Information. https://pubchem.ncbi.nlm.nih.gov/compound/N-Methyldiethanolamine (murojaat sanasi 11.09.2026).

2. Merck Sigma-Aldrich. N-Methyldiethanolamine, CAS 105-59-9: product and physicochemical data. https://www.sigmaaldrich.com/US/en/product/aldrich/471828 (murojaat sanasi 11.09.2026).

3. Dow Inc. N-Methyldiethanolamine MDEA: product overview and applications. https://www.dow.com/en-us/pdp.n-methyldiethanolamine-mdea.85619z.html (murojaat sanasi 11.09.2026).

4. Karunarathne S.S., Eimer D.A., Øi L.E. Density, viscosity, and excess properties of MDEA + H_2O, DMEA + H_2O, and DEEA + H_2O mixtures. Applied Sciences. 2020. Vol. 10. No. 9. Article 3196. DOI: 10.3390/app10093196.

5. Moioli S., Pellegrini L.A. Describing physical properties of CO_2 unloaded and loaded MDEA + PZ solutions. Chemical Engineering Research and Design. 2018. Vol. 138. P. 116–124.

6. Pal P., AbuKashabeh A., Al-Asheh S., Banat F. Accumulation of heat stable salts and degraded products during thermal degradation of aqueous MDEA using microwave digester and high pressure reactor. Journal of Natural Gas Science and Engineering. 2014. Vol. 21. P. 1043–1047. DOI: 10.1016/j.jngse.2014.11.007.

7. Verma N., Verma A. Amine system problems arising from heat stable salts and solutions to improve system performance. Fuel Processing Technology. 2009. Vol. 90. No. 4. P. 483–489. DOI: 10.1016/j.fuproc.2009.02.002.

SYNTHESIS, IR-SPECTRAL AND THERMAL ANALYSIS OF A THERMOSTABLE SUBSTANCE BASED ON LIQUID GLASS AND SILICA SOL

Akhmedov Hafiz Ibroimovich
Bukhara State Technical University.
xafizibnaxmed@gmail.com
Akhmedov Vohid Nizomovich
Bukhara State Technical University
voxid7@mail.ru

Abstract. *This paper summarizes the synthesis route, IR-spectral analysis, and thermogravimetric (TGA) and differential thermal (DTA) analysis of a thermostable substance synthesized from acrylic acid, ethylene glycol, colloidal silica sol, and liquid glass. The studies were carried out using modern physicochemical methods and methods consistent with national (GOST) and international (ASTM) standards.*

Keywords: *IR spectroscopy, thermogravimetric analysis, differential thermal analysis, liquid glass, silica sol, polymerization, thermal stability.*

INTRODUCTION

The demand for effective inorganic and organic flame retardants and intumescent fire-resistant polymer composite coatings is steadily growing in the chemical industry, construction, mechanical engineering, oil and gas, and other sectors. Ensuring the fire safety of buildings and structures and creating a new generation of protective agents that increase the fire resistance of combustible materials remain pressing tasks. The development of cost-effective and environmentally friendly technologies for producing thermostable compositions from local raw materials is of particular importance[1].

One promising approach to reducing the flammability and increasing the stability of polymer composite materials is the use of silicic-acid-based substances, in particular silica sol and liquid glass. SiO_2 nanoparticles interact with the polymer matrix to form a heat-resistant siloxane network[2]. Accordingly, the aim of this research was to synthesize a thermostable substance based on acrylic acid, ethylene glycol, and colloidal silica sol, to confirm its structure by IR spectroscopy, and to evaluate its thermal stability by TGA-DTA.

RESEARCH OBJECT AND METHODS

The research objects were the substance formed by modifying liquid glass and silica sol, as well as ethylene glycol samples. The synthesis was carried out in a laboratory reactor: acrylic acid and ethylene glycol were stirred at 80–90°C for 2–3 hours to obtain a complex polyester; after esterification, the mixture was cooled to 60–70°C, a polymerization initiator (potassium peroxodisulfate) and pre-mixed colloidal silica sol were added, and the mixture was heated at 70–80°C for 3–4 hours. During this process, the polyacrylate chains were crosslinked with the silica nanoparticles. The resulting nanocomposite was washed with methanol, filtered, and dried in a vacuum dryer at 50°C for 24 hours. IR-spectral analysis was performed on an IRAffinity-1S (SHIMADZU) FTIR spectrometer, and thermal analysis on a Shimadzu DTG-60 instrument in the range of 25–600°C.

RESEARCH RESULTS

The IR spectrum of the synthesized substance showed absorption bands corresponding to all theoretically expected functional groups (Figure 1, Table 1). The broad band at 3356 cm^{-1} corresponds to bound OH groups, the band at 2953 cm^{-1} to the CH_3 group, and the intense band at 1713 cm^{-1} to stretching vibrations of the carbonyl group in the –CO–CH_2–CH_2–CO– fragment[3].



Figure 1. IR spectrum of the synthesized substance (IRAffinity-1S, SHIMADZU).

Absorption band, cm^{-1}	Functional group	Vibration type	Structural fragment
3356	O–H (bound)	stretching	hydroxyl, silanol groups
2953	CH_3	stretching	organic chain
1713	–CO–CH_2–CH_2–CO–	C=O stretching	polyester (acrylate–ethylene glycol)
1647	RR’C=CH_2	C=C stretching	acrylate fragment
1410.7	C–H	bending	organic chain
1036.52	Si–O–Si	stretching	siloxane network

Table 1. Main absorption bands in the IR spectrum of the synthesized substance (IRAffinity-1S).

The band at 1647 cm^{-1} is attributed to the RR’C=CH_2 group, and the band at 1410.7 cm^{-1} to C–H bending vibrations. In particular, the intense Si–O–Si band at 1036.52 cm^{-1} confirms that the polyacrylate chains are chemically bonded to the silica sol particles and that a three-dimensional siloxane network has formed in the substance. This network is the main structural element responsible for the thermal stability of the substance.

The thermal stability of the substance was studied by TGA-DTA (Table 2). According to the TGA curve, the sample loses significant mass in the range of 25–200°C, with the main part of the loss occurring around 90°C, which is attributed to the evaporation of bound water (moisture). In the range of 200–400°C the mass remains relatively stable, indicating that the sample reaches a stable state after dehydration.

In the range of 400–500°C (around 431°C), an additional mass loss is observed, associated with the thermal decomposition of organic components. The DTA curve shows one endothermic and two exothermic effects[4].

Temperature, °C	DTA effect	Process
90.63	strong endothermic	evaporation of bound water
217.17	sharp exothermic	polymerization, crystallization or oxidation
431.17	small exothermic	thermal decomposition step
450–600	minor peaks	later stages of oxidation

Table 2. Main thermal effects recorded in the TGA-DTA analysis of the synthesized substance (DTG-60, 25–600°C).

As Table 2 shows, the strong endothermic effect at 90.63°C and the corresponding mass loss are associated with the release of bound water, while the sharp exothermic peak at 217.17°C is related to the thermal transformation of organic or crystalline phases in the sample (polymerization, crystallization, or oxidation). The small exothermic effect at 431.17°C corresponds to a high-temperature thermal decomposition step. Comparison of the results with literature data showed that the properties of the synthesized substance are close to those of flame retardants exhibiting fire resistance[5].

CONCLUSION

A thermostable substance was synthesized from acrylic acid, ethylene glycol, colloidal silica sol, and liquid glass in the presence of a potassium peroxodisulfate initiator. IR-spectral analysis confirmed the presence of OH (3356 cm^{-1}), CH_3 (2953 cm^{-1}), C=O (1713 cm^{-1}), RR’C=CH_2 (1647 cm^{-1}), C–H (1410.7 cm^{-1}), and Si–O–Si (1036.52 cm^{-1}) groups, i.e., the formation of polyacrylate chains and a siloxane network. TGA-DTA analysis in the range of 25–600°C revealed the release of bound water (90.63°C), a phase transformation (217.17°C), and high-temperature decomposition (431.17°C), while the substance remains thermally stable between 200 and 400°C. The synthesized substance exhibits properties characteristic of flame retardants and can be used to create fire- and heat-resistant coatings for wooden and inorganic building structures, as well as a raw material for various branches of the chemical industry.

REFERENCES

1. Hoang Thanh Hai. Development of flame- and heat-resistant nanomaterials based on unsaturated polyester resins containing nanoparticles of magnesium and zinc oxides. Dissertation for the degree of candidate of chemical sciences. Moscow, 2019. 127 p.

2. Thakare J.G., Pandey C., Mahapatra M.M., Mulik R.S. Thermal Barrier Coatings – A State of the Art Review. Metals and Materials International, 2021, Vol. 27, pp. 1947–1968.

3. Akhmedov V.N., Akhmedov Kh.I. Synthesis and IR-spectral analysis of thermostable substance based on liquid glass and silicagel. Universum: Chemistry and Biology, 2024, No. 12(126), pp. 68–71.

4. Akhmedov Kh.I., Akhmedov V.N. Thermogravimetric and differential thermal analysis of a thermostable material synthesized from liquid glass and silicagel. Development of Science, Vol. 8, No. 12, pp. 73–78.

5. Ogabi R., Manescau B., Chetehouna K., Gascoin N. A Study of Thermal Degradation and Fire Behaviour of Polymer Composites and Their Gaseous Emission Assessment. Energies, 2021, Vol. 14, 7070.

2. MUHANDISLIK, TEXNIKA, ENERGETIKA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDA INNOVATSION YECHIMLAR

DAVLAT AXBOROT TIZIMLARIDA MUHIM INFRATUZILMA OBYEKTLARINI ANIQLASHNING DOLZARB MASALALARI

Mahmudov Mirshod Bahodir o‘g‘li
E-mail: mirshodmakhmudov0515@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada davlat axborot tizimlarida muhim axborot infratuzilmasi obyektlarini aniqlashning dolzarb masalalari tahlil qilingan. Mavjud identifikatsiya jarayonining tashkiliy-idoraviy mezonlarga asoslanganligi va tizimlarning real ahamiyati hamda ishdan chiqish oqibatlarini yetarli darajada hisobga olmasligi ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, risklarga asoslangan tasniflash yondashuvi asosida muhim infratuzilma obyektlarini aniqlashning yagona milliy metodologiyasini ishlab chiqish zarurligi asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *davlat axborot tizimlari, muhim axborot infratuzilmasi, kiberxavfsizlik, kiberhujum, risklarni baholash, axborot xavfsizligi, raqamli transformatsiya, infratuzilma obyektlari.*

Bugungi kunda raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashishi davlat boshqaruvi, moliya, energetika va boshqa strategik sohalarda axborot tizimlaridan foydalanish miqyosini keskin oshirdi. Shu bilan birga, davlat axborot resurslariga qaratilgan kiberhujumlarning soni va murakkabligi ham ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-martdagi PF-38-son farmoni bilan tasdiqlangan 2026–2030-yillarga mo'ljallangan Kiberxavfsizlik strategiyasida davlat organlarining axborot tizimlari va muhim axborot infratuzilmasi (MAI) obyektlarini kibertahdidlardan himoya qilish tizimini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Shu bilan birga, amaliyotda barcha davlat axborot tizimlarini bir xil darajada muhim deb hisoblash mumkin emas. Ularning ba'zilari uzilgan taqdirda milliy miqyosda jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lsa, boshqalari nisbatan lokal xususiyatga ega. Afsuski, amaldagi tartibda davlat axborot tizimlarini identifikatsiya qilish asosan tashkiliy-idoraviy mezonlarga (tizim qaysi vazirlikka tegishli ekanligiga) tayanadi, ularning real ahamiyati, tizimlararo bog'liqligi va ishdan chiqish oqibatlarining og'irligi izchil baholanmaydi. Bu holat "Kiberxavfsizlik

to'g'risida"gi Qonun loyihasi muhokamasida ham davlat axborot-kommunikatsiya infratuzilmasi obyektlarining identifikatsiya qilinmagan va tasdiqlanmagan holda qolayotgani sifatida alohida ta'kidlangan edi.

Muhim axborot infratuzilmasi obyektlarini aniq va ob'ektiv mezonlar asosida identifikatsiya qilmaslik bir qator salbiy oqibatlarga olib keladi: cheklangan moliyaviy va kadrlar resurslari ustuvorliksiz taqsimlanadi, audit va monitoring barcha tizimlarga bir xil chastotada yo'naltiriladi, natijada eng muhim obyektlarga yetarlicha e'tibor qaratilmaydi. Xalqaro tajribada (ISO/IEC 27001, NIST SP 800-53, Yevropa Ittifoqining EPCIP dasturi) bu muammo risklarga asoslangan tasniflash tamoyili orqali hal etiladi, unda har bir axborot tizimi ta'sir darajasi bo'yicha baholanadi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda davlat axborot tizimlarini himoyalash samaradorligini oshirish uchun, avvalo, muhim axborot infratuzilmasi obyektlarini ilmiy asoslangan mezonlar asosida identifikatsiya qilish va tasniflashning yagona milliy metodologiyasini ishlab chiqish hamda uni normativ-huquqiy jihatdan mustahkamlash zarur. Bu esa Kiberxavfsizlik strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining Kiberxavfsizlik strategiyasini belgilash va kiberjinoyatchilikning oldini olish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni, PF-38-son, 2026-yil 10-mart.

2. O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonuni.

3. ISO/IEC 27001:2022. Information security, cybersecurity and privacy protection — Information security management systems — Requirements.

AGMK MOF-3 SHARLI TEGIRMON GIDROTRANSPORT TIZIMIDA PO‘LAT SHAR PARCHALARINING ABRAZIV YEMIRISH TA’SIRINI STATSIONAR MAGNITLI USHLAGICH BILAN KAMAYTIRISH

Marasulov Murodjon Soyibjon o‘g‘li
MULTINATIONAL MINING GROUP
marasulov292@gmail.com

Annotatsiya. *Ochiq usulda qazib olingan mis-molibden rudasini boyitish jarayonida sharli tegirmonlarda maydalanuvchi po’lat sharlarning yemirilishi natijasida hosil bo'ladigan mayda po’lat parchalari tegirmon bo’shatish butarasidan o’tib, gidrotransport tizimiga shlam nasosi va gidrosiklonga tushadi hamda ularning ish yuzalarini o’tkir qirralari bilan tez yemiradi. Ushbu maqolada AGMK MOF-3 korxonasining Warman 450 nasosi va CAVEX 500CVX10 gidrosiklonining texnik pasportlari asosida ushbu yemirilish mexanizmi aniqlashtirilga, tegirmon bo’shatish tsapfasiga o’rnatiluvchi statsionar magnitli ushlagich konstruksiyasi va uning asosiy tortish kuchi hisob-kitoblari taqdim etilgan, uskunalar xizmat muddatini oshirish nazariyasi ishlab chiqilgan hamda magnit tortish jarayonida qovushqoq pulpa pardasi orqali qimmatli komponentlarning (Au, Cu, Mo) yo’qolish mexanizmi, ularni asosiy oqimga qaytarish choralari va ushlangan po’lat parchalarini qayta ishlashga yo’naltirish imkoniyati muhokama qilingan. Taklif etilgan yechimning o’ziga xosligi mavjud butarani (elakni) olib tashlamasdan, uning ichiga magnit zonasini integratsiya qilish orqali ikki xil ajratish (o’lcham bo’yicha va magnit xossasi bo’yicha) bitta barabanda birlashtirilishidadir.*

Kalit so’zlar: *statsionar magnitli ushlagich, abraziv yemirilish, gidrotransport, shlam nasosi, gidrosiklon, po’lat shar parchalari, xizmat muddati, qovushqoqlik, mis-molibden rudasi.*

Аннотация. *В процессе обогащения медно-молибденовой руды, добываемой открытым способом, в шаровых мельницах в результате износа измельчающих стальных шаров образуются мелкие стальные обломки, которые проходят через разгрузочную барабанную сетку (трель) мельницы и попадают в систему гидротранспорта шламовый насос и гидроциклон, быстро изнашивая их рабочие поверхности своими острыми кромками. В данной статье на основе*

технических паспортов насоса Warman 450 и гидроциклона CAVEX 500CVX10 предприятия АГМК МОФ-3 уточнён данный механизм износа, представлена конструкция стационарного магнитного улавливателя, устанавливаемого на разгрузочную цапфу мельницы, и расчёт его основной силы притяжения, разработана теория повышения срока службы оборудования, а также рассмотрен механизм потерь ценных компонентов (Au, Cu, Mo) через вязкую плёнку пульпы в процессе магнитного улавливания, меры по их возврату в основной поток и возможность вторичной переработки улавливаемых стальных обломков. Особенность предложенного решения заключается в том, что без демонтажа существующей барабанной сетки (грохота) магнитная зона интегрируется внутрь неё, объединяя два вида разделения (по размеру и по магнитным свойствам) в одном барабане.

Ключевые слова: *стационарный магнитный улавливатель, абразивный износ, гидротранспорт, шламовый насос, гидроциклон, обломки стальных шаров, срок службы, вязкость, медно-молибденовая руда.*

Abstract. *During the beneficiation of open-pit-mined copper-molybdenum ore, wear of the grinding steel balls inside the ball mills produces small steel fragments that pass through the mill's discharge trommel and enter the hydrotransport system the slurry pump and hydrocyclone rapidly abrading their working surfaces with their sharp edges. Based on the technical data sheets of the Warman 450 pump and the CAVEX 500CVX10 hydrocyclone at the AGMK MOF-3 plant, this paper clarifies this wear mechanism, presents the design of a stationary magnetic trap installed on the mill's discharge trunnion together with the calculation of its primary attractive force, develops a theory for extending equipment service life, and discusses the mechanism of valuable-component (Au, Cu, Mo) loss through the viscous pulp film during magnetic capture, the measures for returning them to the main process stream, and the potential for recycling the captured steel fragments. The distinctive feature of the proposed solution is that, without removing the existing trommel (screen), the magnetic zone is integrated inside it, combining two separation modes by size and by magnetic property within a single rotating drum.*

Keywords: *stationary magnetic trap, abrasive wear, hydrotransport, slurry pump, hydrocyclone, steel ball fragments, service life, viscosity, copper-molybdenum ore.*

1. INTRODUCTION (KIRISH)

Mis-molibden rudasini boyitish texnologik zanjirida yanchish bosqichi - sharli tegirmonlar (МШЦ-7300×13000) orqali amalga oshiriladi. Ishlash jarayonida

yanchuvchi po’lat sharlar asta-sekin yemiriladi, singadi va parchalanadi (siniq, yassilangan yoki uchli qoldiqlar hosil bo'ladi). Tegirmon konstruksiyasida bu parchalarni ushlab qolish uchun bo’shatish tomonida butara (elak) o’rnatilgan bo’lsa-da, elak teshigi geometriyasi cheklangan bo’lganligi sababli ma’lum o’lchamdagi va shakldagi parchalar undan erkin o’tib ketadi hamda pulpa oqimi bilan birga zumpfga, keyin shlam nasosiga va gidrosiklonga tushadi.

Bu parchalar oddiy ruda zarrachalaridan tubdan farq qiladi: ular yuqori zichlikka (≈7800 kg/m³), katta qattiqlikka va eng muhimi sinish natijasida hosil bo’lgan o’tkir qirralarga ega. Aynan shu xususiyat ularni gidravlik uskunalar uchun oddiy ruda zarrasidan ancha xavfliroq qiladi: yumshoq elastomer futerovkali yuzalarda o’tkir qirrali qattiq zarra kesuvchi yemirilish mexanizmini keltirib chiqaradi, bu esa abraziv oqim yemirilishidan ancha tezroq kechadi.

Ushbu muammoning texnik yechimi sifatida sanoat amaliyotida tegirmon bo’shatish tsapfasiga o’rnatiladigan statsionar (qo’zg’almas) magnitli qurilmalar qo’llanilib kelinmoqda (masalan, RU 2400306 patenti, 2013). Biroq bu yechimlarning aksariyati mavjud butarani (elakni) to’liq olib tashlashni nazarda tutadi, natijada o’lcham bo’yicha ajratish funksiyasi yo’qoladi. Ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, taklif etilgan konstruksiyada butara saqlanadi, magnit zonasi uning boshlang’ich, elaksiz ("butara") qismiga integratsiya qilinadi, natijada bitta barabanda ikki xil ajratish (o’lcham bo’yicha - elak, magnit xossasi bo’yicha - doimiy magnit) birlashtiriladi.

Maqolaning maqsadi uch qismdan iborat: birinchidan, po’lat shar parchalarining aynan qaysi tugunlarni va qanday mexanizm bilan yemirishini AGMK MOF-3 uskunalari pasportlari asosida aniqlashtirish; ikkinchidan, magnitli ushlagichning asosiy tortish kuchi hisobini taqdim etish va shu asosda uskunalar xizmat muddatini oshirish nazariyasini ishlab chiqish; uchinchidan, magnit tortish jarayonida yuzaga keladigan yon ta’sirni qovushqoq pulpa pardasi orqali qimmatli metallarning qisman yo’qolishini baholash, uni kamaytirish hamda ushlangan po’lat parchalarini qayta ishlashga, yo’qolayotgan mineral zarralarni esa asosiy pulpa oqimiga qaytarishga yo'naltirilgan amaliy yo’llarni taklif etish.

2. LITERATURE REVIEW (ADABIYOTLAR TAHLILI)

2.1. O’zbekiston tadqiqotlari va manbalari

Mavzuga bevosita aloqador o’zbek tilidagi va O’zbekiston sharoitida tayyorlangan manbalar orasida alohida o’rin tutadigan asar - Shakarov T.I. va Xasanov A.S. tomonidan yozilgan, O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 25-iyundagi 218-sonli buyrug'i asosida oliy o’quv yurtlari uchun

darslik sifatida tavsiya etilgan "Foydali qazilmalarni boyitish va qayta ishlash asoslari" nomli darslikdir [1]. Ushbu darslikda to'g'ridan-to’gri qayd etilishicha, "Olmaliq KMK" AJning yangi boyitish fabrikalarida (jumladan, MOF-3da) yuqori bosimli valli maydalagichlardan (HPGR) chiqqan 6 mm li fraksiya gidrosiklon bilan yopiq siklda ishlaydigan zoldirli (shar) tegirmonlarga tushadi va 80 % li 0,074 mm sinfdagi mahsulot flotatsiyaga jo’natiladi. Bu ma’lumot ushbu maqolaning butun texnologik zanjiri (HPGR, yopiq sikl gidrotransport) haqidagi asosiy da’vosini tasdiqlaydi; bundan tashqari, darslikning rasmiy taqrizchilaridan biri aynan "Olmaliq KMK" AJ 1-mis boyitish fabrikasi direktori bo’lgani sababli, bu ma'lumot korxona tomonidan amalda tasdiqlangan manba sifatida qaraladi.

AGMK MOF-3 gidrotransport tizimidagi abraziv yemirilish muammosiga bag’ishlangan maxsus tadqiqot [2] ushbu maqolaning bevosita ilmiy zaminini tashkil etadi: unda shlam nasoslari va quvurlarning yemirilish sabablari, futerovka materiallari va ularning tanlash mezonlari batafsil yoritilgan. Muallifning boshqa ishida [3] maydalash sifatining pastki oqim jarayonlariga (gidrotransport tizimiga) ta’siri, xususan, shar zaryadi nazorati va futerovka tanlovi masalalari texnologik-iqtisodiy nuqtai nazardan tahlil qilingan.

AGMK ning haqiqiy ruda tarkibi va reagentlar rejimi bo’yicha rasmiy ilmiy nashr sifatida "Молодой учёный" jurnalidagi maqola [4] muhim ahamiyatga ega: unda Almaliq KMK rudasining tasdiqlangan tarkibi (Cu - 0,362 %, Mo - 0,00401 %, Au - 0,537 g/t, Ag - 2,424 g/t) keltirilgan, bu ma’lumotlar ushbu maqolaning 7-bo’limidagi qovushqoqlik hisob-kitoblari uchun boshlang’ich qiymat sifatida ishlatilgan.

2.2. Xalqaro adabiyot

Gidrotransport quvurlaridagi abraziv eroziyaning zamonaviy tahlili Wang va boshqalarning ishida [5] eksperiment va CFD modellashtirish uyg’unligida berilgan: tezlik, zarra o’lchami, massa sarfi va shakl omillarining eroziya intensivligiga ta’siri miqdoriy tarzda ko'rsatilgan. Bu natija ushbu maqoladagi yemirilish tezligi bog’lanishining (3-bo'lim) zamonaviy tasdig’idir. Kritik cho’kish tezligi nazariyasi Durand va Condolios [6] tomonidan ishlab chiqilgan klassik modelga asoslanadi. Magnit maydonining masofa bo'yicha eksponensial so’nish qonuni Svoboda [7] tomonidan tizimlashtirilgan klassik magnetostatika asosida qo’llanilgan, magnit ajratish jarayonining muhandislik hisob-kitob usullari esa Pelevin [8] darsligiga tayanadi.

Statsionar magnitli ushlagichlar texnologiyasining sanoat samaradorligi bo’yicha eng dolzarb va ishonchli ma’lumot maxsus sanoat hisobotida [9] keltirilgan: sanoat sharoitida qo’llanilgan statsionar magnitli tizimlar yanchuvchi tanalar parchalarining

80 % dan ortig'ini olib tashlashi, uskunalar resursini 250 % ga oshirishi va gidrosiklon xizmat muddatini 2,5 barobar uzaytirishi qayd etilgan. Ushbu raqamlar maqolaning 5-bo’limidagi xizmat muddati nazariyasi uchun asosiy miqdoriy tayanch nuqta bo'lib xizmat qiladi.

3. RESEARCH OBJECT AND METHODOLOGY (TADQIQOT OB'EKTI VA METODOLOGIYA)

Tadqiqot obyekti AGMK Mis-molibden boyitish fabrikasi (MOF-3) ning yanchish-gidrotransport konturi: МШЦ-7300×13000 sharli tegirmon (12 dona, har biri 730 t/soat unumdorlik bilan), zumpf (pulpa yig'gich, zichlik 55 %), Warman 450 turkumidagi shlam nasosi va CAVEX 12×500CVX10 gidrosiklon batareyasi (12 dona). Metodologiya uch bosqichdan iborat: (1) uskunalarning rasmiy texnik pasportlaridagi geometrik va texnologik parametrlarni tahlil qilish orqali yemirilish mexanizmini aniqlash; (2) klassik magnetostatika (Svoboda, 2004) va muhandislik hisob-kitob usullari (Pelevin, 2018) asosida magnitli ushlagichning tortish kuchini hisoblash; (3) sanoat benchmark ma'lumotlari [9] asosida xizmat muddati o’sishini baholash.

Tegirmonning bo'shatish qismida elak teshigi 10×40 mm o’lchamli cho’ziq tirqish shaklida bo’lib, bu geometriya tor tomoni (10 mm) bo'yicha kichik bo’lsada, uzun tomoni (40 mm gacha) bo’yicha yo'nalgan cho’ziq parchalarning erkin o’tib ketishiga imkon beradi. Shu sababli loyihaviy nishon sifatida 1-30 mm oralig’idagi butun parcha o’lchamlari qabul qilingan.

4. ABRASIVE WEAR OF STEEL BALL FRAGMENTS IN THE WARMAN 450 PUMP AND CAVEX HYDROCYCLONE (PO'LAT SHAR PARCHALARINING WARMAN 450 NASOSI VA CAVEX GIDROSIKLONIDA ABRAZIV TA'SIRI)

Butaradan o’tib ketgan po’lat shar parchalari pulpa oqimi bilan birga ikkita asosiy gidravlik uskunaga tushadi, shlam nasosi va gidrosiklon. Har ikkala uskunaning texnik pasportidagi geometrik o’lchamlarini tahlil qilish shuni ko’rsatadiki, parchaning aksariyat o’lchamlari (50 mm gacha) uskunaning eng tor o’tkazish kesimidan ham erkin o’tib ketadi. Ya'ni ular uskunani tiqilish orqali emas, balki doimiy ishqalanish orqali, sekin-asta, yemiradi. Bu - muammoning aynan nima uchun uzoq vaqt sezilmay qolishining texnik sababidir.

4.1. Warman 450 nasosi

Nasos pasportiga ko’ra ishchi g’ildirak 1457 mm, aylanish tezligi 378 ayl/min, chiqish diametri 457 mm, ish qismining futerovkasi - Elastomer R55 (rezina asosidagi elastomer), eng tor o’tkazish kesimi (min. o’tkazish o'lchami) - 177,8 mm. Bu qiymat 50 mm gacha bo’lgan har qanday shar parchasidan sezilarli darajada katta, ya’ni parcha

nasos ichida hech qachon tiqilib qolmaydi u ishchi g’ildirak va korpus bo’ylab erkin harakatlanadi. Muammo aynan shu yerda: yumshoq rezina futerovka yuzasida o’tkir qirrali qattiq po’lat parcha siljib harakatlanganda, bu mexanika nuqtai nazaridan kesuvchi yemirilish mexanizmini keltirib chiqaradi, bu esa oddiy zarrachalar hosil qiladigan abraziv (ishqalanish) yemirilishidan ancha tezroq va chuqurroq kechadi. Bundan tashqari, rezina futerovkaning chetki (periferik) aylanish tezligi hisob-kitoblarga ko’ra 28,84 m/s ni tashkil etadi. Bu qiymat Warman qo’llanmasida ko’rsatilgan rezina uchun ruxsat etilgan chegara (27,43 m/s, ya'ni 5400 fut/min) dan 5,1 % yuqori. Demak, hatto po’lat parchalar mavjud bo’lmasa ham, nasos o'zining nominal tezligida allaqachon rezina futerovkaning chegaraviy rejimida ishlaydi. Po’lat parchalarning qo'shimcha kesuvchi ta’siri bu rejimni yanada og’irlashtiradi.

4.2. CAVEX 500CVX10 gidrosiklon

Gidrosiklon pasportiga ko’ra kirish kanali diametri 160 mm, sliv (yuqori chiqish) diametri 185 mm, peskovaya nasadka (apex, pastki chiqish) diametri 114 mm; futerovka - R55 rezina va Linatex (6/12 mm qalinlik). Bu yerda ham eng tor o’tkazish kesimi (114 mm) 50 mm gacha bo'lgan parchadan ancha katta parcha erkin o’tadi. Lekin gidrosiklonning o’ziga xos xavfi shundaki, kirish kanali (160 mm) butun uskunadagi eng tor va shu bilan birga eng yuqori tezlikli nuqta hisoblanadi (tangensial kirish natijasida markazdan qochma tezlanish maksimal), demak aynan shu nuqtada abraziv (va po’lat parcha ishtirokida kesuvchi) yemirilish eng intensiv kechadi. Bu gidrosiklon futerovkasining amaliyotda nima uchun tez-tez almashtirilishini tushuntiradi.

1-jadval. AGMK MOF-3 gidrotransport tizimidagi asosiy yemirilish tugunlari (pasporti ma'lumotlari asosida).

Uskuna	**Eng tor o'tkazish kesimi, mm**	**Futerovka materiali**	**Yemirilish mexanizmi**
Warman 450 nasosi	177,8	Elastomer R55 (rezina)	Kesuvchi yemirilish (rezina + o’tkir po’lat qirra); futerovka tezligi (28,84 m/s) allaqachon chegaradan (27,43 m/s) yuqori

Uskuna	Eng tor o'tkazish kesimi, mm	Futerovka materiali	Yemirilish mexanizmi
CAVEX 500CVX10 gidrosiklon - kirish kanali	160	R55 rezina	Eng yuqori tangensial tezlik nuqtasi abraziv+kesuvchi yemirilish maksimal
CAVEX 500CVX10 gidrosiklon - apex	114	Linatex (6/12 mm)	Konsentrlangan qattiq oqim (quyulma) doimiy ishqalanish yemirilishi
МШЦ-7300×13000 butarasi	10×40 (tirqish)	Po'lat elak	40 mm gacha cho'ziq parchalar tirqishdan erkin o'tadi birlamchi himoya yetarli emas

5. THEORY OF EQUIPMENT SERVICE LIFE EXTENSION (USKUNALAR XIZMAT MUDDATINI OSHIRISH NAZARIYASI)

AGMK'ning rasmiy, imzolangan ТМЦ (ehtiyot qism sarfi) hisobotiga ko’ra [10], Warman 450 nasosining pulpa bilan bevosita aloqada bo’ladigan uchta asosiy qismi old futirofka, orqa futirofka va ishchi g’ildirak har uchalasi ham aniq 4500 soat xizmat muddatiga ega; eng qisqa umr ko’radigan qism salnik zichlagich o’ramasi 2000-2500 soat. Himoyalangan qismlari (podshipnik, mufta) esa 5000-8000 soat oralig’ida xizmat qiladi. Muhimi, hisobotning ustunida aynan shu nasos loyihaning o'z zumpf keyin gidrosiklon konturiga МШЦ 7,3×13 tegirmonlaridan CAVEX 500CVX10 gidrosiklonlariga pulpa uzatishga xizmat qilishi alohida tasdiqlangan. Demak, keltirilgan 4500 soatlik ko’rsatkich taxminiy baholash emas, balki aynan tekshirilayotgan uskunaning o’zi uchun zavod tomonidan hujjatlashtirilgan aniq raqamdir. Ushbu 4500 soatlik bazaviy ko’rsatkichni sanoat benchmark darajasiga (quyida) yaqinlashtirish mazkur ishning amaliy maqsadi hisoblanadi.

Bu maqsadning miqdoriy asosini sanoatda sinovdan o’tgan statsionar magnitli ushlagich texnologiyasining natijalari [9] tashkil etadi: tramp po’lat 80 % dan ortiq darajada olib tashlanganda, gidravlik uskunalar resursi 250 % ga oshadi, gidrosiklon xizmat muddati esa 2,5 barobar uzayadi. Bu reklama ko’rsatkichi emas, balki sanoat sharoitida o’lchangan natija bo’lib, ushbu maqoladagi konstruksiyaga (4-bo’lim, 6-

bo’lim) to’g’ridan-to’g’ri tegishlidir: agar magnitli ushlagich tegirmon chiqishida (butara ichida) po’lat parchalarning katta qismini ushlab qolsa, nasos va gidrosiklonga tushadigan zararli zarralar oqimi shunga mos ravishda kamayadi, demak kesuvchi yemirilish tezligi ham pasayadi.

Xizmat muddatini oshirishning uch mexanizmi ajratiladi:

- To’g’ridan-to’g’ri mexanizm kesuvchi yemirilishning yo’qolishi: magnit ushlagan parcha nasos va gidrosiklonga umuman yetib bormaydi, demak eng agressiv yemirilish turi (o’tkir qirra + yumshoq futerovka) manbada bartaraf etiladi.
- Bilvosita mexanizm nominal rejimga qaytish: futerovka tezligi chegarasi (27,43 m/s) allaqachon deyarli yetib borilgan (4.1-bo’lim); tramp metall yo’qligida futerovka faqat "toza" abraziv (ruda zarrachalari) bilan ishlaydi, bu chegaraga nisbatan ancha xavfsizroq rejim.
- Kuzatuv mexanizmi bashoratli texnik xizmat: ushlangan parchalar hajmi va ularning o’lcham taqsimoti vaqt bo'yicha kuzatilsa (ushlangan metall qutisi muntazam tortilsa), bu tegirmondagi shar zaryadi holatining bilvosita ko'rsatkichiga aylanadi futerovka va shar zaryadini almashtirish jadvalini reaktiv emas, bashoratli (prediktiv) tarzda rejalashtirish imkonini beradi.

Uchinchi mexanizm bo’yicha original taklif: Elxan (MOF-3 muhandisi) bilan bo’lgan ichki muhokamada aytilgan g’oyaga tayanib "shar zaryadi va mahsulot yiriklashuvini sensorlar orqali doimiy raqamli nazorat qilish" magnitli ushlagichning yig'ish qutisiga oddiy tortish datchigi (load cell) o’rnatish taklif etiladi. Bu qo’shimcha investitsiyasiz, mavjud konstruksiyaning tabiiy davomi sifatida, tegirmon operatorlariga ushlangan po’lat massasining vaqt bo’yicha o’zgarish tendensiyasini (trend) real vaqtda ko'rsatadi: keskin o’sish shar zaryadi yangilanishi yoki futerovka yemirilishi signalini beradi, bu esa texnik xizmat jadvalini reaktiv ta’mirlashdan bashoratli ta’mirlashga o’tkazishga xizmat qiladi.

Halollik yuzasidan shuni alohida ta’kidlash lozim: yuqoridagi 250 % va 2,5 barobar ko’rsatkichlar ishlab chiqaruvchilar tomonidan boshqa sanoat obektlarida o'lchangan natijalar bo'lib, ular MOF-3 sharoitiga to'g'ridan-to'g'ri ekstrapoliyatsiya sifatida emas, balki reallikda erishish mumkin bo’lgan diapazon sifatida keltirilmoqda. MOF-3 ning o’ziga xos aniq raqamini olish uchun statsionar magnitli ushlagich amalda o’rnatilgandan so’ng, ushlangan metall miqdori va uskunalar orasidagi vaqt oralig’ini kamida 6-12 oy davomida bevosita kuzatish talab etiladi.

6. DESIGN OF THE STATIONARY MAGNETIC TRAP AND MAGNETIC FORCE CALCULATION (STATSIONAR MAGNITLI USHLAGICH KONSTRUKSIYASI VA TORTISH KUCHI HISOBI)

Taklif etilgan konstruksiyada doimiy magnit sektori (τ = 160 mm qutb qadami, 200° yoy) tegirmon butarasining boshlang’ich, elaksiz ("ko'r") 1700 mm li qismi atrofida, alohida, aylanmaydigan ramaga o’rnatiladi. Faqat baraban aylanadi; po’lat parcha magnit zonasidan chiqqach, tortish kuchi yo’qolib, maxsus nov orqali chetga chiqarib yuboriladi. Konstruksiyaning umumiy ko'rinishi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Statsionar magnitli ushlagichning konstruktiv sxemasi (magnit zonasi butara ichidagi ko'r qismda).

Magnitli ushlagichning asosiy loyihaviy sharti magnit tortish kuchining hajmiy zichligi aylanuvchi butara devoridagi parchani ajratishga intiluvchi (og’irlik va markazdan qochma kuchlar natijasidagi) kuchdan katta bo'lishi kerak. Bu shart uchta izchil formula orqali ifodalanadi.

TALAB — ajratuvchi kuch

(shuningdek: uzuvchi kuch) · po'lat parchani magnitdan yulib olishga harakat qiluvchi kuch

Aylanuvchi butara devorida po'lat parchaga og'irlik va markazdan qochma kuch qarama-qarshi yo'nalishda ta'sir qiladi. Bir birlik hajmga to'g'ri keladigan natijaviy («ajratuvchi») kuch:

$$f_{\text{отр}} = (\rho_{\text{ш}} - \rho_{\text{п}})(g - \omega^2 R) \qquad (1)$$

bu yerda:

$\rho_{\text{ш}}$	—	po'lat sharning zichligi, 7800	kg/m³
$\rho_{\text{п}}$	—	pulpaning zichligi (75% qattiq)	kg/m³
g	—	erkin tushish tezlanishi, 9,81	m/s²
ω	—	butaraning burchak tezligi	rad/s
R	—	butara radiusi, 1,2	m

Manba: Magnit_Trunnion_30mm.pdf (D-10, TALAB bosqichi); ρ_n=1902 kg/m³ — claude/XOTIRA.md, D-23/O-39.

$$f_{\text{отр}} = (7800 - 1902) \cdot (9{,}81 - 1{,}86) \approx 46{,}9 \text{ kN/m}^3$$

Bu son — HAR QANDAY parcha o'lchami uchun BIR XIL (hajm birligiga nisbatan): magnit shu kuchdan katta tortishni ta'minlashi shart.

(1)-formuladagi $f_{\text{отп}}$ "ajratuvchi kuch" - parchani magnitdan yulib olishga harakat qiluvchi, faqat pulpa va po’lat zichligiga hamda butaraning aylanish tezligiga bog’liq bo’lgan, o'lchamdan mustaqil kattalik. AGMK MOF-3 uchun ($\rho_{\text{п}}$ = 1902 kg/m³ pulpa zichligi bilan) bu qiymat 46,9 kN/m³ ni tashkil etadi bu magnit har qanday o’lchamdagi parcha uchun yengib chiqishi shart bo’lgan "talab" hisoblanadi.

QONUN — magnit kuchining hajmiy zichligi

(shuningdek: magnit tortish qonuni) · masofa ortishi bilan eksponensial so'nadi

Doimiy magnit yuzasidan chuqurlashgan sari maydon eksponensial so'nadi (Svoboda, 2004). Shundan magnit tortish kuchining hajmiy zichligi:

$$f_{\text{M}}(x) = a\,\mu_0\,\varkappa_{\text{эф}}\,\frac{2\pi}{\tau}\,H_0^2\,e^{-\frac{4\pi x}{\tau}} \qquad (2)$$

bu yerda:

a	—	o'lcham koeffitsienti (1,1 / 1,5 / 2,0)	—
μ_0	—	vakuum magnit doimiysi, $4\pi\cdot10^{-7}$	T·m/A
$\varkappa_{\text{эф}}$	—	po'latning samarali qabul qiluvchanligi, 3	—
τ	—	magnit qutb qadami, 0,16	m
H_0	—	qutb yuzasidagi maydon kuchlanganligi	A/m
x	—	yuzadan zarra markazigacha masofa, 0,05+d/2	m

Manba: Magnit_Trunnion_30mm.pdf (QONUN bosqichi); B0=0,245 T, H0=B0/μ0≈194 961 A/m — D-22/X-31, claude/XOTIRA.md.

(2)-formula magnit tortish kuchining masofa bilan qanday so’nishini tavsiflaydi, magnit yuzasidan uzoqlashgan sari (parcha kattalashgan sari, chunki uning markazi devordan uzoqlashadi) kuch eksponensial kamayadi. B_0 = 0,245 T (2450 Gs) sanoatda ishlab chiqarilayotgan arzon toifadagi NdFeB mahsulotlarining odatiy diapazoniga (2400 Gs) deyarli teng, ya’ni ortiqcha talabchan emas, sanoat me’yorida qabul qilingan qiymat.

ZAXIRA — xavfsizlik koeffitsienti

(shuningdek: ushlash marjasi) · magnit qanchalik "bemalol" ushlab turadi

Magnit ishonchli ushlab turishi uchun (2)-formuladagi kuch (1)-formuladagi kuchdan katta bo'lishi shart. Nisbat — zaxira koeffitsienti:

$$k = \frac{f_{\text{M}}(x)}{f_{\text{отр}}} \geq 1 \qquad (3)$$

bu yerda:

k	—	zaxira (xavfsizlik) koeffitsienti	—
f_{M}	—	(2)-formuladan, berilgan d uchun	kN/m³
$f_{\text{отр}}$	—	(1)-formuladan, 46,9	kN/m³

Manba: Magnit_Trunnion_30mm.pdf (ZAXIRA bosqichi), D-22/D-23.

Loyihaviy nishon — 1–30 mm oralig'idagi eng zaif nuqtalar:

d = 25 mm (a = 1,5 bosqichining chekkasi — eng zaif nuqta)

$f_{\text{M}} \approx 62{,}3$ kN/m³ $k \approx 1{,}33$

d = 30 mm (a = 2,0 bosqichi)

$f_{\text{M}} \approx 68{,}4$ kN/m³ $k \approx 1{,}46$

$d_{\max}(k=1) \approx 39{,}6$ mm — *butun 1–30 mm oralig'ida k ≥ 1,33: magnit har qanday nishon o'lchamini xavfsiz zaxira bilan ushlaydi.*

(3)-formula orqali topilgan zaxira koeffitsienti k - magnit "qanchalik bemalol" ushlab turishini ko’rsatadi. 1-30 mm oralig'idagi eng zaif nuqta (d = 25 mm, o’lcham koeffitsienti bosqichi almashinuvi tufayli) da ham k - 1,33 – ya’ni magnit talabdan 33 % ko’p kuch bilan ushlaydi. d = 30 mm da k - 1,46 ga yetadi. Butun 1-30 mm oralig’ida k ≥ 1,33 saqlanishi konstruksiyaning yetarli xavfsizlik zaxirasiga ega ekanini tasdiqlaydi.

7. LOSS OF VALUABLE COMPONENTS THROUGH THE VISCOUS PULP FILM (QOVUSHQOQ PULPA PARDASI ORQALI QIMMATLI KOMPONENTLAR YO'QOTILISHI)

Magnit po’lat parchani pulpadan tortib chiqarayotganda, yon ta’sir sifatida quyidagi fizik hodisa yuzaga keladi: parcha yuzasi pulpa bilan namlangan bo’lib, u suyuqlikdan chiqayotganda yuzasida yupqa pulpa pardasi "yopishib qoladi" (entrainment). Bu bo'yash va qoplash texnologiyasida yaxshi tanilgan klassik hodisa bo’lib, suyuqlik qovushqoqligi va zarraning chiqish tezligiga bog'liq holda parda qalinligini belgilaydi. Ushbu pardada pulpaning o'zi bilan birga undagi mayda flotatsiya uchun mo'ljallangan qimmatli minerallar zarrachalari (oltin, mis, molibden birikmalari) ham parcha bilan birga olib chiqib ketiladi.

Mexanizmning miqdoriy bahosi (avvalgi hisob-kitoblarimizda AGMK'ning haqiqiy ruda tarkibi - Cu 0,362 %, Mo 0,00401 %, Au 0,537 g/t [4] asosida, klassik parda qalinligi qonuni bo’yicha olingan) shuni ko’rsatadiki, bitta 30 mm li parchada

yo'qoladigan mis miqdori mikrogramm-milligramm darajasida (bir necha milligramm atrofida) bo’ladi. MOF-3ning kunlik 5000 tonna konsentrat chiqarish hajmi bilan solishtirilganda, bu miqdor statistik jihatdan sezilmaydigan darajada kichik davlat yo'qotish me’yoridan oshib ketish xavfi yo’q. Shu sababli ushbu maqolada mazkur hisob-kitobning to’liq formulasi va sonli keltirib chiqarilishi qaytarilmaydi (u alohida ilmiy hujjatda batafsil berilgan); bu yerda faqat mexanizmning o’zi va uni kamaytirish choralari muhokama qilinadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ushbu yon ta’sirni faqat "yo’qotish" sifatida emas, balki qisman qaytariladigan ikkilamchi resurs sifatida ham ko’rish to’g’riroq bo'ladi. Birinchidan, magnit tomonidan ushlab qolingan po’lat parchalarining o'zi alohida to’planadigan, nisbatan toza temir-po’lat lomi bo’lib, uni metall qayta ishlash (eritish/legallashtirish) korxonalariga topshirish orqali qo'shimcha, mustaqil iqtisodiy foyda olish mumkin. Bu magnit ushlagichning asosiy vazifasidan (uskunani himoya qilish) tashqari ikkinchi foyda manbaidir. Ikkinchidan, quyida keltirilgan yuvish (spray-rinse) chorasi parchaga yopishgan pulpa pardasidagi qimmatli mineral zarrachalarni (Au, Cu, Mo) parchadan ajratib, ularni yo'qotilgan hisoblamasdan qayta asosiy pulpa oqimiga qaytaradi, ya’ni ular texnologik jarayondan butunlay chetlashtirilmaydi.

Yo’qotishni yanada minimallashtirish va yuqoridagi ikki resursni ajratib olish uchun quyidagi amaliy choralar taklif etiladi:

- Yuvish zonasi: yig’ish novi ustida ushlangan parchaga qisqa muddatli suv purkash (spray-rinse) qo'llash. Bu parchaga yopishgan pulpa pardasidagi mineral zarralarni ajratib, ularni qayta pulpa oqimiga qaytaradi, parcha esa allaqachon novga tushib bo'lgan holda toza chiqadi.
- Tomchilash (drenaj) vaqti: yig’ish qutisi og’zida parchaning bir necha soniya davomida tik holda tomchilashi uchun qiyalik va vaqt zahirasi ta’minlash, bu qo’shimcha energiyasiz, faqat og'irlik kuchi hisobiga parda qalinligini kamaytiradi.
- Yig’ish qutisini muntazam bo’shatish: parchalar quti ichida uzoq turib qolmasligi kerak. Namlangan yuzadan asta-sekin bug’lanish yoki qayta ivishi hisobiga tarkibidagi qoldiq minerallarning aniq balansini nazorat qilish qiyinlashadi.
- Magnit kuchini optimal darajada tanlash (6-bo’lim, k=1,33-1,46): haddan tashqari kuchli magnit mayda, hali ozroq foydali komponent tashiydigan zarrachalarni ham tortib olishi mumkin; loyihaviy zaxira atayin "minimal yetarli" darajada talab qilingandan atigi 33-46 % ortiq tanlangan.

• Po'lat parchalarni qayta ishlashga yo’naltirish: yuvilgan va tozalangan po’lat parchalari yig’ish qutisida alohida saqlanib, davriy ravishda metall lom sifatida qayta eritish (legallashtirish) korxonalariga topshirilishi mumkin. Bu asbob-uskunani himoya qilishdan tashqari qo’shimcha, mustaqil iqtisodiy samara beradi.

8. CONCLUSION (XULOSA)

O'tkazilgan tahlil AGMK MOF-3 gidrotransport tizimidagi abraziv yemirilishning bir muhim manbasi tegirmondan chiqib ketuvchi po’lat shar parchalari ekanini pasport ma’lumotlari asosida tasdiqladi: bu parchalar Warman 450 nasosi (177,8 mm) va CAVEX gidrosiklonining (114 mm apex, 160 mm kirish) eng tor o’tkazish kesimlaridan ham erkin o’tib, uskunalarni tiqilish orqali emas, balki doimiy kesuvchi ishqalanish orqali yemiradi.

Taklif etilgan statsionar magnitli ushlagich (B_0 = 0,245 T, $k \geq 1{,}33$) mavjud butarani saqlab qolgan holda po'lat parchalarni manbada ushlab qolishga qodir. Zavodning imzolangan ТМЦ hisobotida [10] tasdiqlangan 4500 soatlik bazaviy xizmat muddati (futirofka va ishchi g’ildirak) hozirgi kesuvchi yemirilish rejimining aniq, hujjatlashtirilgan boshlang’ich nuqtasi hisoblanadi. Sanoat benchmark ma'lumotlari [9] asosida (tramp metall 80 % dan ortiq olib tashlanganda gidravlik uskunalar resursi 250 % ga oshishi) bu yechim aynan shu 4500 soatlik bazani sezilarli darajada uzaytirishga imkon berishi kutilmoqda. Magnit tortish jarayonidagi yon ta’sir qovushqoq parda orqali qimmatli komponentlar yo’qotilishi, mexanizm sifatida real, ammo miqdor jihatdan ahamiyatsiz ekani aniqlandi; taklif etilgan yuvish va drenaj choralari bu zarrachalarni yo’qotilgan deb hisoblamasdan asosiy pulpa oqimiga qaytaradi. Bundan tashqari, magnit tomonidan ushlab qolingan po’lat parchalarining o’zi ham qayta ishlash uchun yaroqli metall lom sifatida qo'shimcha iqtisodiy qiymat tashiydi.

Ishning ilmiy yangiligi o'lcham bo'yicha (elak) va magnit xossasi bo’yicha ajratishni bitta aylanuvchi barabanda birlashtirish g’oyasida. Amaliy ahamiyati gidravlik uskunalar xizmat muddatining oshishi, ta'mirlash chastotasining kamayishi va shu orqali ishlab chiqarish uzluksizligining yaxshilanishida, shuningdek ushlangan po’lat lomining qayta ishlanishi va yo’qolayotgan mineral zarralarning asosiy oqimga qaytarilishi orqali qo’shimcha iqtisodiy samara olinishida. Keyingi tadqiqot yo’nalishlari sifatida: magnit konstruksiyasining o’z magnit sxema (FEA) hisobi, zavoddan olinishi zarur bo'lgan bir qator geometrik parametrlar (butara diametri, yig’ish novi geometriyasi) va amalda o’rnatilgandan so’ng kamida 6-12 oylik kuzatuv natijalari asosida xizmat muddati o’sishining aniq miqdoriy tasdig’i ko’rsatilishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shakarov T.I., Xasanov A.S. Foydali qazilmalarni boyitish va qayta ishlash asoslari: Oliy o’quv yurtlari uchun darslik. - Toshkent: "Muharrir" nashriyoti, 2025. - 652 b.

2. AGMK MOF-3 gidrotransport tizimidagi abraziv yemirilish: sabablari va futerovka tanlovi. Ichki ilmiy-texnik maqola.

3. Marasulov M.S. Maydalash sifati va gidrotransport tizimlarining abraziv yemirilishi: boyitish fabrikalari misolida texnologik-iqtisodiy tahlil. Ichki ilmiy-texnik maqola.

4. Amaliyskiy GMK reagent rejimi va ruda tarkibi tahlili // Молодой учёный. — 2019. № 286.

5. Wang D., Ju F., Xu J., Xiao M., Ning P., Wang T. Effect of particle properties on erosion in slurry transport pipeline: Velocity, size, mass flow rate and shape // Minerals Engineering. 2025. Art. 109550. DOI: 10.1016/j.mineng.2025.109550.

6. Durand R., Condolios E. Etude experimentale du refoulement des matériaux en conduite. Deuxieme Journée de l'Hydraulique, 1952.

7. Svoboda J. Magnetic Techniques for the Treatment of Materials. Kluwer Academic Publishers, 2004.

8. Пелевин А.Е. Магнитные и электрические методы обогащения: учебник. Екатеринбург, 2018.

9. Statsionar magnitli ushlagichlarning konchilik korxonalaridagi sanoat samaradorligi bo’yicha hisobot // North American Mining Magazine. 2026-05-15.

10. AGMK MOF-3 TMЦ (ehtiyot qism sarfi) bo'yicha ichki hisobot: Warman 450 MCR450 nasosi va MШЦ-7,3×13 tegirmoni futerovkasi xizmat muddatlari. Zavodning imzolangan ichki hujjati, 2026.

AGMK MOF-3: 12 TA SHARLI TEGIRMONTNING STATSIONAR MAGNITLI USHLAGICH ORQALI PO‘LAT PARCHA VA MINERAL YO‘QOTISHNI TIZIMLI NAZORAT QILISH

Marasulov Murodjon Soyibjon o‘g‘li
Tayanch doktorantura

Annotatsiya: *AGMK MOF-3 ning 12 ta МШЦ-7,3×13 sharli tegirmonida singan po’lat shar parchalari hozircha butara ichida ushlanmasdan, yirik jinsli chiqindi bilan birga gidrotransport tizimiga chiqarib yuboriladi va u yerda abraziv yemirilishga sabab bo’ladi. Ishda har bir tegirmon butarasiga o’rnatiladigan statsionar magnitli ushlagichning natijalari alohida tegirmon emas, balki barcha 12 ta tegirmon miqyosida baholanadi: yillik ushlanadigan po’lat parchalar massasi hisoblanadi hamda parchaga yopishgan pulpa pardasi (Landau-Levich qonuni) orqali chiqib ketadigan mis, oltin va molibden zarralarining tizimli, ko’p martalik ta’siri tahlil qilinadi. Natijalarga ko’ra, bitta parchada ahamiyatsiz bo’lgan mineral yo’qotish 12 ta tegirmonning uzluksiz ishlashi sharoitida tizimli nazorat va qaytarish protokolini talab qiladi.*

Kalit so’zlar: *statsionar magnitli ushlagich, sharli tegirmon, po’lat parcha, abraziv yemirilish, Landau-Levich qonuni, mineral yoqotish, AGMK MOF-3.*

AGMK MOF-3 boyitish fabrikasida ruda yanchish 12 ta МШЦ-7,3×13 sharli tegirmonda amalga oshiriladi; ushbu tegirmonlar kontasining umumiy ishlov berish unumdorligi 730 t/soatni tashkil etadi [4]. Yanchish vositasi bo’lgan po'lat sharlar ishqalanish va zarba ta’sirida qisman singadi; hosil bo’ladigan o’tkir qirrali parchalar hozirgi konstruksiyada hech qanday ajratishsiz butaraning shneki orqali yirik jinsli chiqindi bilan birga tashqariga chiqariladi. Bu parchalar keyin gidrotransport tizimi (nasos, gidrosiklon) orqali oqib, ularning abraziv ta’sirida asosiy uskunalar muddatidan oldin yemiriladi masalan, zumf, gidrosiklon konturidagi nasosning ishchi g’ildiragi rasmiy hisobotga ko’ra atigi 4500 soat xizmat qiladi.

Bitta tegirmon uchun butaraning ko’r (elaksiz) zonasiga o’rnatiladigan statsionar magnitli ushlagich konstruksiyasi taklif etilib, uning 1-30 mm oralig’idagi parchalarni ≥ 1,3 zaxira koeffitsienti bilan ushlay olishi hisob-kitoblar asosida asoslanadi. Shu

ishning davomida, ushlangan parchaning yuzasidagi pulpa pardasi orqali chiqib ketadigan qimmatbaho komponentlar (Cu, Au, Mo) miqdori Landau-Levich parda qalinligi qonuni [2] va AGMK rudasining tasdiqlangan tarkibi [3] asosida hisoblanadi: 30 mm parcha uchun h - 0,41 mm, Cu - 6,6 mg, Au - 1,65 μg, Mo - 66 μg bitta parcha darajasida statistik jihatdan ahamiyatsiz natija. Biroq bu baho faqat bitta parcha va bitta tegirmonga tegishli bo’lib, MOF-3da bir vaqtning o’zida ishlaydigan 12 ta tegirmonning yig’indi, uzluksiz ta'siri hali baholanmagan mazkur tezisning maqsadi shu bo’shliqni to’ldirishdir. Shunga o’xshash holat NGMK ning bir zavodida ham kuzatiladi: u yerda gravitatsion konsentratni tozalovchi alohida magnitli separator ishlatiladi, uning tarkibida qimmatbaho metall borligi mustaqil tadqiqotda tasdiqlangan [5] - biroq bu bizning butara ichidagi statsionar ushlagichdan farqli, alohida uskunadir.

Yillik po’lat parchalar miqdorini baholash uchun sanoatda qabul qilingan solishtirma shar sarfi ko’rsatkichi (0,5-2,5 kg/t ruda, o’rtacha - 1,5 kg/t) [1] va tegirmonlarning umumiy ishlov berish unumdorligi (730 t/soat) [4] asos qilib olindi. Hisob natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

Ko'rsatkich	Qiymat
Solishtirma shar sarfi (o’rtacha)	1,5 kg/t (oraliq: 0,5-2,5)
Tegirmonlar kontasining unumdorligi (12 ta, birgalikda)	730 t/soat
Umumiy po’lat sarfi	1,1 t/soat (oraliq: 0,37-1,83)
Yillik po’lat sarfi (330 ish kuni)	8670 t/yil (oraliq: 2 890-14 450)

1-jadval. Yillik po’lat sarfini baholash natijalari (12 ta tegirmon, birgalikda)

Ushbu 8670 t/yilga yaqin ko’rsatkich tegirmonlarda yeyilgan va singan po’latning umumiy massasining nazariy yuqori chegarasidir, uning qaysi ulushi magnit ushlay oladigan yirik (1-30 mm) parcha shaklida chiqishi, qanchasi esa mayda yemirilish changi sifatida yo’qolishi hozircha aniqlanmagan va alohida o’lchov talab qiladi. Shunga qaramay, hatto konservativ ulush olinganda ham, 12 ta tegirmonda kuniga-yiliga takroran hosil bo’ladigan yirik parchalar soni bitta hodisa emas, balki tizimli jarayonni tashkil etadi. Shu sababli avvalgi ishda «ahamiyatsiz» deb baholangan mineral yo’qotishni bir martalik emas, yig’indi holda ko’rib chiqish to’g’riroqdir.

Bundan tashqari, ba’zi hollarda po’lat parchaning yuzasida shunchaki yupqa pulpa pardasi emas, balki zarba paytida jinsga qisman qotib qolgan yoki po’latga payvandlanib ketgan mayda mineral zarralar ham uchrashi mumkin bu Landau-Levich mexanizmidan farqli, mustaqil fizik hodisa bo’lib, hozircha faqat gipoteza darajasida

qoladi. Uni tasdiqlash yoki rad etish uchun ushlangan namunalarni mineralogik tahlil (optik mikroskopiya, EDS-analiz) qilish talab etiladi, bu keyingi tadqiqot bosqichining mustaqil vazifasidir.

Taklif etilayotgan tizim har bir tegirmon butarasining ko’r zonasiga o’rnatiladigan statsionar magnitli ushlagichdan iborat bo’lib, uch bosqichni o’z ichiga oladi:

➢ Ushlash: NdFeB va ferrit gibrid magnit sektori (dugasi 200°) parchani devorda ushlab turadi, kichikroq ruda zarralari esa butaraning shneki orqali erkin o’tadi.

➢ Yuvish: ushlangan parcha yig’ish novidan chiqarilishidan oldin purkash orqali yuviladi yuzasidagi pulpa pardasi va undagi mineral zarralar asosiy pulpa oqimiga qaytariladi.

➢ Qayta ishlash: tozalangan po’lat qismi alohida yig’ilib, davriy ravishda qayta eritish korxonalariga xomashyo sifatida topshiriladi.



1-rasm. AGMK MOF-3, МШЦ-7,3×13 sharli tegirmonining butara (elaksiz ko’r zonasi va shnek spirali) qismi - real montaj fotosurati

Ko'rsatkich	Hozirgi holat	Statsionar magnitli ushlagich bilan
Po’lat parchaning yo'nalishi	Butara spirali orqali chiqindi bilan birga chiqadi	Butara ichida, ko’r zonada ushlanadi
Po’lat parchalarining qaytarilishi	Yo’q	Ha yiliga tonnalab (taxminiy, 1-jadval)

Ko'rsatkich	Hozirgi holat	Statsionar magnitli ushlagich bilan
Mineral zarralar (Cu, Au, Mo) taqdiri	Nazoratsiz, parcha bilan birga chiqib ketadi	Yuvish orqali asosiy pulpa oqimiga qaytariladi
Gidrotransport abraziv yemirilishi	Davom etadi	Manba kamayadi, uskuna resursi uzayadi

2-jadval. Hozirgi holat va statsionar magnitli ushlagich joriy etilgandan keyingi holatning taqqoslanishi

Kutilayotgan natijalar:

1. Abraziv yemirilishning kamayishi: yirik po’lat parchalarining gidrotransport tizimiga tushishi oldini olinadi, nasos va gidrosiklon futerovkasining xizmat muddati uzayadi.

2. Po’lat parchalarining qayta ishlanishi: 12 ta tegirmon miqyosida yiliga bir necha ming tonnagacha po’lat parcha qayta ishlashga yo’naltiriladi (aniq ulush kelgusi tadqiqot mavzusi).

3. Mineral yo'qotishning tizimli nazorati: yuvish protokoli orqali Cu, Au, Mo zarralari asosiy oqimga qaytariladi bitta parchada ahamiyatsiz bo’lgan miqdor 12 tegirmon miqyosida boshqaruvga olinadi.

Xulosa qilib aytganda, AGMK MOF-3ning 12 ta sharli tegirmonida statsionar magnitli ushlagichni joriy etish nafaqat gidrotransport tizimidagi abraziv yemirilishni kamaytiradi, balki ushlangan po’lat parchalar va ularga yopishgan mineral zarralarni tizimli ravishda qaytarish orqali qo’shimcha, hozircha aniq miqdorda baholanmagan, ammo prinsipial jihatdan asosli iqtisodiy samara beradi. Yiliga hosil bo’ladigan yirik parcha sonini o’lchash va parchaning ichida yopishmagan, balki jinsga singib qolgan mineral mavjudligini tekshirish keyingi tadqiqotning ustuvor yo’nalishlaridan biridir.

Adabiyotlar ro’ yxati

1. Shakarov T.I, Xasanov A.S. Foydali qazilmalarni boyitish va qayta ishlash asoslari: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. - Toshkent: «Muharrir» nashriyoti, 2025. - 652 b.

2. Landau L.D., Levich B.V. Dragging of a liquid by a moving plate // Acta Physicochimica U.R.S.S. - 1942. - Vol. 17, № 1-2. - P. 42-54.

3. Туракулов Ж.Х., Маматкаримов Ж.Р. угли, Парпибоев У.А., Ахмадалиев А.М., Хамидуллайев О.А. угли. Изменения реагентного режима флотации медно-молибденовых руд на медной обогатительной фабрике на

примере Амалыкского горно-металлургического комбината // Молодой учёный. - 2019. - № 48 (286). - С. 68–74.

4. «AGMK» AJ. MOF-3 - Схема цепи аппаратов МОФ-3: texnologik reglament sxemasi (korxona ichki hujjati), 2026.

5. Нормуротов Р.И. Разработка хлоридной технологии извлечения золота и серебра из магнитной фракции: дисс. … канд. техн. наук. - М.: МИСиС, 2010.

TEMPORAL AND MULTIMODAL BEHAVIORAL ANALYSIS FOR IMPROVING REAL-TIME VIDEO DETECTION

Mingturayeva Dildora

Annotatsiya. *Ushbu tezis real vaqt rejimidagi videoaniqlash tizimlarida inson xatti-harakatlarini temporal va multimodal tahlil qilish yondashuvlarini ko‘rib chiqadi. Zamonaviy tadqiqotlarda harakatlarni vaqt bo‘yicha aniqlash, inson tana holatini baholash, yuz xatti-harakatlarini tahlil qilish, videodagi hissiy holatlarni aniqlash va turli ma’lumotlarni birlashtirish uchun chuqur o‘rganish usullaridan keng foydalanilmoqda. Bitta kadrga asoslangan tahlil xatti-harakatning vaqt davomida rivojlanishini to‘liq ifodalamaydi; temporal modellashtirish ketma-ket kadrlar orasidagi bog‘liqlikni, multimodal tahlil esa yuz, tana va harakat kabi o‘zaro to‘ldiruvchi belgilarni birgalikda hisobga oladi. Tezisda mavjud yondashuvlar tahlil qilinadi hamda real vaqt rejimida ishlovchi video tizimlarida xatti-harakat belgilarini vaqt bo‘yicha va ko‘p modalli tarzda ifodalashga asoslangan konseptual sxema taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *real vaqt rejimidagi videoaniqlash, xatti-harakatlar tahlili, vaqt bo‘yicha tahlil, ko‘p modalli tahlil, kompyuter ko‘rishi, sun’iy intellekt, inson harakatlarini tanib olish.*

Аннотация. *В тезисе рассматриваются подходы к временному и мультимодальному анализу поведения человека, направленные на повышение надежности систем видеоаналитики в реальном времени. Современные исследования широко используют методы глубокого обучения для обнаружения действий во временной последовательности, оценки позы человека, анализа мимики, распознавания эмоций и объединения взаимодополняющих признаков различных модальностей. Анализ отдельного кадра не всегда позволяет отразить развитие поведения во времени, тогда как временное моделирование учитывает последовательность кадров и изменения поведенческих признаков. Мультимодальный анализ позволяет совместно использовать взаимодополняющие признаки лица, позы и движения. В тезисе рассматриваются современные методы и предлагается концептуальная схема временного и мультимодального представления поведенческих признаков.*

Ключевые слова: *видеоаналитика реального времени, анализ поведения, временной анализ, мультимодальный анализ, компьютерное зрение, искусственный интеллект, распознавание действий.*

Abstract. *This thesis examines temporal and multimodal behavioral analysis approaches for improving real-time video detection systems. Recent studies use deep learning, temporal action detection, human pose estimation, facial behavior analysis, video emotion recognition, and multimodal fusion for understanding human actions. Frame-level analysis may fail to represent how behavior develops over time, whereas temporal modeling captures dependencies across observations. Multimodal analysis allows complementary cues, including facial appearance, body pose, and motion, to be represented jointly. This thesis reviews these approaches and proposes a conceptual framework in which behavioral features are extracted from video, represented temporally, fused across modalities, and used for a final behavioral decision. The framework provides a methodological basis for subsequent experimental research on reliable real-time video detection.*

Keywords: *real-time video detection, behavioral analysis, temporal analysis, multimodal analysis, computer vision, artificial intelligence, human action recognition.*

1. INTRODUCTION

Real-time video analytics has developed rapidly with advances in computer vision and deep learning. Modern systems can detect people, recognize actions, estimate human pose, and analyze facial or emotional behavior. Human action recognition is applied in surveillance, human-computer interaction, robotics, healthcare, and anomaly detection [1,3,4]. However, continuous video interpretation is more difficult than classifying isolated images.

A key limitation of frame-level analysis is that one frame describes only a moment. Many behaviors are defined by change, duration, repetition, or transition. Temporal action detection therefore identifies action intervals in untrimmed video and explicitly models their temporal structure [1,2]. Multimodal analysis provides a second complementary direction by combining facial, pose, motion, audio, or other signals [7–10].

2. EXISTING RESEARCH

2.1. Visual behavioral analysis and action recognition

Human action recognition transforms video into visual representations and classifies activities. Recent work describes a progression from conventional approaches to CNN-, RNN-, and Transformer-based architectures [3]. For continuous video,

temporal action detection includes anchor-based, boundary-based, and query-based approaches, as well as fully supervised, weakly supervised, and unsupervised learning [2]. These methods demonstrate that temporal localization is distinct from frame-level classification.

2.2. Facial behavior

Facial behavior can be represented through landmarks, local features, and Facial Action Units. Recent work surveys machine and deep learning methods for facial expression and Action Unit recognition [6]. CNN and attention-based models can learn visual patterns, but facial signals remain context-dependent and should be interpreted as one component of broader behavior.

2.3. Body pose and motion

Human pose estimation converts video into structured body-joint representations useful for action recognition. Recent surveys identify depth ambiguity, occlusion, data scarcity, and computational cost as important challenges [4,5]. Pose and motion can complement facial features by describing body configuration and movement dynamics over time.

2.4. Temporal behavior modelling

Temporal modeling represents dependencies across frames. RNNs, temporal convolutional methods, attention mechanisms, and Transformers have been used to model short- and long-range temporal relationships [1–3]. Conceptually, frame-level analysis asks 'what is visible now?', whereas temporal analysis asks 'how does the behavior develop over time?' This distinction is important when isolated observations are ambiguous.

2.5. Multimodal fusion

Multimodal fusion combines complementary information from different sources. Reviews describe early, intermediate, and late fusion strategies and emphasize the importance of synchronization, modality quality, and learned representations [8–10]. For video behavior analysis, face, pose, and motion may be treated as complementary components of one behavioral representation.

3. PROPOSED CONCEPTUAL FRAMEWORK

Based on the reviewed literature, a conceptual framework for real-time behavioral video analysis is proposed:

Video stream → Human detection → Behavioral feature extraction → Temporal representation → Multimodal fusion → Behavioral pattern detection → Decision

Behavioral feature extraction includes facial, pose, and motion representations. These features are organized as sequences so that order, duration, repetition, and

transition can be modeled. Multimodal fusion then integrates the complementary representations before a behavioral decision. The exact fusion strategy should be selected empirically because early, intermediate, and late fusion have different computational and representational properties [8–10].

The framework is conceptual and does not claim experimentally validated gains. Its purpose is to define a coherent methodological basis for subsequent algorithm development and evaluation.

4. CHALLENGES AND EVALUATION

Real-time temporal and multimodal analysis faces several practical challenges: individual variability, occlusion, illumination, camera angle, noisy data, temporal complexity, computational cost, dataset bias, and annotation limitations. Video emotion surveys also identify synchronization, generalization, interpretability, and dataset bias as persistent problems [7,9,10]. Pose-estimation reviews emphasize occlusion and data scarcity [4,5].

Evaluation should therefore go beyond a single accuracy value. A future experimental comparison should include: (1) a frame-level or single-modal baseline; (2) a temporal model; (3) a multimodal model; and (4) a temporal-plus-multimodal model. Precision, recall, F1-score, false-positive rate, and inference time are particularly relevant. False-alarm reduction is reserved for the subsequent scientific article and the wider PhD study; at the thesis stage, the contribution is the methodological framework and evaluation logic.

5. CONCLUSION

The literature demonstrates substantial progress in temporal action detection, human pose estimation, facial behavior analysis, video emotion recognition, and multimodal fusion [1–10]. These areas provide complementary components for continuous behavioral video analysis: temporal modeling captures how behavior develops, while multimodal fusion integrates facial, pose, and motion information.

The proposed framework organizes these components into a sequence from video input and behavioral feature extraction to temporal representation, multimodal fusion, and behavioral decision. It provides a methodological basis for subsequent experimental research on reliable real-time video detection and, at a later stage, false-alarm reduction.

REFERENCES

1. Vahdani E., Tian Y. Deep Learning-Based Action Detection in Untrimmed Videos: A Survey // IEEE Transactions on Pattern Analysis and Machine

Intelligence. — 2023. — Vol. 45, № 4. — P. 4302–4320. DOI: 10.1109/TPAMI.2022.3193611.

2. Hu K. et al. Overview of temporal action detection based on deep learning // Artificial Intelligence Review. — 2024. DOI: 10.1007/s10462-023-10650-w.

3. Alomar K., Aysel H. I., Cai X. CNNs, RNNs and Transformers in human action recognition: a survey and a hybrid model // Artificial Intelligence Review. — 2025. — Vol. 58. — 387. DOI: 10.1007/s10462-025-11388-3.

4. Liu Y., Qiu C., Zhang Z. Deep learning for 3D human pose estimation and mesh recovery: A survey // Neurocomputing. — 2024. — Vol. 596. — 128049. DOI: 10.1016/j.neucom.2024.128049.

5. Neupane R. B., Li K., Boka T. F. A survey on deep 3D human pose estimation // Artificial Intelligence Review. — 2025. — Vol. 58. — 24. DOI: 10.1007/s10462-024-11019-3.

6. Priego M. et al. Machine and deep learning in facial expression recognition: a survey based on facial action units // Scientific Reports. — 2026. — Vol. 16. — 28377. DOI: 10.1038/s41598-026-53853-1.

7. Hallur S., Gavade A. B., Gavade P. A survey on video emotion recognition: Segmentation, classification, and explainable AI techniques // Signal Processing: Image Communication. — 2025. — Vol. 141. — 117442. DOI: 10.1016/j.image.2025.117442.

8. Aruna G. et al. Survey on multimodal approaches to emotion recognition // Neurocomputing. — 2023. — Vol. 556. — 126693. DOI: 10.1016/j.neucom.2023.126693.

9. Geetha A. V., Mala T., Priyanka D., Uma E. Multimodal Emotion Recognition with Deep Learning: Advancements, challenges, and future directions // Information Fusion. — 2024. — Vol. 105. — 102218. DOI: 10.1016/j.inffus.2023.102218.

10. Hallur S., Gavade A. Video emotion analysis: Segmentation, classification, and explainability techniques in review // The Franklin Open. — 2026. — Vol. 15. — 100604. DOI: 10.1016/j.fraope.2026.100604.

GAZLARNI QURITISH USULLARI VA GLIKOLLI ABSORBSIYANING TEXNOLOGIK O‘RNI

Xamrokulova Gulnoza Odiljon qizi
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Annotatsiya. *Maqolada tabiiy va texnologik gazlarni quritishning sovitib kondensatsiyalash, qattiq adsorbentlar, suyuq glikollar, delikvessent tuzlar, membrana va gibrid jarayonlari yagona mezonlar bo'yicha qiyoslandi. Baholash mezonlari quruq gazning talab etilgan suv shudring nuqtasi, gaz sarfi, bosim, uglevodorod tarkibi, jarayonning uzluksizligi, regeneratsiya energiyasi, absorbent yoki adsorbent yo'qotilishi va ekologik xavfdan iborat. Tahlil shuni ko'rsatdiki, molekulyar elaklar LNG va kriogen jarayonlar oldidan o'ta chuqur quritishda ustun, membranalar ixcham va modulli, sovitish esa dastlabki suv yukini kamaytirishda samarali.*

Kalit so'zlar: *tabiiy gaz, quritish, suv shudring nuqtasi, TEG, glikolli absorbsiya, adsorbsiya.*

Аннотация. *Сопоставлены охлаждение и конденсация, адсорбция, гликолевая абсорбция, деликвесцентные соли, мембранные и гибридные процессы осушки газа. Молекулярные сита предпочтительны для сверхглубокой осушки перед криогенными процессами, а ТЭГ обеспечивает наиболее сбалансированное непрерывное решение для средних и крупных потоков при требованиях трубопроводного транспорта. Ограничения ТЭГ связаны с пенообразованием, коррозией, уносом, поглощением BTEX и деградацией в ребойлере; предложены меры их технологического контроля.*

Ключевые слова: *природный газ, осушка, точка росы, триэтиленгликоль, абсорбция, адсорбция, мембрана, регенерация.*

Abstract. *Cooling-condensation, solid adsorption, glycol absorption, deliquescent salts, membranes and hybrid gas-dehydration routes are compared using product dew point, throughput, pressure, continuity, regeneration duty, material losses and environmental risk. Molecular sieves remain preferable for ultra-deep drying upstream of cryogenic processing, whereas TEG absorption is the most balanced continuous option for medium-to-large pipeline gas streams. Foaming, corrosion, BTEX*

absorption, thermal degradation and glycol carryover define its operating limits and monitoring requirements.

Keywords: *natural gas, dehydration, water dew point, triethylene glycol, absorption, adsorption, membrane, regeneration*.

Kirish

Gaz oqimidagi suv bug'i bosim va harorat o'zgarganda kondensatlanadi, gidrat kristallari hosil qiladi hamda CO_2 yoki H_2S ishtirokida elektrolit muhit yaratib korroziyani tezlashtiradi. Namlik quvur o'tkazuvchanligini, kompressor va armatura ishonchliligini hamda suyultirish jarayonining sovuq bloklarini bevosita cheklaydi. Shu sababli gaz quritish chuqurligi 'eng past shudring nuqtasi' bo'yicha emas, keyingi texnologik bosqich talabiga mos va iqtisodiy asoslangan darajada tanlanishi kerak.

Amaliyotda bir xil gaz uchun turli usullar texnik jihatdan ishlashi mumkin, biroq ularning energiya, uzluksizlik va ifloslanishga sezgirligi keskin farq qiladi. Maqolaning maqsadi asosiy quritish usullarini qiyoslash, glikolli absorbsiyaning qo'llanish chegarasini aniqlash va TEG konturini barqaror ishlatish uchun nazorat mezonlarini shakllantirishdan iborat.

Muammoning dolzarbligi gaz tarkibi va ishlab chiqarish rejimining doimiy emasligi bilan kuchayadi. Quduq yoki kon hayot sikli davomida bosim, suv-gaz nisbati, kondensat miqdori va nordon komponentlar ulushi o'zgaradi. Bir marta tanlangan quritish usuli keyinchalik ortiqcha energiya sarflashi yoki chiqish spetsifikatsiyasini ta'minlamasligi mumkin. Shuning uchun texnologiya tanlashda nominal loyihaviy nuqta bilan birga minimal va maksimal yuklama, ishga tushirish, turndown, regeneratsiya va avariya rejimlari ham ko'rib chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, so'nggi ishlarda TEG qurilmalarining termodinamik modeli va energiya optimallashtirilishi ancha rivojlangan [2, 5-9]. Biroq usul tanlash haqidagi qaror faqat hisobiy minimal energiyaga asoslanmasligi kerak. Molekulyar elakda yotoqning breakthrough va changlanishi, membranada permeat bilan uglevodorod yo'qotilishi, TEGda esa ko'pik, korroziya va uchuvchan organik birikmalarni yutish kabi operatsion tavakkallar yakuniy bahoga kiritilishi zarur.

1. Tadqiqot metodikasi va tanlash mezonlari

Qiyosiy tahlilda 2020-2025-yillardagi TEG-suv-gaz muvozanati, metanning glikolda eruvchanligi, regeneratsiyani intensivlashtirish, jarayon optimallashtirish va glikol barqarorligi bo'yicha tajribaviy hamda hisobiy ishlar umumlashtirildi [2-12]. Quritish usullari besh guruh mezonida baholandi: mahsulot sifati; gaz sarfi va yuklama diapazoni; kapital va energiya sig'imi; ifloslantiruvchilarga chidamlilik; absorbent yoki

adsorbentning qayta tiklanishi. Suv shudring nuqtasi ISO 6327 talabiga muvofiq bosim ko'rsatilgan holda talqin qilinishi kerak [1].

Usulning maqbulligi kirish namligiga emas, chiqishdagi ruxsat etilgan suv miqdori va keyingi jarayon tavakkaliga bog'liq. Quvur transporti uchun yetarli bo'lgan quritish LNG yoki past haroratli NGL ajratish oldidan yetarli bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun quyidagi jadvaldagi 'quritish chuqurligi' mutlaq son emas, usullarni nisbiy texnologik joylashtirish mezonidir.

1-jadval. Gazlarni quritish usullarining texnologik qiyosi

Usul	Asosiy mexanizm	Maqbul qo‘llanish sohasi	Ustun tomoni	Asosiy cheklov
Sovitish va kondensatsiya	Harorat pasayganda suvning kondensatsiyasi	Dastlabki yukni kamaytirish; yuqori bosimli oqim	Oddiy va bir vaqtning o‘zida og‘ir uglevodorodlarni ajratadi	Chuqur quritish cheklangan; sovitish energiyasi
Delikvessent tuzlar	Suvni yutib konsentrlangan eritma hosil qilish	Kichik, uzoqdagi va davriy obyektlar	Apparat sodda, harakatlanuvchi qismlar kam	Reagent sarfi va sho‘r chiqindi; nazorat aniqligi past
Glikolli absorbsiya	Suv bug‘ining TEG suyuq fazasiga o‘tishi	O‘rta va katta uzluksiz quvur gaz oqimlari	Regeneratsiya lanadi, yuklamaga moslashadi, sanoatda sinalgan	Ko‘pik, korroziya, BTEX, olib ketilish va reboiler energiyasi

Sovitish usuli odatda mustaqil yakuniy yechimdan ko'ra oldindan ajratish bosqichi sifatida foydaliroq: u kontaktor yoki adsorberga tushadigan suv va suyuq uglevodorod yukini kamaytiradi. Delikvessent quritgichlar kichik obyektlarda sodda bo'lsa-da, tuz sarfi va chiqindi eritma ularni katta oqimlarda cheklaydi. Membranalar maydon kam bo'lgan obyektlarda jozibador, ammo permeat bilan metan yo'qotilishi hamda kompressiya bosimini baholash shart.

2. Glikolli absorbsiyaning fizik-kimyoviy asoslari

Glikolli quritishda suv bug'i gazdan suyuq absorbentga kimyoviy reaksiyasiz, muvozanat va massa uzatish harakatlantiruvchi kuchi ta'sirida o'tadi. Absorberdagi elementar oqim uchun ajratilgan suv massasi $m_s = Qg(Ykir - Ychiq)$, suyuq fazaga o'tish tezligi esa $N_v = KGa(y - y^*)$ ko'rinishida ifodalanadi. Bu yerda Qg - quruq gaz sarfi;

Ykir va Ychiq - gazning kirish va chiqish suv miqdori; KGa - hajmiy massa uzatish koeffitsienti; y - gazdagi haqiqiy, y* esa glikol bilan muvozanatdagi suv ulushidir. Qashshoq TEG konsentratsiyasi oshganda y* kamayadi va quritish harakatlantiruvchi kuchi ortadi.

2-jadval. Sanoat glikollarining quritish jarayonidagi qiyosiy o‘rni

Glikol	Normal qaynash harorati, taxminan °C	Ekspluatatsion tavsif	Quritishdagi o‘rni
MEG	197	Uchuvchanligi yuqoriroq, qovushqoqligi pastroq	Gidrat ingibitori va ayrim maxsus konturlar; bug‘lanish yo‘qotilishi yuqori
DEG	245	MEG va TEG oralig‘idagi xossa	Tarixiy va cheklangan quritish qurilmalari
TEG	285-287	Past bug‘ bosimi, yetarli gigroskopiklik va boshqariladigan qovushqoqlik	Quvur gazini uzluksiz quritish uchun asosiy sanoat absorbenti

Izoh: qaynash haroratlari modda tozaligi va bosimga bog'liq; ular apparatni loyihalash uchun emas, glikollarni qiyosiy joylashtirish uchun keltirilgan. TEGning ustunligi faqat yuqori qaynash haroratida emas, suv yutish, massa uzatish, nasoslash, regeneratsiya va yo'qotishlarning umumiy muvozanatidadir [12].

1-rasm. TEGli absorbsiya va regeneratsiyaning yopiq texnologik konturi



Absorberda nam gaz qashshoq TEG bilan qarama-qarshi oqimda kontaktlanadi. Boy glikol flash-idish, mexanik va faol ko'mir filtrlari hamda issiqlik almashtirgichdan o'tib regeneratorga keladi. Reboiler suvni bug'latadi, qashshoq TEG esa sovitilib absorberga qaytariladi. Shu yopiq aylanish TEG sarfini cheklaydi, biroq sirkulyatsion

ifloslantiruvchilarni ham tizimda to'plashi mumkin; filtratsiya va davriy reclaimer shuning uchun jarayonning ajralmas qismidir.

Absorber samaradorligi glikol va gaz harorati, kontakt bosqichlari, L/G nisbati, tarelka yoki nasadka namlanishi hamda ko'pik bilan belgilanadi. Qashshoq TEG haddan tashqari issiq bo'lsa muvozanat yomonlashadi, juda sovuq bo'lsa og'ir uglevodorodlar kondensatsiyasi va ko'pik xavfi oshishi mumkin. Shu bois TEG harorati kirish gaziga nisbatan boshqariladigan kichik farqda ushlanadi; aniq qiymat gaz tarkibi va bosim bo'yicha pilot yoki termodinamik hisob bilan belgilanadi.

Xulosa

Gazlarni quritish usullarining hech biri barcha obyektlar uchun universal emas. Sovitish va separatsiya dastlabki yukni kamaytiradi, delikvessent tuzlar kichik obyektlarda sodda, membranalar ixcham, molekulyar elaklar esa o‘ta chuqur quritishda ustun. TEGli absorbsiya o‘rta va katta gaz sarflarida quvur sifatiga erishish uchun uzluksizlik, qayta regeneratsiya, yuklamaga moslashuvchanlik va sanoat tajribasining eng muvozanatli birikmasini beradi. Uning samaradorligi qashshoq TEG konsentratsiyasi va L/G nisbatinigina oshirish bilan emas, kirish separatsiyasi, flash-gazni qaytarish, ikki bosqichli filtratsiya, issiqlik integratsiyasi va degradatsiya-ko‘pik-korroziya nazorati bilan ta’minlanadi. LNG yoki juda past suv spetsifikatsiyasida TEG molekulyar elak oldidagi yukni kamaytiruvchi bosqich sifatida ishlatilishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. ISO 6327:1981. Gas analysis - Determination of the water dew point of natural gas - Cooled surface condensation hygrometers. Reconfirmed 2024.

2. Qvistgaard D., Trancoso J., Solbraa E. va boshq. Multicomponent vapor-liquid equilibrium measurements and modeling of TEG, water and natural gas mixtures at 6.0, 9.0 and 12.5 MPa. Fluid Phase Equilibria. 2023;565:113660. DOI: 10.1016/j.fluid.2022.113660.

3. Rasoolzadeh A., Raeissi S., Shariati A., Peters C.J. Experimental measurement and thermodynamic modeling of methane solubility in TEG within 343.16-444.95 K. Journal of Chemical & Engineering Data. 2020. DOI: 10.1021/acs.jced.0c00198.

4. Lotfi Z., Keshavarz P. High-efficiency water vapor absorption by tri-ethylene glycol combined with methyldiethanolamine. Separation and Purification Technology. 2021;270:118841. DOI: 10.1016/j.seppur.2021.118841.

5. Chen W.-C., You X.-G., Liu P. va boshq. Enhanced regeneration of TEG solution by rotating packed bed for offshore natural gas dehydration. Chemical Engineering and Processing. 2021;168:108562. DOI: 10.1016/j.cep.2021.108562.

6. Liu G., Zhu L., Hong J., Liu H. Technical, economical, and environmental performance assessment of an improved TEG dehydration process for shale gas. ACS Omega. 2022;7:1861-1873. DOI: 10.1021/acsomega.1c05236.

7. Mukherjee R., Diwekar U.M. Optimizing TEG dehydration process under metamodel uncertainty. Energies. 2021;14:6177. DOI: 10.3390/en14196177.

ministration. 2023.

KOMPOZITSION GLIKOLNI QO‘LLASH TEXNOLOGIYASI VA TEXNIK IQTISODIY SAMARADORLIK

Xamrokulova Gulnoza Odiljon qizi
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Annotatsiya. *Maqolada tabiiy gazni trietilenglikol bilan quritish qurilmasida kompozitsion absorbentni tayyorlash, dozalash, filtrlash, regeneratsiya qilish va qayta aylantirishning yaxlit texnologik yechimi ishlab chiqildi. Taklif etilgan yondashuv TEGning suv yutish qobiliyatini alohida oshirish bilan cheklanmay, ko'piklanish, korroziya, termik-oksidlanish degradatsiyasi, glikol olib ketilishi va reboiler energiyasini bir vaqtda nazorat qiladi. 2021-2025-yillarda e'lon qilingan tajriba ishlari tahlili qo'ndirmalarni moslik sinovisiz birlashtirish xavfli ekanini ko'rsatdi: 50 sikldan keyin korroziya ingibitori va ko'pik so'ndirgichning 1:1 aralashmasida ko'pik balandligi 37 mm va so'nish vaqti 7,9 s bo'lgan. Namunaviy sanoat ssenariysida TEG sirkulyatsiyasini 10 %, reboiler energiyasini 8 % va make-up sarfini 15 % kamaytirish natijasida yillik sof samara 148,3 mln so'm, kapital qo'yilmaning oddiy qoplanish muddati 1,65 yil deb hisoblandi. Qiymatlar korxona dalolatnomasi emas, aniq ko'rsatilgan hisobiy shartlar asosidagi texnik-iqtisodiy ssenariydir.*

Kalit so'zlar: *tabiiy gaz, trietilenglikol, kompozitsion glikol, absorbsiya, regeneratsiya, ko'piklanish, korroziya, energiya sarfi, texnik-iqtisodiy samaradorlik.*

Аннотация. *Разработана технологическая схема приготовления, дозирования, фильтрации, регенерации и циркуляции композиционного абсорбента на основе ТЭГ. Решение объединяет контроль влаги, пенообразования, коррозии, деградации, уноса гликоля и тепловой нагрузки ребойлера. Анализ реальных 50-цикловых испытаний показал необходимость проверки совместимости присадок. Для расчетного промышленного сценария получен чистый годовой эффект 148,3 млн сум и простой срок окупаемости 1,65 года. Экономические показатели являются результатом сценарного расчета, а не производственным актом.*

Ключевые слова: *природный газ, триэтиленгликоль, композиционный абсорбент, регенерация, пенообразование, коррозия, экономическая эффективность.*

Abstract. *An integrated technology is proposed for preparation, dosing, filtration, regeneration and recycle of a TEG-based composite absorbent. The approach jointly controls water removal, foaming, corrosion, degradation, glycol carryover and reboiler duty. Published 50-cycle tests demonstrate that additives must be screened for compatibility. Under an explicitly defined industrial calculation scenario, the annual net benefit is 148.3 million UZS and the simple payback period is 1.65 years. These economic figures are scenario estimates rather than plant-certified results.*

Keywords: *natural gas, triethylene glycol, composite glycol, absorption, regeneration, foaming, corrosion, techno-economic efficiency.*

Kirish

Tabiiy gaz tarkibidagi suv bug'i gidrat hosil bo'lishi, quvurlarda korroziya va mahsulot spetsifikatsiyasining buzilishiga olib keladi. TEG bilan absorbsiya uzluksiz ishlashi, glikolning past uchuvchanligi va eritmani qayta regeneratsiya qilish imkoniyati sababli sanoatda keng qo'llanadi. Jarayon samaradorligi esa faqat quruq gazning shudring nuqtasi bilan belgilanmaydi. Boy TEGga uglevodorodlar va tuzlarning o'tishi, havo kirishi, reboilerda mahalliy qizib ketish, ko'pik va filtrning to'yinishi sirkulyatsiya sarfi hamda glikol yo'qotilishini oshiradi [1-4].

Qashshoq TEG konsentratsiyasini oshirish odatda gazdan ko'proq suv ajratishga yordam beradi, lekin regeneratsiya haroratini nazoratsiz ko'tarish oksidlanish va termik parchalanishni tezlashtiradi. Yuqori qovushqoqlik massa uzatish qarshiligini va nasos yukini oshiradi; ko'pik esa absorberning foydali kontakt balandligini kamaytirib, glikolning gaz bilan olib ketilishiga sharoit yaratadi. Shuning uchun kompozitsion absorbentning haqiqiy foydasi laboratoriyadagi gigroskopiklik bilan emas, butun absorber-regenerator siklining barqarorligi bilan baholanishi lozim.

Mavjud tadqiqotlarda TEG-suv-gaz fazaviy muvozanati, regeneratsiyani intensivlashtirish, MDEA bilan suv yutilishini kuchaytirish, ko'pik va degradatsiya diagnostikasi alohida yo'nalishlarda o'rganilgan [1-6]. Biroq funksional qo'ndirmalarni dozalash, ularning o'zaro mosligi va natijani pul oqimiga aylantirish bir xil mezonlar tizimida kam yoritilgan. Mazkur ishning vazifasi shu bo'shliqni to'ldirib, texnologik xavfsizlik cheklovlari bajarilgandagina iqtisodiy optimumni qabul qiladigan bosqichli yondashuvni taklif etishdan iborat.

1. Tadqiqotning maqsadi va metodikasi

Tadqiqot maqsadi kompozitsion TEGni amaldagi absorber-regenerator konturiga xavfsiz kiritish algoritmini ishlab chiqish va uning texnik-iqtisodiy samarasini hisobiy ssenariyda baholashdan iborat. Metodika uch dalil qatlamini birlashtirdi: 2021-2025-

yillardagi tajriba va modellashtirish ishlari tahlili; massa-issiqlik balansiga tayangan texnologik hisob; kapital va operatsion pul oqimlari bo'yicha iqtisodiy baholash. TEG-suv-gaz muvozanatining bosimga bog'liqligi Qvistgaard va hammualliflarning 6,0; 9,0 va 12,5 MPa dagi o'lchovlari bilan, degradatsiya mexanizmi Høisæter va hammualliflarning oksidlanish tajribalari bilan asoslandi [1-3].

Kompozitsiya bitta qat'iy retsept sifatida emas, balki diagnostika natijasiga bog'liq boshqariladigan tizim sifatida qaraldi. Bazaviy TEGdagi suv miqdori Karl Fischer usulida, kislota soni titrlash bilan, MEG/DEG va organik kislotalar xromatografiya bilan, ko'pik esa 50 ± 0,5 °C da balandlik va to'liq so'nish vaqti bo'yicha aniqlanishi kerak. Korroziya kuponlari, differensial bosim, qashshoq TEG sarfi va reboiler yoqilg'i sarfi bir xil vaqt oralig'ida qayd qilinadi. Har qanday gigroskopik modifikator, ingibitor va ko'pik so'ndirgich avval alohida, keyin kombinatsiyada 5, 10, 25 va 50 absorbsiya-regeneratsiya siklida tekshiriladi.

Texnik mezon quruq gaz suv spetsifikatsiyasiga mosligi saqlangan holda TEG sirkulyatsiyasi, energiya, glikol make-up va to'xtashlarning kamayishidan tuzildi. Iqtisodiy hisobda yillik sof samara quyidagicha topildi:

$$S_\gamma = S_e + S_{te}g + S_D + S_m - Cq - Cn, \qquad (1)$$

bu yerda S_e - energiya tejalishi; $S_{te}g$ - make-up kamayishi; S_D - rejasiz to'xtashlarning qisqarishi; S_m - filtr va chiqindi xarajatlarining kamayishi; Cq - qo'ndirma xarajati; Cn - qo'shimcha nazorat va xizmat xarajati. Oddiy qoplanish muddati $Tq = K/S_\gamma$, besh yillik sof joriy qiymat esa $NPV = \Sigma[S_\gamma/(1+r)^t] - K$ formulalari bilan hisoblandi. Diskont stavkasi r = 12 % deb qabul qilindi.

2. Kompozitsion glikolni qo‘llashning texnologik konsepsiyasi

1-rasm. Kompozitsion TEGni absorber-regenerator konturida qo‘llash sxemasi



Sxemada nam gaz avval tomchi va qattiq aralashmalardan ajratiladi, absorberda qashshoq kompozitsion TEG bilan qarama-qarshi oqimda kontaktlanadi. Boy glikol flash-idishda bosimini pasaytirib erigan gazlarning asosiy qismini chiqaradi, mexanik va faol ko'mir filtrlaridan o'tadi, so'ng boy-qashshoq TEG issiqlik almashtirgichi orqali regeneratorga beriladi. Regeneratsiyadan keyin eritma sovitiladi; qo'ndirma faqat nazorat tahliliga muvofiq qashshoq TEG liniyasiga dozalanadi. Shu joylashuv reboilerda qo'ndirma konsentratsiyasining nazoratsiz to'planishi va termik parchalanish xavfini kamaytiradi.

Modifikator kiritilishidan oldin aylanma TEG inventari va uning haqiqiy suv ulushi aniqlanadi. Bir martalik boshlang'ich doza inventar massasiga, keyingi make-up dozasi esa yo'qotilgan TEG va qo'ndirma balansiga nisbatan hisoblanadi. Qo'ndirma konsentratsiyasini faqat nasos sarfi bo'yicha nazorat qilish yetarli emas: bug'lanish, filtrda adsorbsiya va reboilerda parchalanish sabab faol komponentning eritmadagi qoldiq miqdori davriy tahlil qilinadi.

Absorber uchun suv balansi $m_s = Qg(Ykir - Ychiq)$, minimal TEG sirkulyatsiyasi esa tajribada aniqlangan ishchi yuklanish ΔW bo'yicha $L = m_s/\Delta W$ munosabatidan baholanadi. Kompozitsion rejimda L qiymatini pasaytirish faqat chiqish gazining suv miqdori, absorber ΔP si va glikol olib ketilishi bazaviy rejimdan yomonlashmaganda ruxsat etiladi. Bu qoida energiya tejashni mahsulot sifati hisobiga olishning oldini oladi.

3. Adabiyotdagi real siklli tajribalar tahlili

Liang va hammualliflar 97 mass.% TEG namunalarini 200 °C da 10 minutdan qizdirib, har sikldan keyin 50 °C gacha sovitgan va jarayonni 50 marta takrorlagan [4]. Ko'pik balandligi, uning to'liq so'nish vaqti va gaz-suyuqlik sirtlararo tarangligi 50-sikl tugagach o'lchangan. Ushbu ish kompozitsion glikol texnologiyasi uchun muhim amaliy xulosani beradi: nomi 'ko'pik so'ndirgich' bo'lgan reagent ham ko'p komponentli TEG muhitida boshqa qo'ndirma bilan sinergik emas, balki antagonistik ta'sir ko'rsatishi mumkin.

1-jadval. 50 sikldan keyingi TEG ko‘piklanishi bo‘yicha nashr etilgan tajriba natijalari [4]

Namuna va konsentratsiya	Ko‘pik balandligi H_0, mm	To‘liq so‘nish vaqti, s	Sirtlar aro taranglik, mN/m
Korroziya ingibitori, 1500 mg/l	34,0	7,6	31,1*

Namuna va konsentratsiya	Ko‘pik balandligi H_0, mm	To‘liq so‘nish vaqti, s	Sirtlar aro taranglik, mN/m
Ko‘pik so‘ndirgich, 1250/2000 mg/l	28,0	7,8	30,1*
Ingibitor + so‘ndirgich 1:1, 1500 mg/l	37,0	7,9	29,6*
Yengil + og‘ir uglevodorod 4:1, 3000 mg/l	1,48	14,8	38,6
MDEA, 2000 mg/l	2,4	14,0	34,3**

Izoh: * sirtlararo taranglik 750 mg/l da; ** MDEA uchun sirtlararo taranglik 1500 mg/l da o'lchangan. Ko'pik so'ndirgichda H_0 maksimumi 1250 mg/l, so'nish vaqti maksimumi 2000 mg/l da qayd etilgan. Manbada 0, 1, 5, 10 va 25-sikllar uchun alohida sonli qiymatlar berilmagan; shu sababli ular interpolatsiya qilinmadi.

Ingibitor va so'ndirgichning 1:1 aralashmasida H_0 = 37 mm bo'lishi alohida reagentlar natijasidan ham yuqori. Bu sirt faol moddalar TEG-gaz chegarasida birgalikda to'planib, yupqa plyonkani barqarorlashtirganini ko'rsatadi. Uglevodorod aralashmasida boshlang'ich ko'pik past bo'lsa-da, 14,8 s so'nish vaqti drenajning sekinlashganini bildiradi. Demak, texnologik qabul mezoni faqat ko'pikning maksimal balandligi emas, balandlik-so'nish vaqti juftligi bo'lishi kerak.

2. Tadqiqot metodologiyasi: Ushbu tadqiqot qurilish va shahar changini o’rganishga bag’ishlangan 20 dan ortiq xalqaro ilmiy maqolaning tizimli adabiyotlar tahliliga asoslanadi. Tanlangan manbalarda qo’llanilgan gravimetrik, real-vaqt optik monitoring, emissiya faktoriga asoslangan hisoblash va statistik modellashtirish metodlarining O’zbekiston sharoitida qo’llanish imkoniyatlari qiyosiy tarzda baholandi. Tahlil uchun asos sifatida muallifning ushbu metodlarning xalqaro tajribadagi ilmiy aniqligi, operativligi va qo’llanish sohasini yorituvchi qiyosiy tadqiqotidan foydalanildi, unda mazkur metodlar bo’yicha shakllantirilgan baholash matritsasi (1-jadval) mahalliy sharoitga moslashtirish tahlilining boshlang’ich nuqtasi sifatida qo’llanildi.

3. Metodlarni mahalliy sharoitga moslashtirish: tahlil va natijalar: Xalqaro tadqiqotlar asosida shakllantirilgan baholash matritsasi (1-jadval) qurilish changini monitoring qilish metodlarining o’lchov aniqligi, operativligi va mahalliy sharoitda qo’llash imkoniyati bo’yicha sezilarli farqlanishini ko’rsatadi. Mazkur matritsa O’zbekiston, xususan Toshkent sharoitida metodlarni tanlash va ularni birgalikda qo’llash bo’yicha tavsiyalar ishlab chiqishning asosini tashkil etadi.

1-jadval: Qurilish Changi Monitoring Metodlarini Baholash Matritsasi.

№	Metod	O’lchov aniqligi	Operativligi	Mahalliy qo’llash imkoniyati
1	Gravimetrik monitoring [1]	Juda yuqori	Past	Yuqori

2	Upwind–Downwind monitoring [2]	Yuqori	O’rta	O’rta
3	Real-time optik monitoring [3]	O’rta-yuqori	Juda yuqori	Juda yuqori
4	Beta-attenuation monitorlari (BAM) [4]	Yuqori	Yuqori	Past
5	EPA AP-42 Emission Factor [5]	O’rta	Yuqori	O’rta
6	GIS / masofadan zondlash [6]	O’rta	O’rta	O’rta
7	Uchuvchisiz qurilmalar + sun’iy intellekt [5]	O’rta	Yuqori	Past–O’rta

3.1. O’zbekiston iqlimiga moslashtirish: O’zbekiston sharoitida qurilish changlarini monitoring qilish uchun metod tanlashda o’lchov aniqligi bilan bir qatorda iqlimiy sharoit, qurilish jarayonlarining xususiyatlari, texnik xizmat ko’rsatish va ekspluatatsiya xarajatlarini hisobga olish talab etiladi. Shu nuqtai nazardan, alohida metodlarning imkoniyatlari bir-birini to’ldirishi mumkin.

Gravimetrik monitoring va "Upwind–Downwind" yondashuvi qurilish maydonlarida chang emissiyasini miqdoriy baholash uchun yuqori aniqlikka ega. Filtrda to’plangan zarrachalar massasini bevosita aniqlash ushbu usulni ishonchli o’lchov vositasiga aylantiradi va boshqa monitoring usullarini kalibrlashda etalon sifatida foydalanish imkonini beradi. O’zbekiston hududida yilning katta qismida quruq va yog’ingarchilik kam bo’lishi ushbu usullarni dala sharoitida qo’llash uchun qulaylik yaratadi. Ayniqsa, shamol yo’nalishi barqaror bo’lgan sharoitlarda upwind va downwind nuqtalaridagi PM konsentratsiyalarini taqqoslash orqali qurilish faoliyati bilan bog’liq qo’shimcha chang emissiyasini baholash mumkin.

Real-time optik monitoring esa yuqori vaqt rezolyutsiyasidagi ma’lumotlarni tezkor olish va uzluksiz kuzatuv olib borish imkoniyati bilan ajralib turadi. Ekspluatatsiya xarajatlarining gravimetrik monitoringga nisbatan pastligi uni qurilish maydonlarida qo’llash uchun qulaylashtiradi. Biroq optik sensorlarning o’lchov natijalari zarrachalarning fizik-kimyoviy xususiyatlari, namlik va boshqa meteorologik omillarga bog’liq bo’lgani sababli mahalliy sharoitlarda muntazam kalibrlash zarur. Shu sababli gravimetrik va optik monitoringni birgalikda qo’llash maqsadga muvofiq: gravimetrik usul etalon o’lchovni ta’minlasa, optik stansiyalar PM konsentratsiyasining real vaqt rejimidagi o’zgarishlarini kuzatadi.

Beta Attenuation Monitor (BAM) $PM_{2.5}$ va PM_{10} konsentratsiyalarini uzluksiz va avtomatlashtirilgan tarzda yuqori aniqlikda o’lchash imkonini beradi. Biroq

qurilmalarning yuqori xarid va ekspluatatsiya qiymati, radioaktiv beta manbasi bilan ishlash, muntazam texnik xizmat hamda malakali mutaxassislarni talab qilishi ularning amaliy qo’llanishini cheklaydi. Bundan tashqari, BAM stansiyalarining asosan statsionar monitoringga mo’ljallangani qurilish maydonlarida ularni turli ish uchastkalari o’rtasida ko’chirishni murakkablashtiradi. Shu bois ushbu metod qurilish maydonlaridagi bevosita monitoringdan ko’ra, doimiy atmosfera monitoring stansiyalarida fon konsentratsiyalarini kuzatish va boshqa monitoring usullari natijalarini tekshirish (validatsiya qilish) uchun ko’proq mos keladi.

EPA AP-42 metodikasi qurilish faoliyati turi, ish hajmi va emissiya faktorlaridan foydalanib chang emissiyasini hisoblash hamda dastlabki prognozlash imkonini beradi. Biroq umumlashtirilgan emissiya faktorlariga tayanish mahalliy meteorologik sharoitlar (shamol tezligi va yo’nalishi, harorat, namlik, atmosfera bosimi), qurilish materiallarining xususiyatlari, transport harakati va qurilish bosqichlari hisobga olinmagan holatlarda natijalar aniqligini pasaytirishi mumkin. Shu sababli O’zbekiston sharoitida AP-42 metodikasidan foydalanishda mahalliy meteorologik ma’lumotlar va muayyan qurilish maydonining xususiyatlarini hisobga olish zarur.

GIS, masofadan zondlash va uchuvchisiz uchish apparatlari (UUA) asosidagi yondashuvlar esa chang emissiyasi manbalarini aniqlash va ularning fazoviy taqsimotini baholash imkonini beradi. Ular chang konsentratsiyasini bevosita o’lchamasa-da, qurilish faoliyati intensivligi hamda chang hosil bo’lish xavfi yuqori bo’lgan hududlarni tezkor aniqlash orqali gravimetrik, optik va BAM monitoringini to’ldirishi mumkin. Natijada o’lchovlarning fazoviy qamrovini kengaytirish va mavjud monitoring ma’lumotlarini hududiy jihatdan izohlash imkoniyati oshadi.

Shunday qilib, O’zbekiston sharoitida qurilish changlarini monitoring qilish uchun alohida metodning imkoniyatlaridan ko’ra, ularning funksional jihatdan uyg’unlashtirilishi muhimroqdir. Gravimetrik va real-time optik monitoringni integratsiyalash yuqori o’lchov aniqligi bilan birga tezkor va uzluksiz nazoratni ta’minlaydi [1,7]. UUA va GIS kabi fazoviy yondashuvlarning qo’shilishi esa monitoringni hududiy jihatdan kengaytiradi, AP-42 esa emissiyani hisoblash va dastlabki prognozlash uchun qo’shimcha vosita sifatida xizmat qiladi.

4. Muhokama: O’tkazilgan adabiyotlar tahlili qurilish changini monitoring qilish uchun barcha sharoitlarda birdek maqbul bo’lgan universal metod mavjud emasligini ko’rsatadi [8]; Metod tanlovi, avvalo, tadqiqot maqsadi, fazoviy qamrov, mavjud texnik imkoniyatlar va iqtisodiy cheklovlar bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, turli monitoring yondashuvlarining samaradorligini baholashda ularning

o’lchash imkoniyatlari bilan bir qatorda mahalliy sharoitda qo’llash imkoniyati ham hisobga olinishi lozim.

Xalqaro amaliyotda gravimetrik metodga asoslangan monitoring keng qo’llaniladi: AQSh, Yevropa, Yaponiya va boshqa mamlakatlarning milliy monitoring tarmoqlarida ushbu prinsip asosida ishlovchi minglab stansiyalar mavjud [9]. O’zbekistonda esa atmosfera havosidan namunalar asosan O’zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o’zgarishi milliy qo’mitasi huzuridagi Gidrometeorologiya xizmati agentligi laboratoriyalarida filtr usuli orqali olinib, tahlil qilinadi. Hozirgi vaqtda Gidrometeorologiya agentligi tarkibida 17 ta atmosfera laboratoriyasi, 71 ta statsionar va 1 ta mobil kuzatuv posti faoliyat yuritadi [10]. Shu bilan birga, real vaqt rejimida ishlovchi optik sensorlar asosidagi monitoring tarmoqlari ham jadal kengaymoqda. Jumladan, "PurpleAir" global tarmog’ida 100 dan ortiq mamlakatlarda 35 mingdan ziyod sensor faoliyat yuritadi. Ushbu sensorlar davlat monitoring stansiyalarini to’ldirish, ilmiy tadqiqotlar olib borish va jamoatchilik monitoringini tashkil etishda keng qo’llanilmoqda [11]. O’zbekistonda ham 2023 yildan boshlab Gidrometrning avtomatlashtirilgan stansiyalarida PM monitoringi real vaqt rejimida amalga oshirila boshlandi. 2023 yilda 8 ta avtomatik stansiya ishga tushirilgan bo’lsa, 2026 yilga kelib real vaqt ma’lumotlarini uzatuvchi stansiyalar soni 20 dan oshgan [12].

Beta Attenuation Monitor (BAM) texnologiyasi esa $PM_{2.5}$ va PM_{10} konsentratsiyalarini uzluksiz o’lchash uchun, asosan, AQSh, Yevropa, Avstraliya, Yaponiya va boshqa rivojlangan mamlakatlarning davlat monitoring tarmoqlarida qo’llaniladi. AQShda BAM qurilmalari EPA (Federal Equivalent Method) sifatida yuzlab monitoring stansiyalarida ishlatiladi, biroq ular alohida qurilish changini monitoring qilish uchun qo’llanilmaydi [9]. O’zbekistonda esa Gidrometrning Zamin jamg’armasi ko’magida tashkil etilgan avtomatik stansiyalarida xalqaro standartlarga mos referens uskunalar o’rnatilgan [12].

Mazkur monitoring yondashuvlarini O’zbekiston, xususan Toshkent sharoitiga tatbiq etishda ularni bevosita ko’chirish yetarli emas. Hududning kontinental iqlimi, yozgi qurg’oqchilik, yuqori tabiiy chang foni va qurilish faoliyatining intensivligi mavjud metodlarni mahalliy sharoitlarga moslashtirishni talab etadi. Bunda AP-42 metodikasidagi emissiya faktorlarini mahalliy sharoitga moslashtirish, optik sensorlarni gravimetrik metod asosida kalibrlash va BAM usulidan, avvalo, doimiy monitoring stansiyalarida foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. GIS, masofadan zondlash va UUA texnologiyalari esa chang konsentratsiyasini bevosita o’lchashdan ko’ra, emissiya manbalarini aniqlash hamda mavjud monitoring natijalarini to’ldirish

uchun samarali vosita sifatida qaraladi. Shunday qilib, O’zbekiston sharoitida ushbu metodlarning kompleks qo’llanilishi eng maqbul yondashuv sifatida namoyon bo’ladi.

Umuman, xalqaro tadqiqotlar tahlili kelgusidagi ishlarning asosiy ilmiy vazifasi mavjud monitoring metodlarini shunchaki qo’llash bilan cheklanmasligini, balki ularni mahalliy urbanizatsiya, meteorologik va texnologik sharoitlarga mos ravishda kalibrovka qilish va standartlashtirish zarurligini ko’rsatadi. O’zbekiston sharoitida qurilish changlarini ishonchli monitoring qilish tizimini shakllantirish aynan shunday mahalliy moslashtirish va standartlashtirish yondashuviga tayanishi zarur.

5. Xulosa: Umuman olganda, xalqaro tajriba qurilish changini ishonchli baholash va samarali boshqarishda integratsiyalashgan monitoring yondashuvining yuqori metodologik samaradorligini ko’rsatadi. Biroq ushbu metodlarni mamlakatimiz, xususan, Toshkent sharoitida qo’llash ularni bevosita ko’chirishni emas, balki hududning meteorologik xususiyatlari, qurilish intensivligi va mavjud chang fon darajasini hisobga olgan holda lokal kalibrovka va adaptatsiyani talab etadi. Shu nuqtai nazardan, Toshkent shahri uchun qurilish changini monitoring qilishning istiqbolli ilmiy yo’nalishi xalqaro metodologiyalarni mahalliy sharoitga moslashtirish, ularni standartlashtirish va kompleks integratsiyalashgan monitoring tizimini shakllantirishdan iborat.

Adabiyotlar

[1] Araújo IPS, Costa DB. Measurement and Monitoring of Particulate Matter in Construction Sites: Guidelines for Gravimetric Approach. Sustainability 2022;14:558. https://doi.org/10.3390/su14010558.

[2] Yan H, Li Q, Feng K, Zhang L. The characteristics of PM emissions from construction sites during the earthwork and foundation stages: an empirical study evidence. Environ Sci Pollut Res 2023;30:62716–32. https://doi.org/10.1007/s11356-023-26494-4.

[3] Cheriyan D, Choi J. Estimation of particulate matter exposure to construction workers using low-cost dust sensors. Sustainable Cities and Society 2020;59:102197. https://doi.org/10.1016/j.scs.2020.102197.

[4] Molaie S, Lino P. Review of the Newly Developed, Mobile Optical Sensors for Real-Time Measurement of the Atmospheric Particulate Matter Concentration. Micromachines 2021;12:416. https://doi.org/10.3390/mi12040416.

[5] He Y, Jang J, Zhu Y, Chiang P-C, Xing J, Wang S, Zhao B, Long S, Yuan Y. Improving Fugitive Dust Emission Inventory from Construction Sector Using UAV

Images Recognition. Aerosol Air Qual Res 2024;24:240112. https://doi.org/10.4209/aaqr.240112.

[6] Yang H, Song X, Du L, Zhang Q, Cui J, Yin S. Estimating Particulate Matter Emission from Dust Sources Using ZY-3 Data and GIS Technology—A Case Study in Zhengzhou City, China. Atmosphere 2021;12:660. https://doi.org/10.3390/atmos12060660.

[7] Khan M, Khan N, Skibniewski MJ, Park C. Environmental Particulate Matter (PM) Exposure Assessment of Construction Activities Using Low-Cost PM Sensor and Latin Hypercubic Technique. Sustainability 2021;13:7797. https://doi.org/10.3390/su13147797.

[8] Institute of Air Quality Management (IAQM). Guidance on Monitoring in the Vicinity of Demolition and Construction Sites 2018.

[9] U.S. Environmental Protection Agency. AMTIC – PM2.5 Monitoring Network. Ambient Monitoring Technology Information Center (AMTIC). https://www.epa.gov/amtic/amtic-pm25-monitoring-network (accessed August 4, 2026).

[10] Aziz Ganiev. Air Quality Monitoring Automation in Uzbekistan. Geneva, Switzerland: Uzhydromet; 2023.

[11] PurpleAir. Real-time Air Quality Monitoring by PurpleAir. PurpleAir 2026. https://www2.purpleair.com/.

[12] World Air Quality Index Project. Uzhydromet – Center for Hydrometeorological Service of the Republic of Uzbekistan: Real-time Air Quality Sensor Network. World Air Quality Index (AQICN) n.d. https://aqicn.org/network/uzhymet/ (accessed August 4, 2026).

SIRDARYO VILOYATI HUDUDINING RESURS IMKONIYATLARINI TADQIQ ETISHDA MASOFADAN ZONDLASH MA’LUMOTLARINING O‘RNI VA AHAMIYATI (NDVI, NDMI, NDSI, MNDWI INDEKSLARI ASOSIDA)

Djalilova Shahnoza Ziyodulla qizi
Markaziy Osiyo iqlim o‘zgarishini o‘rganish universiteti (GREEN UNIVERSITY) huzuridagi Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
shahnozziyodullayevna@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada Sirdaryo viloyati hududining tabiiy resurs imkoniyatlarini o‘rganishda masofadan zondlash ma’lumotlarining o‘rni va ahamiyati ko‘rib chiqilgan. NDVI, NDMI, NDSI va MNDWI spektral indekslarining axborot imkoniyatlari tahlil qilinib, ularning yer, suv va agroiqlimiy resurslarni baholashdagi qo‘llanish sohalari umumlashtirilgan. Viloyat hududi bo‘yicha olib borilgan tahlillar asosida masofadan zondlash texnologiyalarini hududiy resurs monitoringi tizimiga joriy etish bo‘yicha umumiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *masofadan zondlash, geoaxborot tizimlari, NDVI, NDMI, NDSI, MNDWI, tabiiy resurslar, yer resurslari, monitoring, Sirdaryo viloyati.*

Аннотация. *В статье рассматриваются роль и значение данных дистанционного зондирования Земли в изучении природно-ресурсного потенциала территории Сырдарьинской области. Проанализированы информационные возможности спектральных индексов NDVI, NDMI, NDSI и MNDWI, обобщены области их применения при оценке земельных, водных и агроклиматических ресурсов. На основе выполненных по территории области аналитических работ разработаны общие рекомендации по внедрению технологий дистанционного зондирования в систему регионального ресурсного мониторинга.*

Ключевые слова: *дистанционное зондирование, геоинформационные системы, NDVI, NDMI, NDSI, MNDWI, природные ресурсы, земельные ресурсы, мониторинг, Сырдарьинская область.*

Annotation. *The paper examines the role and significance of remote sensing data in studying the natural resource potential of the Syrdarya region. The informational*

capabilities of the NDVI, NDMI, NDSI and MNDWI spectral indices are analysed, and their fields of application in assessing land, water and agroclimatic resources are summarised. Based on analytical work carried out for the territory of the region, general recommendations are proposed for introducing remote sensing technologies into the regional resource monitoring system.

Keywords: *remote sensing, geographic information systems, NDVI, NDMI, NDSI, MNDWI, natural resources, land resources, monitoring, Syrdarya region.*

Kirish. Hududlarning tabiiy resurs imkoniyatlarini obyektiv baholash barqaror rivojlanish siyosatining asosiy shartlaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasida yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, tuproq unumdorligini saqlash hamda iqlim o‘zgarishiga moslashish masalalari davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan [1; 2]. Ushbu vazifalarni hal etishda an’anaviy dala-ekspeditsiya usullari yuqori aniqlikka ega bo‘lsa-da, katta maydonlarni qisqa vaqt ichida, bir xil metodik asosda va takroriy qamrab olish imkoniyati cheklangan.

Masofadan zondlash texnologiyalari aynan shu bo‘shliqni to‘ldiradi. Landsat-8/9 OLI va Sentinel-2 MSI sun’iy yo‘ldoshlarining ochiq ma’lumotlari 10–30 m fazoviy va 5–16 kun vaqtinchalik ajratish qobiliyatiga ega bo‘lib, hududning holatini uzluksiz kuzatish imkonini beradi. Sirdaryo viloyati - Mirzacho‘l tekisligining gidromorf tuproqlari ustun bo‘lgan, iqtisodiyoti deyarli butunlay sug‘oriladigan dehqonchilikka tayanadigan hudud - bunday monitoring uchun namunaviy obyekt hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi - Sirdaryo viloyati hududining resurs imkoniyatlarini tadqiq etishda masofadan zondlash ma’lumotlarining o‘rnini asoslash, NDVI, NDMI, NDSI va MNDWI indekslarining axborot imkoniyatlarini umumlashtirish hamda ularni amaliyotga joriy etish bo‘yicha umumiy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Masofadan zondlash ma’lumotlarining resurs tadqiqotlaridagi o‘rni

Resurs imkoniyatlarini baholashda masofadan zondlash ma’lumotlarining ustunligi uch jihatda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, fazoviy to‘liqlik: tahlil butun hududni piksel darajasida qamrab oladi, natijada nuqtaviy kuzatishlarda ko‘zdan qochadigan lokal o‘choqlar ham aniqlanadi. Ikkinchidan, vaqtinchalik uzluksizlik: bir xil metodika asosida ko‘p yillik qatorlar shakllantirilib, resurs holatining dinamikasi kuzatiladi. Uchinchidan, iqtisodiy samaradorlik: ochiq sun’iy yo‘ldosh arxivlaridan foydalanish tadqiqot tannarxini dala ishlariga nisbatan bir necha barobar kamaytiradi.

Shu bilan birga, spektral indekslar bilvosita ko‘rsatkichlar bo‘lib, ularning qiymatlari mahalliy sharoitga moslab kalibrlanishi lozim. Shuning uchun zamonaviy yondashuv «kosmik monitoring + tanlab dala validatsiyasi» tamoyiliga asoslanadi.

Spektral indekslarning axborot imkoniyatlari. Resurs tadqiqotlarida eng ko‘p qo‘llaniladigan to‘rtta indeksning hisoblash formulasi va resursni baholashdagi vazifasi 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval.

Spektral indekslarning resurs imkoniyatlarini baholashdagi vazifasi

Indeks	Formulasi	Baholanadigan resurs turi va vazifasi
NDVI	(NIR − Red) / (NIR + Red)	Yer resurslari: ekin maydonlari bioproduktivligi, hosildorlik potensiali
NDMI	(NIR − SWIR1) / (NIR + SWIR1)	Namlik resurslari: tuproq va o‘simlikdagi suv zaxirasi, gidrostress darajasi
NDSI	(Green − SWIR) / (Green + SWIR)	Tuproq resurslari: yuzadagi tuz to‘planishi, sho‘rxok o‘choqlari
MNDWI	(Green − SWIR) / (Green + SWIR)	Suv resurslari: ochiq suv obyektlari, kollektor-zovur tarmog‘i

Indekslarning alohida qiymati emas, balki ularning kombinatsiyasi eng ko‘p axborot beradi. Masalan, NDVI ning pastligi ham suv taqchilligidan, ham sho‘rlanishdan kelib chiqishi mumkin; bu ikki sababni ajratish uchun NDMI va NDSI qiymatlari birgalikda tahlil qilinadi. Shu tarzda resurs cheklovining aniq tabiati aniqlanadi va tavsiya etiladigan chora-tadbir turi asoslanadi.

Sirdaryo viloyati misolida olingan natijalarning umumlashmasi. Viloyat hududi bo‘yicha bajarilgan tahlillar masofadan zondlash ma’lumotlarining amaliy axborot qiymatini ko‘rsatdi. MNDWI (**1.a**-rasm) raster qatlamining maydon bo‘yicha hisobi umumiy 4224,43 km² hududda ochiq suv obyektlari atigi 2,29 % ni egallashini, maydonning asosiy qismi esa turli darajada namlangan quruqlik yuzalaridan iboratligini aniqlash imkonini berdi. NDVI (**1.b**-rasm) ko‘rsatkichlarining hududiy taqsimoti viloyat shimolida (0,30–0,50) va janubi-g‘arbida (0,12–0,25) sezilarli tafovut mavjudligini ko‘rsatdi.



1-rasm. Sirdaryo viloyatining MNDWI va NDVI xaritalari. Xaritalar muallif tomonidan ArcMap 10.8 vositasida ishlab chiqildi

NDSI va NDMI indekslarining birgalikdagi tahlili sho‘rlanish o‘choqlarining asosan janubi-g‘arbiy tumanlarda to‘planganini, ushbu ikki ko‘rsatkich o‘rtasida esa juda kuchli teskari bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Bu qonuniyat amaliy jihatdan muhim: namlik indeksining pasayishi sho‘rlanish kuchayishining dastlabki signali sifatida xizmat qilishi va shu bois erta ogohlantirish indikatori sifatida qo‘llanilishi mumkin.

NDSI indeksi xaritasi (**2.a**-rasm) quruq mavsumda tuproq yuzasida to‘plangan mineral tuzlarning fazoviy taqsimotini aks ettiradi. Viloyat hududida sho‘rlanish darajasi keskin tabaqalangan: shimoliy tumanlarda indeks qiymatlari manfiy zonada (NDSI < −0,20) saqlanib, sho‘rlanish belgilari deyarli kuzatilmaydi.

2.a



2.b



2-rasm. Sirdaryo viloyatining NDSI va NDMI xaritalari. Xaritalar muallif tomonidan ArcMap 10.8 vositasida ishlab chiqildi

Sardoba tumanining markaziy-sharqiy qismida hamda Sardoba va Mirzaobod tumanlari tutashgan hududda NDSI (**2.a**-rasm) qiymatlari 0,25 dan yuqori bo‘lgan anomal zonalar (xaritada pushti va qizil ranglar) shakllangan. Oqoltin tumani markazida ham sho‘rxoklanishning aniq o‘choqlari qayd etiladi. Bunday holat drenaj tizimlari samaradorligining pastligi va sizot suvlari sathining 1,5–2,0 m gacha ko‘tarilishi bilan bog‘liq bo‘lib, Xorazm viloyatida o‘tkazilgan shunga o‘xshash tadqiqotlar natijalari bilan mazmunan mos keladi [8].

NDMI namlik indeksi xaritasi (**2.b**-rasm), NDSI (**2.a**-rasm) xaritasining fazoviy jihatdan deyarli teskari aksi hisoblanadi. Xaritada sariq va to‘q sariq ranglar bilan belgilangan hududlar — asosan Mirzaobod va Oqoltin tumanlari — o‘simliklar uchun namlik yetishmovchiligi yuqori bo‘lgan zonalarni anglatadi. Ushbu maydonlarda gidrostress va issiqlik stressining birgalikdagi ta’siri natijasida ekinlar hosildorligining 20–35 % gacha kamayishi kutiladi.

NDSI va NDMI ko‘rsatkichlarining birgalikdagi tahlili asosida viloyat yerlari sho‘rlanish darajasi bo‘yicha besh toifaga ajratildi (2-jadval). Ushbu tasnif meliorativ tadbirlar turini va ularning jadalligini belgilashda bevosita amaliy ahamiyatga ega.

2-jadval.

Sho‘rlanish darajalarining NDSI–NDMI mezonlari bo‘yicha tabaqalanishi va meliorativ choralar

Sho‘rlanish darajasi	NDSI	NDMI	Tarqalgan tumanlar	Tavsiya etiladigan agromeliorativ chora
Sho‘rlanmagan / kuchsiz	< −0,20	> 0,15	Sirdaryo, Sayxunobod	Standart agrotexnik parvarish
Zaif sho‘rlangan	−0,20 … 0,00	0,05 … 0,15	Guliston, Boyovut	Almashlab ekish, organik o‘g‘itlar solish
O‘rtacha sho‘rlangan	0,00 … 0,15	−0,05 … 0,05	Xovos, Mirzaobod	Kollektor-drenaj tarmog‘ini yuvish va chuqurlashtirish
Kuchli sho‘rlangan	0,15 … 0,30	−0,15 … −0,05	Oqoltin, Sardoba	Qishki-bahorgi sho‘r yuvish normalarini oshirish
O‘ta kuchli (sho‘rxok)	> 0,30	< −0,15	Sardoba botiqliklari	Kimyoviy melioratsiya (gips, fosfogips qo‘llash)

Umuman olganda, to‘rtta indeksning birgalikdagi tahlili viloyat hududini resurs ta’minoti darajasi bo‘yicha zonalarga ajratish va meliorativ mablag‘larni maqsadli taqsimlash imkonini beradi.

Umumiy tavsiyalar. Olib borilgan tahlillar asosida quyidagi umumiy tavsiyalar ilgari suriladi.

1. **Doimiy kosmik monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish.** Viloyat miqyosida NDVI va NDMI ko‘rsatkichlarini vegetatsiya davrida kamida ikki haftada bir marta hisoblab borish, natijalarni tuman kesimida yagona geoaxborot bazasida to‘plash maqsadga muvofiq. Bu ekinlarning gidrostress holatini erta aniqlash imkonini beradi.

2. **Indekslarni dala ma’lumotlari bilan kalibrlash.** NDSI ko‘rsatkichlarini tuproqning elektr o‘tkazuvchanligi bo‘yicha dala o‘lchovlari bilan solishtirish orqali mahalliy sharoitga mos chegaraviy qiymatlar aniqlanishi lozim. Kalibrlashsiz indeks qiymatlari faqat nisbiy taqqoslash uchun yaroqli bo‘ladi.

3. **Resurs monitoringini boshqaruv qarorlari bilan bog‘lash.** Kosmik monitoring natijalari suv taqsimoti jadvallarini tuzish, sho‘r yuvish normalarini belgilash va meliorativ tadbirlar rejasini shakllantirishda rasmiy axborot manbai sifatida qo‘llanilishi kerak.

4. **Zonaviy yondashuvni qo‘llash.** Meliorativ va agrotexnik tadbirlar butun viloyat bo‘yicha bir xil emas, balki resurs holati bo‘yicha ajratilgan zonalar kesimida tabaqalashtirilgan holda rejalashtirilishi samaradorlikni oshiradi.

5. **Kadrlar salohiyatini rivojlantirish.** Tuman suv xo‘jaligi va qishloq xo‘jaligi bo‘limlari mutaxassislari uchun geoaxborot tizimlari va masofadan zondlash asoslari bo‘yicha muntazam malaka oshirish kurslarini tashkil etish talab etiladi.

6. **Ma’lumotlarning ochiqligini ta’minlash.** Hududiy indeks xaritalarini interaktiv veb-xizmat shaklida fermer xo‘jaliklari va ilmiy jamoatchilik uchun ochiq qilish tavsiya etiladi.

Xulosa. Masofadan zondlash ma’lumotlari Sirdaryo viloyati hududining resurs imkoniyatlarini tadqiq etishda fazoviy to‘liqlik, vaqtinchalik uzluksizlik va iqtisodiy samaradorlik jihatidan an’anaviy usullarni sezilarli to‘ldiruvchi vosita hisoblanadi. NDVI, NDMI, NDSI va MNDWI indekslarining birgalikdagi tahlili yer, suv va tuproq resurslarining holatini yagona metodik asosda baholash hamda resurs cheklovlarining aniq tabiatini aniqlash imkonini beradi.

Shu bilan birga, ushbu texnologiyalarning amaliy samarasi ularning dala validatsiyasi bilan qo‘shib olib borilishiga va monitoring natijalarining boshqaruv qarorlariga bevosita bog‘lanishiga ko‘p jihatdan bog‘liq. Taklif etilgan tavsiyalar viloyatda resurslardan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanish vazifalarini hal etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-son «2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni. – Toshkent, 2019.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi PF-6024-son «Suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni. – Toshkent, 2020.

3. Rouse J.W., Haas R.H., Schell J.A., Deering D.W. Monitoring vegetation systems in the Great Plains with ERTS // Third ERTS Symposium: NASA SP-351. – Washington: NASA, 1974. – Vol. 1. – P. 309–317.

4. Tucker C.J. Red and photographic infrared linear combinations for monitoring vegetation // Remote Sensing of Environment. – 1979. – Vol. 8, № 2. – P. 127–150.

5. Xu H. Modification of normalised difference water index (NDWI) to enhance open water features in remotely sensed imagery // International Journal of Remote Sensing. – 2006. – Vol. 27, № 14. – P. 3025–3033.

6. Gao B.-C. NDWI – A normalized difference water index for remote sensing of vegetation liquid water from space // Remote Sensing of Environment. – 1996. – Vol. 58, № 3. – P. 257–266.

7. Metternicht G.I., Zinck J.A. Remote sensing of soil salinity: potentials and constraints // Remote Sensing of Environment. – 2003. – Vol. 85, № 1. – P. 1–20.

8. Dubovyk O., Menz G., Conrad C., Kan E., Machwitz M., Khamzina A. Spatio-temporal analyses of irrigated land degradation: A case study in Uzbekistan // Journal of Arid Environments. – 2013. – Vol. 84. – P. 84–96.

BORT VA POG‘ONALAR TURG‘UNLIGINI TEKTONIK KUCHLANISHNI HISOBGA OLGAN HOLDA KOMPLEKS BAHOLASH VA MONITORING METODIKASI (QALMOQQIR KONI MISOLIDA)

Madaliyev O. X.
Olmaliq davlat texnika instituti
madaliyev.o@odti.uz

Annotatsiya. *Ochiq usulda kon qazish ishlarida bort va pog‘onalar turg‘unligi ishlab chiqarish xavfsizligi va uzluksizligini ta’minlovchi hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Mavjud hisoblash usullarining aksariyati faqat gravitatsion yuklama va jinsning mustahkamlik ko‘rsatkichlarini (kogeziya, ichki ishqalanish burchagi) hisobga oladi, biroq mintaqaviy tektonik kuchlanish maydonining ta’sirini e’tiborsiz qoldiradi, bu esa xavfsizlik koeffitsientini haqiqatdan yuqoriroq baholash xavfini keltirib chiqaradi. Ushbu maqolada Qalmoqqir ochiq koni misolida bort turg‘unligini besh bosqichli kompleks metodika orqali baholash taklif etiladi: yoriqlanish tizimini instrumental diagnostika qilish; tektonik kuchlanishni hisobga oluvchi analitik va sonli modellashtirish; marksheyder-geodezik monitoring orqali natijalarni dala sharoitida tekshirish; portlash parametrlarini optimallashtirish; geomexanik risklarni tizimli boshqarish. Taklif etilgan yondashuv xalqaro amaliyotda (Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston) alohida-alohida sinovdan o‘tgan usullarni birlashtirib, mahalliy kon-geologik sharoitga moslashtirilgan yagona ilmiy-amaliy tizim sifatida shakllantiriladi. Metodikaning amaliy ahamiyati shundaki, u qimmat import monitoring uskunalarisiz, mavjud marksheyder vositalari (taxeometr, nivelir) asosida ham qo‘llanilishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *bort turg‘unligi, ochiq kon, xavfsizlik koeffitsienti, tektonik kuchlanish, mikroseysmik monitoring, yoriqlanish tizimi, geomexanik risk, Qalmoqqir.*

Аннотация. *Устойчивость бортов и уступов при открытой разработке месторождений является одним из решающих факторов обеспечения безопасности и непрерывности горных работ. Большинство существующих методов расчёта учитывают только гравитационную нагрузку и прочностные характеристики породы (сцепление, угол внутреннего трения), не принимая во внимание влияние регионального тектонического поля напряжений, что может привести к завышенной оценке коэффициента запаса устойчивости. В статье*

на примере карьера Калмакыр предложена комплексная пятиэтапная методология оценки устойчивости бортов: инструментальная диагностика системы трещиноватости; аналитическое и численное моделирование с учётом тектонического напряжения; верификация результатов маркшейдерско-геодезическим мониторингом; оптимизация параметров буровзрывных работ; систематизация геомеханических рисков. Предложенный подход объединяет методы, апробированные в международной практике (Китай, Россия, Казахстан), в единую научно-практическую систему, адаптированную к местным горно-геологическим условиям.

Ключевые слова: *устойчивость бортов, карьер, коэффициент запаса устойчивости, тектоническое напряжение, микросейсмический мониторинг, система трещиноватости, геомеханический риск, Кальмакыр.*

Abstract. *Slope and bench stability is one of the decisive factors ensuring safety and continuity of open-pit mining operations. Most existing calculation methods account only for gravitational loading and rock strength parameters (cohesion, internal friction angle), while neglecting the influence of the regional tectonic stress field, which may lead to an overestimated safety factor. This paper proposes a comprehensive five-stage methodology for slope stability assessment at the Qalmoqqir open-pit mine: instrumental diagnostics of the fracture system; analytical and numerical modeling accounting for tectonic stress; field verification through surveying-based monitoring; optimization of blasting parameters, and systematic geomechanical risk management. The proposed approach integrates methods separately validated in international practice (China, Russia, Kazakhstan) into a unified scientific-practical system adapted to local mining-geological conditions.*

Keywords: *slope stability, open-pit mine, factor of safety, tectonic stress, microseismic monitoring, fracture system, geomechanical risk, Qalmoqqir.*

Kirish

Karer yonbag‘irlari hamda pog‘ona tizimlarining ustuvorligi ochiq usulda foydali qazilmalarni qazib olishda xavf-xatarlarni kamaytirish hamda samarali, uzluksiz mehnat faoliyatini ta‘minlashning bosh mezoni hisoblanadi. Konlar chuqurlashib borishi bilan bort massividagi kuchlanish holati murakkablashadi, deformatsiya jarayonlari (siljish, yorilish, ko‘chki) ehtimoli ortadi. An‘anaviy statik geomexanik hisoblash usullari, odatda, faqat gravitatsion yuklama va jinsning kuch ko‘rsatkichlariga (kogeziya c, ichki ishqalanish burchagi φ) tayanadi, biroq mintaqaviy tektonik kuchlanish maydonining ta’siri ko‘pincha e’tiborsiz qoldiriladi.

Mintaqaviy tektonik kuchlanish — yer qobig‘ida tabiiy ravishda, hatto konchilik ishlaridan mustaqil holda mavjud bo‘ladigan ichki bosim maydoni bo‘lib, u tektonik plitalarning o‘zaro harakati, o‘tmishdagi tog‘ hosil bo‘lish jarayonlaridan qolgan qoldiq kuchlanishlar va yer qobig‘ining gravitatsion-izostatik muvozanati natijasida yuzaga keladi. Portlash yoki qazish natijasida hosil bo‘ladigan texnogen kuchlanishdan farqli o‘laroq, tektonik kuchlanish qazish ishlaridan oldin ham mavjud bo‘lgan tabiiy holat hisoblanadi — kon ishlari faqat uni qayta taqsimlaydi va ochib beradi. Markaziy Osiyo hududi, jumladan O‘zbekiston, Tyan-Shan tog‘ tizimi ta’sir doirasida joylashgan faol tektonik-seysmik mintaqa hisoblanadi, shu sababli bu omilni bort turg‘unligi hisob-kitoblarida e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi. So‘nggi tadqiqotlar [1] shuni ko‘rsatadiki, tektonik kuchning e’tiborga olinmasligi xavfsizlik koeffitsientini sun’iy ravishda yuqori ko‘rsatishi, ya‘ni real xavfni yashirishi mumkin.

Muammoning yana bir jihati — mavjud usullarning aksariyati bort holatini bitta metodda (faqat analitik hisoblash yoki faqat vizual kuzatuv) baholaydi, holbuki zamonaviy xalqaro tajriba [1-9] kompleks, ko‘p bosqichli yondashuvning ancha ishonchli natija berishini ko‘rsatmoqda. Shu sababli, ushbu tadqiqotning maqsadi — Qalmoqqir koni misolida bort va pog‘onalar turg‘unligini baholashning tektonik kuchlanishni hisobga oluvchi, dala monitoringi orqali tasdiqlanadigan, kompleks metodikasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, alohida-alohida mamlakatlarda (Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston) sinovdan o‘tgan bort turg‘unligini baholash usullari birinchi marta yagona uzviy metodikaga birlashtiriladi va O‘zbekistonning aniq kon-geologik obyekti — Qalmoqqir koni sharoitiga moslashtiriladi.

1. Mavzu bo‘yicha adabiyotlar tahlili

Bort turg‘unligini baholash bo‘yicha mavjud ilmiy yondashuvlarni besh yo‘nalishga guruhlash mumkin.

1.1. Analitik va sonli modellashtirish usullari

Yakovlev va boshq. [1] tektonik kuchlanish maydonini hisobga oluvchi analitik model taklif qilishgan; Kachkanar KMKning 30 metrlik, 60° qiyalikdagi pog‘onasi uchun tektonik kuch Ft=6,0 MN bo‘lganda yoriq burchagi 42°dan oshganda, Ft=8,0 MN bo‘lganda esa 33°dan oshganda turg‘unlik buzilishi ko‘rsatilgan. Mualliflar, shuningdek, geomexanik risklarni baholash uchun ehtimollik (voqeaning yuz berish tez-tezligini tavsiflovchi, 5 daraja: A dan E gacha) va oqibat og‘irligi (voqea yuz berganda uning natijasi qanchalik jiddiy bo‘lishini tavsiflovchi, 5 daraja) matritsasiga asoslangan tizimlashtirilgan risk reestrini taklif qilishgan.

Lazarev va Kiselev [9] Xuk-Braun nochiziqli buzilish mezoniga asoslangan mualliflik sonli algoritmini ishlab chiqishgan. Bu algoritm bort massivini chekli elementlarga bo‘lib, har bir elementning kuchlanish-deformatsiya holatini hisoblaydi, natijada bort bo‘ylab xavfsizlik koeffitsientining fazoviy taqsimotini aniqlash imkonini beradi. Usulning afzalligi shundaki, u jinsning portlash zonalaridagi nurash (vivetrivaniya) va yoriqlanish natijasida yuzaga keladigan anizotropiyasini (turli yo‘nalishda turlicha mustahkamlik ko‘rsatishini) hisobga oladi — bu klassik izotrop modellarda e’tiborga olinmaydi.

Wang, Li va Yang [3] logarifmik spiralning eng kam kvadratlar prinsipiga asoslangan vizualizatsiya usulini taklif qilishgan: bunda potensial sirpanish sirti logarifmik spiral shaklida modellashtiriladi, so‘ng energiya balansi (ishlarning tenglashish) sharti orqali eng xavfli (minimal xavfsizlik koeffitsientiga ega) sirpanish sirti tsiklik ravishda qidiriladi. Bu — yuqori chegara analiz (upper bound limit analysis) usulining bir ko‘rinishi bo‘lib, natijalar an‘anaviy chegaraviy muvozanat usuli bilan yuqori aniqlikda (R^2>0,9995) mos kelishi ko‘rsatilgan.

1.2. Yoriqlanish tizimini instrumental o‘rganish

B. Xusan, S.A. Mustafin va hammualliflar [6] Koktasjal konida bort massividagi yoriqlanish tizimini o‘rganish uchun kompleks metodika qo‘llashgan: skvajinalar video-endoskop yordamida optik suratga olingan (yoriqlar kengligi va suv bilan to‘yinganligi aniqlangan), bort sirtidagi tabiiy yoriqlar geologik kompas bilan o‘lchangan, so‘ng yig‘ilgan ma’lumotlar Dips dasturida statistik guruhlangan va SWedge dasturida potensial qulash prizmalarini baholash uchun qayta ishlangan. Natijada bort massivi yoriqlanish darajasiga ko‘ra rayonlashtirilgan.

1.3. Monitoring texnologiyalari

Timofeeva va hammualliflar [4] MSR (Movement & Surveying Radar) radiolokatsion tizimini tavsiflashgan. MSR — yer usti (nazoratchi) radari bo‘lib, u quyidagi asosiy qismlardan tashkil topadi: signal chiqaruvchi/qabul qiluvchi antenna bloki, signalni qayta ishlovchi hisoblash bloki, quvvat manbai va ma’lumotni uzatish moduli. Radar bort qarshisidagi barqaror, xavfsiz masofadagi (30 dan 2500 metrgacha) nuqtaga o‘rnatiladi va bort tomon yuqori chastotali elektromagnit (mikroto‘lqin) signal yuboradi. Har bir qayta skanerlashda signalning bort sirtidan qaytib kelish fazasi (interferometrik tamoyil) oldingi o‘lchov bilan solishtiriladi — hatto millimetrning bir necha ulushi darajasidagi siljish ham signal fazasining o‘zgarishi orqali aniqlanadi. Bu tizim gorizontal tekislikda -104° dan +104° gacha bo‘lgan sektorni muntazam skanerlab, bort sirtining butun deformatsiya xaritasini real vaqt rejimida, istalgan ob-

havo sharoitida (tuman, yomg‘ir, chang, tungi vaqt) yangilab boradi — bu uni optik/lazer asosidagi usullardan ustun qiladi.

Zhao va hammualliflar [2] Xitoyning Changshanhao (CSH) konida mikroseysmik (MS) monitoring tizimini qo‘llashgan. Mikroseysmik monitoring — bu passiv «tinglash» tizimi: jins massivi ichida mikroyorilish (mikro-treshchina) yuz berganda, ozgina elastik to‘lqin energiyasi ajralib chiqadi (xuddi mikroskopik zilzila kabi). Bort atrofidagi maxsus burg‘ilangan skvajinalarga o‘rnatilgan 12 ta sensor (akselerometr) ushbu to‘lqinni qayd etadi; turli sensorlarga signal turli vaqtda yetib kelgani uchun (signalning kelish vaqtidagi farq orqali, xuddi zilzila o‘chog‘ini aniqlashga o‘xshab) yorilish joyi fazoviy jihatdan uch o‘lchamda aniqlanadi. Bunga qo‘shimcha ravishda inklinometrlar qo‘llanilgan — bu asbob burg‘ilash skvajinasi ichiga o‘rnatilgan moslashuvchan quvur bo‘lib, uning turli chuqurlikdagi qiyalik burchagini davriy o‘lchash orqali yer qa‘ridagi qaysi chuqurlikda gorizontal siljish sodir bo‘layotganini (ya‘ni sirpanish sirtining chuqurligini) aniqlash imkonini beradi.

Bort holatini baholash uchun ikkita muhim ko‘rsatkich hisoblab chiqilgan. Birinchisi — ES/EP nisbati, ya‘ni har bir mikroseysmik voqeaning S-to‘lqin (kesish to‘lqini) energiyasining P-to‘lqin (siqilish to‘lqini) energiyasiga nisbati; bu nisbat qayd etilgan tebranish signalining o‘zidan, signalni qayta ishlash dasturi orqali S- va P-to‘lqin qismlarining energiyasini alohida hisoblash yo‘li bilan olinadi, va u yorilishning turini (cho‘zilish yoki siljima xarakterda ekanini) ko‘rsatadi. Ikkinchisi — Gutenberg-Richter munosabatidagi b-qiymat: bu qiymat ma‘lum vaqt oralig‘ida qayd etilgan barcha mikroseysmik voqealarning magnitudaviy taqsimotini statistik chiziqli regressiya orqali tahlil qilish natijasida olinadi ($\log_{10} N = a - bM$ tenglamasi asosida); b-qiymatning pasayishi kattaroq miqyosdagi buzilish xavfi ortayotganidan dalolat beradi. Ushbu tizim orqali CSH konida bortni yengillashtirishdan so‘ng xavfsizlik koeffitsienti 1,15 dan 1,30 gacha oshgan, mikroseysmik voqealar soni esa 86% ga kamaygan.

Kagan va Chernobrov [8] Rossiyaning Kovdor GOKidagi «Jelezniy» rudnigida chekka konturdan tashqaridagi, ~1000 metr chuqurlikdagi skvajinalarga o‘rnatilgan 12 sensorli tizim orqali uch yillik monitoring o‘tkazib, 2495 ta seysmik voqeani (shundan 45 tasi 10^5 Jouldan yuqori energiyali) qayd etishgan va seysmik faol zonalarning yillar davomida fazoviy migratsiyasini aniqlashgan.

1.4. Portlash parametrlarini optimallashtirish

Sh.Sh. Zairov va hammualliflar [5] Olmaliq KMK (AGMK)ning «Yoshlik-I» (Qalmoqqir) konida botiq profilli qiyalik shakllantirish texnologiyasini sanoat sharoitida sinab ko‘rishgan: 30 metrlik pog‘onani uchta kichik bosqichga (podustup)

bo‘lib, qiya kontur skvajinalar (79°, 77°, 64° burchak ostida) va emulsion portlovchi moddalar (almonit, nobelit) yordamida bosqichma-bosqich portlatish orqali 70° qiyalik burchagiga ega turg‘un otkos olishgan. Bu — nazariy taklif emas, balki sanoat sharoitida sinovdan o‘tkazilgan real natija: standart usulda talab qilinadigan qo‘shimcha bort kengaytirish (razmetka (bortni kengaytirish)) ishlariga ehtiyoj qolmagan.

Wang va hammualliflar [7] adaptiv optimal yadro (Adaptive Optimum Kernel, AOK) vaqt-chastota tahlili texnikasidan foydalanishgan. Bu usul portlash tebranish signalini bir vaqtning o‘zida ham vaqt, ham chastota o‘qi bo‘yicha tahlil qilish imkonini beradi (klassik Fure tahlilidan farqli o‘laroq, signalning vaqt davomida qanday o‘zgarishini yo‘qotmaydi). Tahlil natijasida bort jinsiga zarar yetkazuvchi tebranish energiyasi asosan 0-78,125 Hz chastota diapazonida to‘planishi aniqlangan. Bundan tashqari, mualliflar zarrachalarning maksimal tezligiga (Peak Particle Velocity, PPV) asoslangan tezkor xavfsizlik mezonini taklif qilishgan: portlash natijasida yuzaga keladigan dinamik kuchlanish ($\sigma = \rho \cdot c \cdot v$, bu yerda ρ — jinsning zichligi, c — tebranish to‘lqinining tarqalish tezligi, v — zarracha tezligi) statik kuchlanish bilan qo‘shilib, jinsning yakuniy cho‘zilish mustahkamligidan oshmasligi kerak.

1.5. Adabiyotlar tahlilining umumlashtirilgan xulosasi

O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, mavjud usullarning har biri o‘z sohasida samarali, biroq ularning birortasi ham to‘liq kompleks yechimni taklif etmaydi: analitik-sonli usullar [1, 3, 9] dala tekshiruvisiz qoladi, monitoring texnologiyalari [2, 4, 8] tektonik omilni hisobga olmaydi, portlash optimallashtirish usullari [5, 7] esa alohida muhandislik-texnologik masala sifatida ko‘riladi. Bu — barcha yo‘nalishlarni birlashtirgan kompleks metodika ishlab chiqish zaruratini asoslaydi.

2. Tadqiqot obyekti va metodikasi

2.1. Tadqiqot obyekti

Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasidagi Olmaliq kon-metallurgiya kombinati (OKMK) tarkibidagi Qalmoqqir mis-molibden ochiq koni tanlandi. Kon Toshkent viloyatidagi Olmaliq shahrining shimoli-g‘arbiy qismida joylashgan bo‘lib, misporfir tipidagi dunyo bo‘yicha eng yirik 10 ta obyektdan biri hisoblanadi. Karyerning yer yuzasi bo‘yicha uzunligi ~4200 m, kengligi 1800-2300 m, eng yuqori belgidan karyer tubigacha bo‘lgan chuqurligi 470 metrdan ortiq, dengiz sathidan 750-1350 m balandlikda joylashgan [11, 12].

Konning geologik strukturasi cho‘kindi, magmatik va metamorfik jinslardan tashkil topgan. Asosiy tog‘ jinslari — siyenit-diorit, granodiorit-porfir va andezit-datsit porfir bo‘lib, bularga qo‘shimcha ravishda riolitporfirlar, dolomitlar, ohaktoshlar,

kvarsli monsonitporfirlar va ikkilamchi kvarsitlar uchraydi. Ruda va tog‘ jinslari massivi bir-biriga yaqin (zich) darzlar to‘ri bilan katta va kichik bloklarga bo‘lingan, yoriqlar erigan minerallar bilan to‘lgan [11]. Konda ikki turdagi yer osti suvi mavjud: to‘rtlamchi davr konlarining yer osti suvlari va paleozoy yoriqlaridagi yer osti suvlari.

Kon jinslarining qattiqlik koeffitsiyenti (Protodyakonov shkalasi bo‘yicha) 6 dan 14 gacha o‘zgaradi; sulfid rudalarining zichligi 2,6-2,8 t/m³, kon (qoplama) jinslarining zichligi esa 2,4-2,6 t/m³ ni tashkil etadi [11]. Ochish va foydali qazilmani qazib olish ishlari hozirgi vaqtda 25 ta pog‘onada olib boriladi, ulardan 16 tasining loyihaviy balandligi 15 m, 9 tasiniki esa 22,5 m ni tashkil etadi; ishchi pog‘onalarning otkos qiyalik burchagi 70-80° oralig‘ida. Karyerning yakuniy (statik) umumiy bort qiyalik burchagi, jinslarning fizik-mexanik xususiyatlaridan kelib chiqib, o‘rtacha 37-42° (ayrim barqaror zonalarda 35-45°) atrofida qabul qilingan [11].

Yaqin joylashgan «Yoshlik-I» konidan (bir xil kon-geologik majmua tarkibiga kiradi) olingan siyenit-diorit va diorit jinslarining laboratoriya sinov natijalari 2.1-jadvalda keltirilgan; bu ma’lumotlar Qalmoqqirning tektonik-litologik jihatdan yaqinligi sababli dastlabki taqqoslash uchun qo‘llanildi.

2.1-jadval

Ko‘rsatkich	**Siendiorit (kuchsiz o‘zg.)**	**Siendiorit (o‘rta o‘zg.)**	**Siendiorit (kuchli o‘zg.)**	**Diorit (kuchsiz o‘zg.)**	**Diorit (o‘rta o‘zg.)**	**Diorit (kuchli o‘zg.)**
Hajmiy massa, g/sm³	2,57-2,94	2,54-2,81	2,52-2,91	2,64-3,06	2,61-2,95	2,64-3,01
Siqilishga qarshilik (tabiiy), kgs/sm²	202-2173	118-1147	231-842	180-1761	425-1000	740-780
Cho‘zilishga qarshilik, kgs/sm²	40-250	39-168	148-165	195-235	138-145	146-170
Kogeziya (sila stsepleniya), kgs/sm²	44-357	58-120	38-130	30-370	96-205	55-198
Ichki ishqalanish burchagi, °	61-80	-	50-65	45-48	-	43-46
Elastiklik moduli, $\times 10^5$ kgs/sm²	4,6-5,4	-	4,0-4,6	4,2-6,21	-	3,8-4,5

2.1-jadval. «Yoshlik-I» koni jinslarining fizik-mexanik xususiyatlari (kon geologiya bo‘limi ma’lumotlari asosida). MUHIM IZOH: bu qiymatlar but (yaxlit) jins namunalarining laboratoriya sinov natijalari bo‘lib, bort massasidagi yoriq/zaif tekislik bo‘ylab siljish mustahkamligidan sezilarli darajada yuqori bo‘ladi.



1-rasm. Bort turg‘unligini baholashning besh bosqichli kompleks metodikasi sxemasi

2.2. Umumiy metodologik yondashuv

Taklif etilayotgan metodika beshta izchil bosqichdan iborat bo‘lib, har biri xalqaro tajribada sinovdan o‘tgan alohida usulga asoslanadi. Quyidagi 2.2-jadvalda faqat umumlashtirilgan xarita vazifasini bajaradi — har bir usulning batafsil tavsifi yuqorida, 1-bo‘limda keltirilgan.

2.2-jadval

№	Bosqich	Mazmuni	Asos manba
1	Instrumental diagnostika	Yoriq tizimini o‘lchash (taxeometr/geologik kompas), Dips/SWedge orqali fazoviy tahlil	[6]
2	Analitik-sonli modellashtirish	Tektonik kuchni hisobga oluvchi FS hisobi, Xuk-Braun mezoni asosidagi sonli model, yuqori chegara analiz	[1, 3, 9]
3	Dala monitoringi	Repper nuqtalar orqali davriy marksheyder o‘lchovi (perspektivada MS/radar)	[2, 4, 8]
4	Portlash optimallashtirish	Botiq profilli qiyalik shakllantirish, tebranish energiyasini nazorat qilish	[5, 7]
5	Risk boshqaruvi	Ehtimollik-oqibat matritsasi asosida risk reestrini shakllantirish	[1]

2.3. Xavfsizlik koeffitsientini hisoblash usullari

Tadqiqotda xavfsizlik koeffitsienti (FS) uchta o‘zaro to‘ldiruvchi usul orqali hisoblanadi.

Kulon-Mor mustahkamlik sharti (asosiy tenglama):

$$\tau = c + \sigma \cdot \tan\varphi \qquad (1)$$

bu yerda:

• τ — siljishga qarshilik,

• c — kogeziya (MPa),

• σ — normal kuchlanish (MPa),

• φ — ichki ishqalanish burchagi (gradus, °).

Tekis sirpanish (planar sliding) uchun klassik xavfsizlik koeffitsienti:

$$FS = [c \cdot A + (W \cdot \cos\psi - U) \cdot \tan\varphi]/(W \cdot \sin\psi) \qquad (2)$$

bu yerda:

• A — sirpanish sirti maydoni (m²),

• W — blok og‘irligi (kN),

• ψ — sirpanish sirtining tushish burchagi (°),

• U — poravoy suv bosimi kuchi (kN).

Tektonik kuchlanishni hisobga oluvchi tuzatilgan xavfsizlik koeffitsienti [1]:

$$FS = \frac{[c \cdot A + (W \cdot \cos\psi - U) \cdot \tan\varphi - Ft \cdot \sin\psi]}{(W \cdot \sin\psi + \mathrm{Ft} \cdot \cos\psi)} \qquad (3)$$

bu yerda: Ft — mintaqaviy tektonik kuchlanish maydonidan kelib chiquvchi qo‘shimcha kuch (MN).

Tekis sirpanish modeli sxemasi (planar sliding)
H — pog‘ona balandligi, β — otkos qiyalik burchagi, ψ — sirpanish sirti tushish burchagi,
W — blok og‘irligi, σ — normal kuchlanish, τ — siljishga qarshilik



2-rasm. Tekis sirpanish modelining sxematik tasviri (H, β, ψ, W, σ, τ parametrlari)

Uchinchi tekshiruv sifatida (2) va (3) formulalar natijalari Rocscience Slide2 dasturidagi sonli model natijasi bilan solishtiriladi; farq 5-10% chegarasida bo‘lganda metodika ishonchli deb hisoblanadi.

(2) va (3) formulalardagi A (sirpanish sirti maydoni) va W (sirpanuvchi blok og‘irligi) kattaliklari, oddiy uchburchak blok geometriyasi uchun, klassik tekis sirpanish tahlili formulalari [10] orqali quyidagicha hisoblanadi:

$$A = H / \sin\psi \quad (4)$$

$$W = 0{,}5 \cdot \gamma \cdot H^2 \cdot (\cot\psi - \cot\beta) \quad (5)$$

bu yerda:

• H — pog‘ona (yoki bort) balandligi (m),

• γ — jinsning hajmiy og‘irligi (kN/m³),

• β — bort/pog‘ona otkosining umumiy qiyalik burchagi (°).

(4) va (5) formulalar natijalari birlik kenglik (1 m) uchun hisoblanadi.

2.4. Dala monitoringi metodikasi va krip nazariyasi

Zamonaviy radiolokatsion va mikroseysmik uskunalarga [2, 4, 8] hozircha kirish imkoni cheklangan bo‘lgani sababli, tadqiqotning dastlabki bosqichida klassik marksheyder-geodezik monitoring qo‘llaniladi: xavfli deb topilgan uchastkalarga repper nuqtalar o‘rnatiladi va ular taxeometr/nivelir yordamida muntazam (oylik) intervalda o‘lchanadi.

Yig‘ilgan siljish ma’lumotlari uch bosqichli krip (sudralma deformatsiya) nazariyasi [2] asosida tahlil qilinadi. Krip — bu jinsning kuchlanish o‘zgarmagan yoki sekin o‘zgaruvchi sharoitda ham vaqt o‘tishi bilan asta-sekin deformatsiyalanish xususiyati bo‘lib, u odatda uchta ketma-ket bosqichdan iborat bo‘ladi: birlamchi krip — siljish tezligi boshida yuqori bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan asta-sekin pasayadi (jins yangi kuchlanish holatiga moslashadi); barqaror (ikkilamchi) krip — siljish deyarli bir tekis, o‘zgarmas tezlikda davom etadi, bu nisbatan uzoq davom etishi mumkin; tezlashuvchi (uchlamchi) krip — siljish tezligi keskin ortadi, bu bosqich odatda umumiy buzilish (ko‘chki)dan oldin yuzaga keladi va eng xavfli signal hisoblanadi. Amalda bu tahlil quyidagicha amalga oshiriladi: repper nuqtalaridan olingan kumulyativ siljish qiymatlari vaqt bo‘yicha grafikka tushiriladi, so‘ng siljish tezligi (grafik og‘ma burchagi) hisoblanadi. Agar tezlik pasayish tendensiyasida bo‘lsa — birlamchi bosqich, barqaror bo‘lsa — ikkilamchi bosqich, ortib borayotgan bo‘lsa — uchlamchi (xavfli) bosqich sifatida baholanadi. Adabiyotda tavsiya etilgan qo‘shimcha usul — teskari tezlik (1/tezlik) grafigini vaqt bo‘yicha chizish; bu qiymat nolga yaqinlashganda, bu buzilish vaqtining yaqinlashib kelayotganidan dalolat beradi. Olingan krip tahlili natijalari 2.3-bo‘limdagi analitik/sonli prognoz bilan taqqoslanadi.

3. Kutilayotgan natijalar

[6] Jo‘rayev M. Daladanoq eksportga. // “Qashqadaryo” gazetasi, 2016-yil 18-iyun, 73-son.
[7] Xo‘jayev N. Eksport: mahsulotni zamonaviy ko‘rinishda taklif eta olish muhim. // “Qashqadaryo” gazetasi, 2021-yil 20-aprel, 31-son.

oshishi hamda tashqi savdo aloqalarining mustahkamlanishiga muhim omil bo‘lib xizmat qilgan.

2016-yil birinchi choragida viloyatdagi 14 ta tadbirkorlik subyekti tomonidan jami 1 mln 543 ming AQSh dollarilik ho‘l va quritilgan meva-sabzavot eksporti amalga oshirildi. 2016-yilda viloyat hududlarida yetishtirilgan 5 xil mahsulot – chaqilgan yong‘oq, rangli karam, rediska, shirin qalampir va tozalangan yeryong‘oq birinchi marta xorijga sotildi[8].

Yakkabog‘ tumani industriyasi ko‘p jihatdan agrar soha asosiga qurilgan. Tumanda bog‘dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik yetakchi soha hisoblanadi. 2017-yili Yakkabog‘ tumanidagi “Sharofat ona Qahramon qizi” agrofirmasi fermerlardan va aholidan meva-sabzavot, uzum, dukkakli ekinlar xarid qilib xorijga sotish orqali 546 ming AQSh dollar savdo ko‘rsatkichini qayd etdi. 2018-yilda esa xorijlik savdogarlar bilan 2 mln 700 ming AQSh dollarilik shartnoma imzoladi. “Yakkabog‘ uzum servis” agrofirmasi Germaniya davlatiga chaqilgan yong‘oq yetkazib berish bo‘yicha 80 ming AQSh dollarilik shartnoma imzolagan. “Yakkabog‘ logistikasi” MChJ 2017-yilda Rossiya va Turkiya davlatlariga 650 ming AQSh dollarilik qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilgan[9]. 2014-2017-yillarda viloyat tumanlarida faoliyat yuritgan korxonalar meva-sabzavot eksportini sezilarli darajada kengaytirdi. Yangi korxonalar tashkil etilishi, yirik shartnomalar tuzilishi va mahsulot turlarining ko‘payishi natijasida viloyatda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini xorijiy bozorlarga chiqarish hajmi va geografiyasi kengaydi hamda eksport salohiyati mustahkamlandi.

2018-yilda Dehqonobod tumanida “Zaher Taher Trading” MChJ nomi bilan afg‘onistonlik ishbilarmon sarmoyasi bilan tashkil etilgan xorijiy korxona o‘z faoliyatini boshladi. Bu korxona tomonidan hududda kavrak plantatsiyasi va bodomzor barpo etish uchun 200 ming AQSh dollari miqdoridagi mablag‘ investitsiya qilindi[10]. Afg‘oniston investorlari ishtirokida yangi xorijiy korxonaning tashkil etilishi hududga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimining kuchayganini ko‘rsatadi.

2018-yilda viloyatda achchiq qalampir yetishtirish ham yo‘lga qo‘yilgan. “Big agro filds” MChJ 25 tonna, “Big agro organik” MChJ 50 tonna, “Big agro eksport” MChJ 20 tonna quritilgan achchiq qalampir, uning urug‘i va maydalangan unini eksport qilgan. Meva-sabzavotlar asosan Turkiya, Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Indoneziya, Qozog‘iston, Eron va Afg‘onistonga eksport qilingan[11].

[8] Jo‘rayev M. Saralab, qutilarga joylangan mahsulot – eksportga. // “Qashqadaryo” gazetasi, 2017-yil 16-may 58-son
[9] Jo‘rayev M. Eksport salohiyati. // “Qashqadaryo” gazetasi, 2018-yil 19-may 59-son.
[10] “Qashqadaryo” gazetasi, 2018-yil 2-oktabr, 116-son.
[11] “Qashqadaryo” gazetasi, 2019-yil 23-aprel, 32-son

2019-yilning dastlabki 5 oyi davomida Qashqadaryo viloyati xorijga 20 ming tonna meva-sabzavotlarni eksport qilgan. Bu iqtisodiy ko‘rsatkichga o‘z ulushini qo‘shgan ba’zi tadbirkorlik subyektlari haqida quyidagi jadvalda[12] ma’lumot keltirilgan.

Tadbirkorlik subyekti nomi	**Tumani**	**Mahsulot nomi va miqdori**	**Eksport qilingan mamlakatlar**
“Yakkabog‘ obod yurt” fermer xo‘jaligi	Yakkabog‘	30 tonna o‘rik, 25 tonna olxo‘ri, 4 tonna shaftoli	Yevropa mamlakatlari
“Zaheer Taher trading” MCHJ	Dehqonobod	24 tonna o‘rik, 40 tonna mosh	Iroq
“Rajab xoji” fermer xo‘jaligi	Chiroqchi	Qovun va tarvuz	MDH mamlakatlari va Ukraina
“Europe line trading” MCHJ, “Aziz agro trans fayz” MCHJ	Muborak	Piyoz	Ruminiya, Germaniya, Bolgariya
“Nasaf trade invest”	Qarshi tumani	Gilos va o‘rik	BAA
“Beshchashmalik Yashnar” fermer xo‘jaligi	Chiroqchi	yeryong‘oq, bodom, mayiz, qovun, sabzi, anor, uzum	Qirg‘iziston
“Sho‘rtan agro trans” MCHJ	Qarshi shahri	quruq meva, olxo‘ri qoqisi, jiyda, mayiz	Turkiya va Ozarbayjon
“Obod Mirishkor eksport” MCHJ	Mirishkor	Qora uzum	Xitoy
“Nishon ko‘zgu” fermer xo‘jaligi	Nishon	40 tonna xurmo	Qozog‘iston
“Lavr-farm” MCHJ	G‘uzor	loviya, no‘xat	Eron, Afg‘oniston, Pokiston

Qashqadaryo viloyatidan xorij mamlakatlariga 2020-yilda 33,1 mln AQSh dollar[13], 2023-yilda 49 mln AQSh dollari[14], 2024-yilda 51,2 mln AQSh dollari[15]

[12] Jadval tadqiqotchi tomonidan statistik ma’lumotlar asosida tuzildi.
[13] Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi axborotnomasi,2020-yil, 18-19-bet
[14] Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi axborotnomasi,2023-yil, 108-bet
[15] Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi axborotnomasi,2024-yil, 16-bet

miqdoridagi meva-sabzavotlar eksporti amalga oshirildi. Asosiy xaridor mamlakatlar Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Afg‘oniston, Pokiston va Ukraina mamlakatlari bo‘lishdi. Bu faktlar Qashqadaryo viloyati qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining tashqi bozorlarda mustahkam o‘rin egallab borayotganligidan dalolat beradi.

Xulosa. Qashqadaryo viloyatidan meva-sabzavotlarni xorijiy mamlakatlarga eksport qilish hududning iqtisodiy taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Qishloq xo‘jaligida eksportbop meva-sabzavotlarni yetishtirishga katta e’tibor berila boshlandi. Viloyatda yangi ish o‘rinlari yaratildi. Sohada zamonaviy ishlab chiqarish uskunalari qo‘llanila boshlandi. Tashqi bozorda viloyat dehqonlarining yetishtirgan meva-sabzavotlari o‘z o‘rniga ega bo‘lib bordi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jo‘rayev M. Daladanoq eksportga. // “Qashqadaryo” gazetasi, 2016-yil 18-iyun, 73-son.

2. Jo‘rayev M. Saralab, qutilarga joylangan mahsulot – eksportga. // “Qashqadaryo” gazetasi, 2017-yil 16-may 58-son

3. Jo‘rayev M. Eksport salohiyati. // “Qashqadaryo” gazetasi, 2018-yil 19-may 59-son.

4. “Qashqadaryo” gazetasi, 2014-yil 17-iyul 84-son.

5. Qashqadaryo” gazetasi, 2018-yil 2-oktabr, 116-son.

6. “Qashqadaryo” gazetasi, 2019-yil 23-aprel, 32-son

7. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi axborotnomasi,2020-yil, 18-19-bet

8. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi axborotnomasi,2023-yil, 108-bet

9. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi axborotnomasi,2024-yil, 16-bet

10. Xo‘jayev N. Eksport: mahsulotni zamonaviy ko‘rinishda taklif eta olish muhim. // “Qashqadaryo” gazetasi, 2021-yil 20-aprel, 31-son.

ДАВЛАТ ИШТИРОКИДАГИ КОРХОНАЛАРДА ИЧКИ НАЗОРАТ ТИЗИМИ САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШНИНГ ИЛМИЙ-МЕТОДИК АСОСЛАРИ

Ташматов Рустам Хусанович
Давлат активларини бошқариш агентлиги ҳузуридаги Хусусийлаштириш ва давлат активларини бошқариш муаммоларини тадқиқ этиш маркази Г.В.Плеханов номидаги РИУ Тошкент филиали
rustam9837@mail.ru

Аннотация: *Ушбу тезисда давлат иштирокидаги корхоналарда ички назорат тизими самарадорлигини баҳолашнинг аҳамияти ва асосий ёндашувлари ёритилган бўлиб, давлат активларидан самарали фойдаланиш, корпоратив бошқарув сифатини ошириш, рискларни ўз вақтида аниқлаш ва қонунчилик талабларига риоя этишда ички назоратнинг ўрни асосланган ҳамда уни баҳолаш ва такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари кўриб чиқилган.*

Калит сўзлар: *ички назорат, давлат иштирокидаги корхона, давлат активлари, риск-менежмент, комплаенс, ички аудит, корпоратив бошқарув, баҳолаш методологияси, ички назорат етуклиги, мониторинг.*

Аннотация: *В тезисах рассматриваются значение и основные подходы к оценке эффективности системы внутреннего контроля на предприятиях с государственным участием, раскрывается её роль в обеспечении эффективного использования государственных активов, повышении качества корпоративного управления, своевременном выявлении рисков и соблюдении требований законодательства, а также определяются основные направления совершенствования внутреннего контроля.*

Ключевые слова: *внутренний контроль, система внутреннего контроля, предприятие с государственным участием, государственные активы, риск-менеджмент, комплаенс, внутренний аудит, корпоративное управление, контрольная среда, методология оценки, зрелость внутреннего контроля, мониторинг.*

Abstract: *This thesis examines the importance and key approaches to assessing the effectiveness of internal control systems in state-participated enterprises, highlighting their role in ensuring the efficient use of state assets, improving corporate*

governance, identifying risks in a timely manner, and ensuring legal compliance, while also outlining the main directions for improving internal control practices.

Keywords: *internal control, internal control system, state-participated enterprise, state assets, risk management, compliance, internal audit, corporate governance, control environment, assessment methodology, internal control maturity, monitoring.*

Давлат иштирокидаги корхоналар мамлакат иқтисодиётида давлат активларини бошқариш, бюджет ва инвестиция ресурсларидан фойдаланиш, стратегик тармоқларни ривожлантириш ҳамда давлат ва аҳоли олдидаги иқтисодий мажбуриятларни бажаришда муҳим ўрин тутади. Шу сабабли мазкур корхоналарда бошқарув қарорларининг сифати давлат активларининг сақланиши ва улардан самарали фойдаланилиши, молиявий ҳисоботларнинг ишончлилиги, корпоратив бошқарув шаффофлиги, манфаатлар тўқнашувининг олдини олиш ва қонунчилик талабларига риоя этиш билан бевосита боғлиқ.

Бундай шароитда ички назорат тизими корхонанинг алоҳида назорат тадбирлари йиғиндиси эмас, балки корпоратив бошқарув, рискларни бошқариш, ахборот алмашинуви, комплаенс ва мониторингни қамраб олувчи яхлит бошқарув механизми сифатида қаралиши лозим. Ички назорат тизимини баҳолашнинг асосий мақсади унинг расмий мавжудлигини эмас, балки белгиланган мақсадларга эришишда амалда қанчалик самарали ишлаётганини аниқлашдан иборат.

Тадқиқотнинг мақсади давлат иштирокидаги корхоналарда ички назорат тизими етуклиги ва самарадорлигини комплекс баҳолаш имконини берувчи методологик ёндашувни шакллантиришдан иборат. Ушбу ёндашув назорат муҳити, рискларни баҳолаш ва бошқариш, назорат тартиб-таомиллари, ахборот ва коммуникация, мониторинг ва такомиллаштириш каби бешта асосий компонентга асосланади.

Ички назорат тизимини комплекс баҳолашда унинг ўзаро боғлиқ элементларини алоҳида кўриб чиқиш муҳим. Ҳар бир компонент корхонада назоратнинг муайян жиҳатини ифодалайди, уларнинг биргаликдаги баҳоси эса ички назорат тизимининг умумий етуклик даражасини кўрсатади.

Шу нуқтаи назардан, ички назорат тизимининг самарадорлигини комплекс баҳолашда асосий эътибор унинг бешта ўзаро боғлиқ компоненти — назорат муҳити, рискларни баҳолаш ва бошқариш, назорат тартиб-таомиллари, ахборот ва коммуникация, мониторинг ва такомиллаштиришнинг ҳолати ҳамда ўзаро мувофиқлигига қаратилади (1-жадвал).

Назорат муҳити ички назорат тизимининг институционал асосини ташкил этади. У раҳбариятнинг қонунийлик, ҳалоллик, шаффофлик ва ҳисобдорлик тамойилларига муносабати, вазифа ва ваколатларнинг аниқ тақсимланганлиги, этика ва коррупцияга қарши механизмлар, манфаатлар тўқнашувини бошқариш ҳамда хабар бериш каналларининг мавжудлиги билан белгиланади. Рискларни баҳолаш ва бошқариш компоненти корхона фаолиятидаги стратегик, молиявий, инвестицион, операцион ва ҳуқуқий рискларни тизимли равишда аниқлаш ва бошқаришни назарда тутади. Рисклар реестрини юритиш, муҳим рисклар бўйича масъулларни белгилаш ва уларни камайтириш чораларини ишлаб чиқиш ушбу жараённинг муҳим элементларидир.

1-жадвал.

Ички назорат тизимини баҳолаш компонентлари[16]

№	Компонент	Асосий мазмуни
1	Назорат муҳити	Раҳбариятнинг назоратга муносабати, ваколат ва масъулиятларни тақсимлаш, этика, коррупцияга қарши механизмлар
2	Рискларни баҳолаш ва бошқариш	Рискларни аниқлаш, баҳолаш, ҳужжатлаштириш, масъулларни белгилаш ва уларни камайтириш
3	Назорат тартиб-таомиллари	Бизнес жараёнларида профилактик ва детектив назоратларни ташкил этиш
4	Ахборот ва коммуникация	Ишончли ахборотни шакллантириш, сақлаш, узатиш ва раҳбариятга ўз вақтида етказиш
5	Мониторинг ва такомиллаштириш	Назоратларни мунтазам кузатиш, камчиликларни бартараф этиш ва тизимни такомиллаштириш

Назорат тартиб-таомиллари харидлар, шартномалар, молиявий операциялар, активларни бошқариш, тўловлар ва бухгалтерия ҳисобидаги муҳим жараёнларни қамраб олади. Назоратларнинг самарадорлиги уларнинг ҳужжатларда мавжудлиги билан эмас, балки амалда ишлаши билан белгиланиши керак. Ахборот ва коммуникация компоненти бошқарув қарорлари учун зарур бўлган маълумотларнинг ишончлилиги, тўлиқлиги ва ўз вақтидалигини таъминлашга қаратилган. Мониторинг ва такомиллаштириш эса ички назорат тизимининг узлуксиз ривожланишини таъминлайди.

Ички назорат тизимининг ҳар бир компоненти самарадорлигини объектив

[16] Муаллиф ишланмаси

баҳолаш унинг асосий функциялари ва назорат механизмларини ифодаловчи аниқ мезонларни белгилашни талаб этади. Ушбу мезонлар асосида баҳолаш натижаларининг қиёсланувчанлиги ва тизимнинг умумий етуклик даражасини аниқлаш имкони яратилади (2-жадвал).

2-жадвал.

Ички назорат тизимини баҳолаш мезонлари[17]

Компонент	Баҳолаш мезонлари
Назорат муҳити	Раҳбариятнинг назоратга муносабати; функция, ваколат ва масъулиятларнинг аниқлиги; этика ва коррупцияга қарши механизмлар; номос функцияларни ажратиш; хабар бериш каналлари
Рискларни баҳолаш ва бошқариш	Рискларни аниқлаш; баҳолаш ва ҳужжатлаштириш; рисклар реестри; рисклар бўйича масъулларни белгилаш; рискларни камайтириш ва эрта огоҳлантириш механизмлари
Назорат тартиб-таомиллари	Асосий жараёнларда назорат нуқталари; тасдиқлаш ва ваколатлар тизими; функцияларни ажратиш; автоматлаштирилган назоратлар; назорат натижаларини ҳужжатлаштириш
Ахборот ва коммуникация	Ахборотнинг ишончлилиги; ўз вақтидалиги; ҳужжат айланмаси; раҳбариятга ҳисобот бериш; камчиликлар ва қоидабузарликлар реестри
Мониторинг ва такомиллаштириш	Доимий мониторинг; даврий баҳолаш; аудит тавсияларини бажариш; камчиликларни бартараф этиш мониторинги; назорат тизимини такомиллаштириш

Таклиф этилаётган методологияда ҳар бир компонент бўйича бештадан мезон белгиланади. Натижада ички назорат тизими жами 25 та мезон асосида баҳоланади. Ҳар бир мезон 1 баллдан 5 баллгача баҳоланиб, максимал натижа 125 баллни ташкил этади.

Беш баллик шкала ички назорат тизимининг фақат мавжуд ёки мавжуд эмаслигини эмас, балки унинг етуклик даражасини ҳам ифодалаш имконини беради.

Шунинг учун ички назорат тизимининг ҳар бир мезонини бир хил ёндашув асосида баҳолаш мақсадида беш баллик шкала қўлланилади, бунда баллнинг ошиши назорат механизмларининг мавжудлигидан ташқари, уларнинг тизимлилиги, амалдаги самарадорлиги ва такомиллаштириш даражасини ҳам ифодалайди (3-жадвал).

[17] Муаллиф ишланмаси

3-жадвал.

Баҳолаш шкаласи[18]

Балл	Назорат тизимининг ҳолати
1	Назорат мавжуд эмас ёки жуда заиф
2	Назорат қисман мавжуд, тизимли эмас
3	Назорат мавжуд ва асосан ишлайди, бироқ камчиликлар бор
4	Назорат тизимли, ҳужжатлаштирилган ва самарали ишлайди
5	Назорат етук, барқарор ва мунтазам такомиллаштирилади

Бунда юқори балл қўйиш учун фақат ички ҳужжатнинг мавжудлиги етарли эмас. Назоратнинг амалда ишлаётганини тасдиқловчи объектив далиллар – операциялар намуналари, ҳисоботлар, тасдиқлаш излари, ахборот тизимлари журналлари, аудит материаллари ва бошқа ҳужжатлар ҳам инобатга олиниши лозим. Шу жиҳатдан баҳолашда «ҳужжат мавжуд» ва «назорат амалда ишлаяпти» тушунчаларини ажратиш муҳим аҳамиятга эга. Бу ёндашув формал баҳолаш хавфини камайтиради ва натижаларнинг объективлигини оширади.

Баҳолаш натижасида ҳар бир мезон бўйича олинган баллар йиғилади. Максимал натижа 125 баллга тенг бўлганлиги сабабли ички назорат тизимининг умумий етуклик даражаси қуйидаги формула асосида ҳисобланади:

$$\boldsymbol{E = \frac{S}{125}\ x\ 100}$$

бу ерда $\boldsymbol{E}$ – ички назорат тизимининг умумий етуклик даражаси, фоизда; $\boldsymbol{S}$ – баҳолаш натижасида олинган жами балл; **125** – максимал балл.

Мазкур формула асосида аниқланган натижалар ички назорат тизимининг етуклик даражасини ифодаловчи белгиланган интерваллар билан таққосланиб, тизимнинг умумий ҳолати ва такомиллаштириш эҳтиёжини баҳолаш имконини беради (4-жадвал).

4-жадвал.

Ички назорат тизими етуклик даражасини талқин қилиш[19]

Натижа	Етуклик даражаси	Умумий тавсиф
90–100%	Жуда юқори	Назоратлар етук, тизимли ва доимий такомиллаштирилади
75–89%	Юқори	Назоратлар асосан самарали, айрим камчиликлар мавжуд

[18] Муаллиф ишланмаси
[19] Муаллиф ишланмаси

60–74%	Ўрта	Асосий назоратлар мавжуд, аммо такомиллаштириш талаб этилади
40–59%	Паст	Назорат тизимида сезиларли камчиликлар мавжуд
0–39%	Танқидий паст	Назорат тизими заиф ёки етарли даражада шаклланмаган

Умумий натижани талқин қилишда фақат жами баллга эътибор қаратиш тўғри эмас. Алоҳида компонентлардаги паст кўрсаткичлар умумий фоиз юқори бўлган тақдирда ҳам жиддий риск манбаи бўлиши мумкин. Шунинг учун баҳолаш натижалари компонентлар ва мезонлар кесимида ҳам таҳлил қилиниши зарур.

Давлат иштирокидаги корхоналарда ички назорат тизимини баҳолашда ҳуқуқий комплаенс алоҳида аҳамиятга эга. Давлат активларидан фойдаланиш, давлат харидлари, молиявий ҳисобдорлик, корпоратив бошқарув ва манфаатлар тўқнашуви билан боғлиқ мажбурий талабларга риоя қилиниши ички назоратнинг ишончлилигини таъминловчи муҳим шарт ҳисобланади. Шу сабабли баҳолаш жараёнида ҳуқуқий комплаенс-фильтрдан фойдаланиш мақсадга мувофиқ. Жиддий ҳуқуқбузарликлар аниқланган ҳолатда корхонанинг бошқа компонентлар бўйича юқори натижалари мазкур камчиликларни автоматик равишда қопламаслиги керак.

Ички назорат тизимида функцияларнинг аниқ ажратилиши ҳам муҳим. Жараён эгалари назоратларни амалга оширади, риск-менежмент рискларни бошқаришни мувофиқлаштиради, комплаенс қонунчилик ва ички талабларга риоя этилишини мониторинг қилади, ички аудит эса мустақил ва объектив баҳолашни амалга оширади. Функцияларнинг аралашиб кетиши «ўзини ўзи назорат қилиш» хавфини кучайтиради ва ички аудитнинг мустақиллигига салбий таъсир кўрсатиши мумкин.

Ички назорат тизимини баҳолаш объектив далилларга асосланган ҳолда амалга оширилиши керак. Баҳолаш жараёнида корхонанинг ички сиёсат ва низомлари, рисклар реестри, молиявий ва бошқарув ҳисоботлари, аудит материаллари, харид ҳужжатлари, шартномалар, бошқарув органлари баённомалари, ахборот тизимлари маълумотлари ва бошқа манбалардан фойдаланиш мумкин. Баҳолаш жараёни шартли равишда баҳолаш объекти ва мезонларини белгилаш, зарур ҳужжат ва далилларни йиғиш, мезонлар бўйича балл қўйиш, компонентлар кесимида натижаларни ҳисоблаш, умумий етуклик даражасини аниқлаш, камчиликларни қайд этиш ва уларни бартараф этиш

чораларини белгилаш босқичларидан иборат.

Баҳолаш натижаси фақат рейтинг ёки фоиз кўрсаткичи сифатида қолиб кетмаслиги керак. Аниқланган камчиликлар бўйича масъул шахслар, амалга ошириладиган чоралар ва бажариш муддатлари белгиланиши, кейинги мониторингда эса чора-тадбирларнинг ҳақиқатда бажарилгани ва муаммонинг бартараф этилгани текширилиши зарур. Шу тариқа мониторинг ички назорат тизимини доимий такомиллаштириш механизмига айланади.

Ички назорат тизимини баҳолаш камида йилда бир марта амалга оширилиши мумкин. Корхонанинг бизнес модели, мулкчилик тузилмаси, қонунчилик, ахборот технологиялари ёки рисклар муҳитида сезиларли ўзгаришлар юз берганда қўшимча баҳолаш ўтказиш мақсадга мувофиқ. Айниқса, муҳим қоидабузарликлар ёки назорат камчиликлари аниқланган ҳолатларда қайта баҳолаш ички назорат тизимининг ҳолатини объектив аниқлаш имконини беради.

Таклиф этилаётган методологиянинг муҳим жиҳати ички назорат тизимини «назорат бор» ёки «назорат йўқ» деган икки ҳолат билан чекламасдан, унинг етуклик даражасини баҳолаш имконини беришидир. Бунда назоратларнинг институционаллашуви, ҳужжатлаштирилиши, амалда ишлаши, рискларга мослиги, мониторинг қилиниши ва такомиллаштирилиши ҳисобга олинади.

Шундай қилиб, давлат иштирокидаги корхоналарда ички назорат тизими самарадорлигини баҳолашнинг беш компонентли ва 25 мезонга асосланган модели корхонадаги назорат муҳити, рискларни бошқариш, амалий назорат процедуралари, ахборот-коммуникация ва мониторинг ҳолатини комплекс баҳолаш имконини беради. 1–5 баллик шкала ва 125 баллик максимал натижа асосида шакллантириладиган умумий кўрсаткич корхоналарнинг ички назорат тизими етуклигини баҳолаш ва унинг заиф жиҳатларини аниқлаш учун қулай инструмент ҳисобланади.

Мазкур ёндашувнинг амалий аҳамияти шундаки, ички назорат самарадорлиги фақат мавжуд ҳужжатлар билан эмас, балки назоратларнинг амалда ишлаши, рискларга мослиги, ҳуқуқий талабларга риоя қилиниши, масъулиятларнинг аниқ ажратилганлиги ва аниқланган камчиликларни бартараф этиш натижалари билан баҳоланади. Шу нуқтаи назардан ушбу методология давлат активларини самарали бошқариш, корпоратив бошқарув сифатини ошириш, молиявий интизомни мустаҳкамлаш, ҳуқуқий ва коррупциявий хавфларни камайтириш ҳамда бошқарув қарорларининг сифатини ошириш учун методик асос бўлиб хизмат қилиши мумкин.

Хулоса қилиб айтганда, ички назорат тизимини тизимли ва далилларга асосланган тарзда баҳолаш давлат иштирокидаги корхоналарда назорат механизмларининг реал ҳолатини аниқлаш, мавжуд камчиликларни бартараф этиш ва бошқарув жараёнларини такомиллаштириш имконини беради. Беш компонентли баҳолаш модели ички назоратни алоҳида текширув функцияси сифатида эмас, балки корпоратив бошқарув ва рискларни бошқариш билан интеграциялашган узлуксиз бошқарув механизми сифатида ривожлантиришга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикасининг 2023 йил 9 мартдаги ЎРҚ-821-сон «Давлат мулкини бошқариш тўғрисида»ги Қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси «LexUZ». – URL: https://lex.uz/docs/6401697

2. Ўзбекистон Республикасининг 2024 йил 5 июндаги ЎРҚ-931-сон «Манфаатлар тўқнашуви тўғрисида»ги Қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси «LexUZ». – URL: https://lex.uz/docs/6952742

3. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 3 январдаги ЎРҚ-419-сон «Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида»ги Қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси «LexUZ». – URL: https://lex.uz/docs/3088008

4. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 22 апрелдаги ЎРҚ-684-сон «Давлат харидлари тўғрисида»ги Қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси «LexUZ». – URL: https://lex.uz/docs/5382974

5. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 25 февралдаги ЎРҚ-677-сон «Аудиторлик фаолияти тўғрисида»ги Қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси «LexUZ». – URL: https://lex.uz/docs/5307886

6. Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission (COSO). Internal Control-Integrated Framework. – Durham, NC : COSO, 2013. — URL: https://www.coso.org/internal-control

7. The Institute of Internal Auditors. Global Internal Audit Standards. — Lake Mary, FL : The Institute of Internal Auditors, 2024. — Effective January 9, 2025. — URL: https://www.theiia.org/en/content/standards/complete-global-internal-audit-

standards/?utm_source=chatgpt.com

АНАЛИЗ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН ПО РЕГУЛИРОВАНИЮ ГОСУДАРСТВЕННЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

Усманов Бехруз Шовкат угли
Центр исследований проблем приватизации и управления государственными активами при Агентстве по управлению государственными активами Республики Узбекистан
e-mail: taxn_1993@mail.ru

Аннотация. *В статье проведён анализ законодательства зарубежных государств в целях сопоставления правового регулирования создания и деятельности организаций, выполняющих функции, определённые их учредительными документами, и использующих государственное или муниципальное имущество. Исследование охватывает Республику Казахстан, Российскую Федерацию, Республику Беларусь, Грузию, Азербайджанскую Республику, Федеративную Республику Германия, Республику Польша и Соединенное Королевство Великобритании и Северной Ирландии. Сравнение проведено по восьми взаимосвязанным направлениям: вопросы создания (учреждения); финансирование деятельности; управление; учёт и реестр; типы государственных учреждений; вопросы реорганизации; ответственность; отчётность.*

Ключевые слова: *государственные учреждения, зарубежное законодательство, сравнительно-правовой анализ, государственное имущество, право оперативного управления, публичные юридические лица, имущественная ответственность государства, реестр государственного имущества, реорганизация и ликвидация, отчётность и прозрачность.*

Annotatsiya. *Maqolada ta’sis hujjatlarida belgilangan vazifalarni bajaruvchi hamda davlat yoki munitsipal mulkdan foydalanuvchi tashkilotlarni tashkil etish va ularning faoliyatini huquqiy tartibga solishni taqqoslash maqsadida xorijiy davlatlar qonunchiligi tahlil qilingan. Tadqiqot Qozog‘iston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, Gruziya, Ozarbayjon Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Polsha Respublikasi hamda Buyuk Britaniya va Shimoliy*

Irlandiya Birlashgan Qirolligini qamrab oladi. Taqqoslash o‘zaro bog‘liq sakkizta yo‘nalish bo‘yicha amalga oshirilgan: tashkil etish (ta’sis etish) masalalari; faoliyatni moliyalashtirish; boshqaruv; hisobga olish va reyestr; davlat muassasalari turlari; qayta tashkil etish masalalari; javobgarlik; hisobot.

Kalit so‘zlar: *davlat muassasalari, xorijiy qonunchilik, qiyosiy-huquqiy tahlil, davlat mulki, operativ boshqaruv huquqi, ommaviy yuridik shaxslar, davlatning mulkiy javobgarligi, davlat mulki reyestri, qayta tashkil etish va tugatish, hisobdorlik va shaffoflik.*

Abstract. *The article analyzes the legislation of foreign countries to compare the legal regulation of the establishment and operation of organizations that perform functions defined by their founding documents and utilize state or municipal property. The study covers the Republic of Kazakhstan, the Russian Federation, the Republic of Belarus, Georgia, the Republic of Azerbaijan, the Federal Republic of Germany, the Republic of Poland, and the United Kingdom of Great Britain and Northern Ireland. The comparison was conducted across eight interconnected areas: establishment (incorporation) issues; financing of operations; management; accounting and registers; types of state institutions; reorganization issues; liability; and reporting.*

Keywords: *state institutions, foreign legislation, comparative legal analysis, state property, right of operational management, public legal entities, property liability of the state, state property register, reorganization and liquidation, reporting and transparency.*

Республика Казахстан

Основным профильным актом является Закон Республики Казахстан от 1 марта 2011 года № 413-IV «О государственном имуществе». Закон объединяет нормы о составе государственного имущества, компетенции публичного собственника, государственных юридических лицах, приватизации, аренде, учёте и мониторинге активов. Он состоит из 18 глав и 219 статей [1].

Государственным учреждениям непосредственно посвящён параграф 6 главы 11 статьи 159-165. Общие правила о государственных юридических лицах, включая учредительные документы и прекращение, содержатся в статьях 123-130, а централизованный учёт государственного имущества и реестр регулируются статьями 196-201 [2].

Особенности регулирования государственных учреждений:

1. Вопросы создания (учреждения)

Вышеуказанном законе в статье 159 определено разделение учреждения на республиканские и коммунальные. Республиканское учреждение создаётся Президентом или Правительством, коммунальное соответствующим местным исполнительным органом, а на низовом уровне аппаратом акима при предусмотренных законом согласованиях. Совместное создание учреждения государством и частными лицами не допускается. Учредительным документом служит устав либо положение, утверждаемое отраслевым или местным органом в пределах компетенции (статья 124).

2. Финансирование деятельности

Статья 160 определяет финансирование государственных учреждений соответствующего бюджета согласно бюджетного законодательства. Это означает, что данный закон определяет общий источник для финансирования, но доходная деятельность организаций допустима только при наличии специального нормативного основания и не должна превращать учреждение в коммерческую организацию.

3. Управление

При создании учреждений учредителем является уполномоченный орган по государственному имуществу, отраслевой или местный орган. При этом учреждение владеет и пользуется закреплённым имуществом в пределах его назначения, закона и учредительного документа. В статье 161 самостоятельное отчуждение или иное распоряжение закреплённым имуществом и активами, приобретёнными за счёт сметы, по общему правилу запрещено. В статье 162 допускается изъятие и перераспределение имущества собственником в установленном порядке.

4. Учёт и реестр

Статьи 196-201 устанавливают единый централизованный учёт в форме реестра государственного имущества и параллельный ведомственный учёт. В реестре отражаются идентифицирующие характеристики, закрепление объекта, балансовая стоимость, обременения, ответственные лица и основания возникновения или прекращения прав. Внесение записи имеет регистрационно-информационное, а не правоустанавливающее значение. Передача объекта другому органу или пользователю сама по себе не прекращает его учёт а сведения актуализируются и сохраняются в архиве.

5. Типы государственных учреждений

Закон различает республиканские и коммунальные учреждения по уровню его создания. Отдельно урегулированы учреждения, являющиеся

государственными органами а статьи 163-164 учитывают их права, полномочия и специальные ограничения участия в решении имущественных вопросов.

6. Вопросы реорганизации

Статья 130 определяет, что реорганизация и ликвидация республиканского юридического лица производятся по решению Правительства а коммунальный по решению компетентного местного органа. После реорганизации оставшееся имущества перераспределяется собственником, а деньги зачисляются в соответствующий бюджет.

7. Ответственность

Статья 165 определяет специальный порядок, учреждение отвечает находящимися в его распоряжении деньгами, а взыскания закреплённым имуществом не допускается. При недостаточности денег субсидиарную ответственность несёт Правительство или административно-территориальная единица средствами соответствующего бюджета. Такое правило заранее распределяет риск между учреждением и собственником.

8. Отчётность

Открытость обеспечивается сочетанием реестрового учёта, правил предоставления сведений из реестра и общего Закона «О доступе к информации». При этом реестр содержит и служебные сведения. Для законопроекта важно раздельно определить сведения, открытые всем, сведения для межведомственного обмена, сведения ограниченного доступа, ответственность за несвоевременное обновление данных.

Российская Федерация

В Российской Федерации нет единого закона о государственных учреждениях. Регулирование распределено между Гражданским кодексом Российской Федерации (часть первая) [3], Федеральным законом от 12 января 1996 года № 7-ФЗ «О некоммерческих организациях» [4], Федеральным законом от 3 ноября 2006 года № 174-ФЗ «Об автономных учреждениях» [5], Бюджетным кодексом [6] и подзаконными актами об учёте федерального имущества.

Общий гражданско-правовой статус государственного или муниципального учреждения закреплён прежде всего в статьях 123.21-123.22 ГК. Статья 123.23 относится к частному учреждению и не должна использоваться для характеристики государственных учреждений. Специальный Закон № 174-ФЗ содержит статьи 1-21, тогда как для бюджетного учреждения ключевой является статья 9.2 Закона № 7-ФЗ, а для казённого статьи 6, 161 и 162 Бюджетного кодекса. Отличие казённого учреждения от бюджетного учреждения в том, что

она работает под строгим контролем государственного органа и расходует средства только по бюджетной смете, а бюджетное учреждение получает государственное задание, но имеет больше самостоятельности в использовании собственных доходов и части имущества.

Особенности регулирования государственных учреждений:

1. Вопросы создания (учреждения)

Учреждение создаётся собственником Российской Федерацией, субъектом Федерации или муниципальным образованием на основании решения компетентного органа и устава. Для автономного учреждения статьи 5-7 Закона № 174-ФЗ определяют решение о создании, учредителя и обязательное содержание устава. Изменение типа учреждения не тождественно его реорганизации и проводится по специальной процедуре.

2. Финансирование деятельности

Казённое учреждение действует на основании бюджетной сметы, принимает обязательства в пределах лимитов и проводит операции через лицевые счета, его доходы по общему правилу поступают в соответствующий бюджет. Бюджетное и автономное учреждения получают субсидию на выполнение государственного или муниципального задания и могут получать собственные доходы от предусмотренной уставом деятельности. Финансовая автономия должна оцениваться вместе с ограничениями по недвижимости и особо ценному движимому имуществу.

Управление

Учредитель утверждает устав и задание, назначает руководителя, контролирует сохранность имущества и согласовывает предусмотренные законом сделки. У автономного учреждения обязательно действует наблюдательный совет, полномочия и процедуры которого регулируются статьями 10-17 Закона № 174-ФЗ. Крупные сделки бюджетного учреждения, а также сделки, в которых имеется личная заинтересованность его должностных лиц, подлежат дополнительной проверке и контролю. Таким образом, объём коллегиального управления зависит от типа учреждения.

4. Учёт и реестр

Имущество учреждения учитывается в бухгалтерской и бюджетной отчётности, а федеральные активы также в реестре федерального имущества по правилам Правительства. Государственная регистрация юридического лица ведётся отдельно в Едином государственном реестре юридических лиц. Единого

имущественного реестра для всех уровней публичной собственности нет, федеральный, региональный и муниципальный учёт разграничены.

5. Типы государственных учреждений

Статья 123.22 ГК прямо устанавливает три типа это казённое, бюджетное и автономное учреждение. Они различаются способом финансирования, составом имущества, которым можно отвечать по обязательствам, объёмом самостоятельности, режимом собственных доходов и системой управления.

6. Вопросы реорганизации

Общие правила следуют из ГК и Закона № 7-ФЗ, а статьи 18-19 Закона № 174-ФЗ дополнительно регулируют реорганизацию, изменение типа и ликвидацию автономного учреждения. Решение принимает собственник или уполномоченный им орган, судьба имущества и обязательств определяется передаточными и ликвидационными процедурами.

7. Ответственность

Правила ответственности зависят от вида учреждения. Казённое учреждение отвечает по своим обязательствам имеющимися денежными средствами. Если этих средств недостаточно, дополнительную ответственность несёт собственник. Бюджетное и автономное учреждения отвечают только тем имуществом, которое определено законом. Их собственник, как правило, не отвечает по их обязательствам. Исключения устанавливаются Гражданским кодексом, в том числе в случаях причинения вреда гражданам. Поэтому порядок и пределы ответственности необходимо определять отдельно для каждого вида учреждения.

8. Отчётность

Статья 32 Закона № 7-ФЗ связывает контроль с раскрытием документов и сведений о государственных и муниципальных учреждениях на официальном сайте. Публикуются данные об учредителе, задании, планах финансово-хозяйственной деятельности, отчётности и результатах деятельности в объёме, определённом законодательством. Реестровая открытость не отменяет отраслевой, бюджетный и финансовый контроль со стороны учредителя, казначейства и контрольных органов.

Республика Беларусь

В Республике Беларусь деятельность государственных учреждений регулируется не одним специальным законом, а несколькими нормативно-правовыми актами. Основу составляют Гражданский кодекс Республики Беларусь от 7 декабря 1998 года [7], Бюджетный кодекс Республики Беларусь от

16 июля 2008 года [8] и Постановление Совета Министров от 19 июля 2013 года № 641 «О внебюджетных средствах бюджетных организаций» [9].

Ключевыми являются статья 120 Гражданского кодекса «Об учреждении», статьи 277 и 279 «О праве оперативного управления и распоряжении имуществом», статьи 79 и 103 Бюджетного кодекса «О приносящей доход деятельности, смете и обязательствах», а также пункты 6-10 и 23 Постановления № 641 «О раздельном учёте бюджетных и внебюджетных операций».

Особенности регулирования государственных учреждений:

1. Вопросы создания (учреждения)

Учреждение создаётся собственником для осуществления управленческих, социально-культурных или иных функций некоммерческого характера. Собственник определяет цели, утверждает устав, назначает руководителя, контролирует деятельность и сохранность имущества, а также принимает решение о реорганизации или ликвидации. Для государственного имущества полномочия собственника осуществляют Правительство, уполномоченные республиканские органы, местные органы управления и иные уполномоченные организации.

2. Финансирование деятельности

Статья 120 ГК допускает полное или частичное финансирование собственником. Бюджетная организация является более узкой категорией она финансируется из соответствующего бюджета на основе бюджетной сметы. Согласно статье 79 Бюджетного кодекса, бюджетные организации могут заниматься деятельностью, приносящей доход, если она соответствует их уставным целям или направлена на выполнение важных для государства задач. Порядок получения и использования таких внебюджетных средств установлен постановлением Совета Министров Республики Беларусь от 19 июля 2013 года № 641 «О внебюджетных средствах бюджетных организаций».

3. Управление

В этой системе основные решения принимает собственник. Он определяет задачи учреждения, устанавливает пределы его деятельности, назначает руководителя и контролирует использование имущества. Учреждение может пользоваться переданным ему имуществом, но не вправе без согласия собственника продавать, передавать или иным образом распоряжаться им, включая активы, приобретённые за выделенные средства. В случаях, предусмотренных законодательством, собственник может изъять это имущество.

4. Учёт и реестр

Бюджетная организация ведёт единый баланс, но отдельно учитывает бюджетные средства, внебюджетные доходы, расходы и имущество в зависимости от источника их получения. Для внебюджетных средств также составляются отдельные сметы и отчёты. В рассмотренных нормативных актах не предусмотрен единый реестр всего имущества государственных учреждений. Недвижимость, земельные участки и другие виды имущества учитываются в разных государственных системах по правилам, установленным отдельными нормативными актами.

5. Типы государственных учреждений

Гражданский кодекс закрепляет общую форму «учреждение», а Бюджетный кодекс выделяет бюджетную организацию как учреждение с бюджетно-сметным финансированием и специальным режимом учёта. Для отдельных отраслей статус дополнительно конкретизируется специальным законодательством.

6. Вопросы реорганизации

Решение о реорганизации относится к полномочиям собственника и осуществляется по правилам Гражданского кодекса и специального законодательства. Учредительный акт и устав должны определять компетентный орган и порядок передачи функций, имущества, требований и обязательств. Для бюджетной организации необходимо одновременно урегулировать закрытие смет, лицевых счетов и внебюджетных источников.

7. Ответственность

В статье 120 Гражданского кодекса учреждение отвечает по обязательствам находящимися в его распоряжении денежными средствами. При их недостаточности собственник несёт субсидиарную ответственность.

8. Отчётность

Рассмотренные документы прежде всего требуют, чтобы учреждения отчитывались перед собственником, финансовыми и контролирующими органами. При этом они не предусматривают размещение всей информации об учреждениях на едином открытом портале. Поэтому правила бухгалтерского учёта сами по себе не подтверждают наличие открытого или общедоступного реестра.

Грузия

Закон Грузии от 28 мая 1999 года № 2052 «О юридическом лице публичного права» является самостоятельным профильным актом. Он включает 6 глав и 20 статей, такие как общие положения, создание, организацию деятельности,

управление и государственный контроль, финансирование и прекращение, переходные и заключительные нормы [10].

Закон создаёт форму Legal Entity under Public Law (далее – LEPL), которая отделена от государственного органа, обладает специальной правоспособностью и выполняет государственные и общественно значимые задачи под государственным контролем. (LEPL) юридическое лицо публичного права организация, отдельная от органов государственного управления, которая самостоятельно осуществляет общественную, социальную, образовательную, культурную или государственную деятельность под особым государственным контролем.

Особенности регулирования государственных учреждений:

1. Вопросы создания (учреждения)

В статье 5 (LEPL) может быть создан законом, постановлением Правительства либо административным актом государственного органа, если такое полномочие прямо предусмотрено законом, предусмотрены также специальные основания для автономных республик и муниципалитета Тбилиси. Правосубъектность возникает после утверждения устава и назначения или избрания лица, уполномоченного представлять организацию. Устав должен определять цели, функции, органы, представительство, контроль, финансовые основы и прекращение.

2. Финансирование деятельности

Статья 13 допускает членские взносы, целевые бюджетные средства, доход от государственного заказа, договорные поступления и иные разрешённые источники. Все средства должны использоваться только для целей и функций организации. Если (LEPL) получает финансирование из государственного бюджета, оно должно быть отражено в соответствующем бюджете.

3. Управление

Статья 10^{1} руководителем юридического лица публичного права, созданного на основе государственной собственности (за исключением общеобразовательных учреждений (школ), учреждений профессионального образования (колледжей или высших учебных заведений), а также юридических лиц публичного (государственного) права, осуществляющих научно-исследовательскую, спортивную или религиозную деятельность), назначается Премьер-министр Грузии, органом государственного контроля, определенным законом или постановлением Правительства Грузии, или высшим исполнительным органом соответствующей автономной республики на

основании отдельного административного акта. Статья 14 требует ведения учёта и составления баланса. Годовой баланс проверяется независимым аудитором, назначаемым органом государственного контроля. Сам Закон Грузии от 28.05.1999 № 2052 «О юридических лицах публичного права» не создаёт единого централизованного реестра активов всех (LEPL). Передача и регистрация конкретного государственного имущества осуществляются по законодательству о государственном имуществе и регистрации соответствующих прав.

5. Типы государственных учреждений

Статья 4 предусматривает две формы юридических лиц публичного права (LEPL). Первая это корпорация, объединяющая своих членов. Вторая это учреждение, которое не имеет членов и создаётся для выполнения государственных или общественно значимых задач. По своему устройству такая организация ближе к государственному учреждению. Для отдельных LEPL специальные законы могут устанавливать особые правила. Если они отличаются от положений общего закона, применяются нормы специального закона.

6. Вопросы реорганизации

Статья 9 если юридическое лицо публичного права в основном занималось предпринимательской деятельностью, соответствующий государственный орган обязан поднять вопрос о реорганизации или ликвидации этого юридического лица. Статьи 15-18 регулируют прекращение и ликвидацию. Акт о прекращении не может иметь меньшую юридическую силу, чем акт о создании. Ликвидаторов назначает орган государственного контроля, а имущество, оставшееся после ликвидации организации, созданной на базе государственного имущества, переходит государству.

7. Ответственность

Юридическое лицо публичного права (LEPL) является самостоятельной организацией. Оно от своего имени приобретает права, принимает на себя обязанности и действует только в пределах полномочий, установленных законом и уставом. Руководитель несёт персональную ответственность за имущество организации и правильное расходование её средств. При этом общий закон не устанавливает, что государство обязано отвечать по всем долгам LEPL. Поэтому в каждом случае необходимо дополнительно изучать специальный закон или иной акт о создании организации, а также её устав.

8. Отчётность

Общий административный кодекс Грузии относит организации, созданные государством или муниципалитетом для выполнения государственных и

общественно значимых функций, к административным органам. Поэтому информация об их деятельности должна быть открыта, кроме сведений, доступ к которым ограничен законом. К ним относятся государственная, коммерческая и профессиональная тайна, а также персональные данные. Таким образом, деятельность этих организаций контролируется не только государственными органами и независимыми аудиторами, но и посредством открытого доступа к официальной информации.

5. Азербайджанская Республика

Закон Азербайджанской Республики от 29 декабря 2015 года № 97-VQ «О публичных юридических лицах» краткий профильный акт из 9 статей. Он определяет сферу применения, понятия, деятельность, создание, правоспособность, устав, имущество, управление, реорганизацию и ликвидацию [11].

Закон устанавливает общие правила, а конкретные вопросы управления имуществом, финансирования и деятельности каждой организации определяются в решении о её создании и уставе. После принятия в 2015 году закон несколько раз изменялся в 2016, 2017, 2019, 2020 и 2023 годах. Поправка от 6 июля 2023 года уточнила, что этот закон применяется к Центральному банку только по вопросам, которые не урегулированы специальным Законом «О Центральном банке». Другие правила о публичных юридических лицах распространяются на Центральный банк лишь в тех случаях, когда это прямо предусмотрено [12].

Особенности регулирования государственных учреждений:

1. Вопросы создания (учреждения)

Публичное юридическое лицо создаётся от имени государства органом или учреждением, определённым соответствующим органом исполнительной власти, либо от имени муниципалитета – компетентным муниципальным органом. После поправки 2019 года общий закон больше не закрепляет создание одного публичного юридического лица другим таким лицом. Статус юридического лица возникает после государственной регистрации на основании утверждённого устава [13].

2. Финансирование деятельности

Имущество может формироваться из уставного фонда, иных активов учредителя, бюджетных средств, доходов от работ и услуг, пожертвований, грантов и других уставных источников. Предпринимательская деятельность допустима, только если она служит целям создания и соответствует уставу.

Использование прибыли вне уставных целей зависит от решения учредителя и применимых бюджетных правил.

3. Управление

Статья 8 и устав распределяют полномочия между учредителем и исполнительными либо коллегиальными органами. Учредитель утверждает устав и структуру, определяет уставный фонд и направления развития, формирует органы управления, утверждает годовую финансовую отчётность и принимает решения по существенным сделкам, прибыли, реорганизации и ликвидации. Устав может ограничивать распоряжение имуществом руководителем.

4. Учёт и реестр

Публичное юридическое лицо подлежит государственной регистрации в реестре юридических лиц. Базовый Закон Азербайджанской Республики от 29 декабря 2015 года № 97-VQ «О публичных юридических лицах» предусматривает утверждение годовой финансовой отчётности учредителем, но не создаёт единого реестра всех закреплённых за такими лицами публичных активов. Источники имущества и пределы владения, пользования и распоряжения должны быть детализированы в уставе и специальных актах.

5. Типы государственных учреждений

Закон устанавливает единую форму «публичное юридическое лицо» и различает её прежде всего по учредителю – государство или муниципалитет. Закон не делит эти организации на казённые, бюджетные и автономные. Особенности деятельности каждой организации определяются с учётом её сферы работы и закрепляются в уставе.

6. Вопросы реорганизации

Статья 9 отсылает к уставу и Гражданскому кодексу, а решение относится к полномочиям учредителя в распределении, установленном законом и уставом. Практика показывает, что конкретный президентский или правительственный акт обычно определяет форму присоединения, правопреемство, передачу имущества и распределение полномочий между органами.

7. Ответственность

Первоначально закон устанавливал, отвечает ли государство или муниципалитет по обязательствам созданной ими организации. Однако эти нормы были исключены – статья 7.6 в 2016 году, а статья 7.5 в 2017 году. Поэтому сейчас вопрос ответственности необходимо рассматривать отдельно по каждой организации с учётом Гражданского кодекса, её устава, решения о создании и специальных норм. Кроме того, в 2017 году в закон было добавлено правило,

согласно которому публичное юридическое лицо не может быть признано банкротом.

8. Отчётность

В уставе должно быть указано, как организация информирует общественность о своей работе. Предусмотренные законом сведения о её регистрации можно получить из государственного реестра. Однако общий закон не устанавливает единый список данных о бюджете, имуществе и результатах деятельности, которые обязаны публиковать все такие организации. Поэтому объём раскрываемой информации определяется специальными правилами и уставом каждой организации.

Федеративная Республика Германия

В Германии нет единого федерального закона обо всех государственных учреждениях и, следовательно, единого количества статей для данной сферы. Функциональные аналоги существуют главным образом в формах корпорации, учреждения и фонда публичного права – Körperschaft, Anstalt и Stiftung des öffentlichen Rechts. Их статус формируют Основной Закон Федеративной Республики Германия от 23 мая 1949 года, федеральный или земельный учредительный закон, устав и бюджетное законодательство [14].

